



KAMOLOT SARI

22-SON

-
- **TILSHUNOSLIK**
 - **ADABIYOTSHUNOSLIK**
 - **TARIX**
 - **FALSAFA**
 - **XALQARO MUNOSABATLAR**
 - **IQTISODIYOT**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

KAMOLOT SARI



IQTIDORLI YOSHLAR ILMIY TO‘PLAMI

22-SON

Toshkent – 2025

Ushbu to‘plamda sharqshunoslik ilmi bilan shug‘ullanayotgan bo‘lajak tilshunos, adabiyotshunos, tarjimashunos, tarixchi, faylasuf, siyosatshunos va iqtisodchi sharqshunos talabalarning maqolalari o‘rin egallagan.

Mas’ul muharrir:

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori J.Abdazimov

Muharrirlar:

Professor Shorustam Shamusarov

PhD., dots Zuhridin Alimov

PhD., dots Oqiliddin Alimov

PhD., dots Suhrob Bo‘ronov

PhD. Hilola Mustapova

PhD. Sulxiya Gaziyeva

PhD. Dilafruz Abdullayeva

PhD. Kamola Rahmatjonova

PhD. Laziz To‘rayev

PhD. Ikramova Iroda

PhD. Behzod Zokirov

PhD. Valisher Abirov

Nashrga tayyorlovchi:

PhD. Yulduz Kushanova

Mazkur to‘plam 2025-yil 1-martdagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 8-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarning mazmuniga ilmiy rahbar va mualliflar mas’uldir.

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK

IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI YOSHLAR NUTQI

(turk va o'zbek tillarida)

DURDONA CHORIYEVA

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Turkshunoslik oliy maktabi 4- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: TDSHU, katta o'qituvchisi,

PhD N. Altinbayev

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar nutqi, ular foydalanadigan qisqartma so'zlar va uning ijtimoiy kommunikatsiyadagi o'rni tahlil qilinadi. Yoshlar bugungi kunda ijtimoiy platformalarda muloqot qilish jarayonida o'ziga xos va innovatsion usullarni qo'llaydilar. Maqola davomida, yoshlarning yozish uslubidagi asosiy xususiyatlar, sodda va qisqa ifodalar, emojilar va ularning tilimizga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, Facebook, Instagram, Tiktok, qisqartma so'zlar, emojilar, kommunikatsiya, Ali Murat Kırık "Sosyal Medyada Gençlerin Dili Kullanımı ve Yozlaşma Problemi", Oktay Sinanoğlu "Bir New-York Rüyası "BYE-BYE" "TÜRKÇE".

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun alohida muhitga aylangan. Facebook, Instagram, TikTok kabi platformalar nafaqat axborot almashish, balki o'zaro muloqot qilish va yangi tendensiyalar yaratish imkonini beradi. Bu o'zgarishlar yoshlar tiliga va nutqiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, bu muhitda qisqartma so'zlar keng qo'llaniladi, chunki ular tez va samarali muloqot qilish imkonini beradi. Bugungi globallashib borayotgan dunyomiz bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar o'rtasidagi kommunikatsiya ham jadallashib bormoqda. Bu o'z navbatida yoshlarning nutqlarini oson, qulay va qisqa vaqtda ifodalashi uchun qisqartma so'zlarni keltirib chiqaryapti. Qisqartma so'zlar– barqaror so'z birikmalari komponentlarining bosh harflarini yoki ma'lum qismlarini olib qo'shish bilan hosil qilingan so'zlar. Masalan, IIV — Ichki ishlar vazirligi, XTB — Xalq ta'limi boshqarmasi, fil-fak — filologiya fakulteti.¹ Qisqartma so'zlar nutqda ixchamlikka erishish zarurati bilan dastlab yozma nutqda paydo bo'ladi va faol qo'llanishi natijasida keyinchalik og'zaki nutqqa ham o'tadi.

Bu qisqartma so'zlar yoki chet tillaridan kirib kelayotgan yangi so'zlar bizning muloqotimizni tez va samarali qilish bilan bir qatorda nutqimizga va bilimimizga salbiy ta'sirini ham ko'rsatyapti desak yolg'on bo'lmaydi. Bugungacha bir qancha olimlar bu mavzu ustida ish olib borishgan va uning ta'sirlarini yoritib berishgan. Ali Murat Kırık "Sosyal Medyada Gençlerin Dili

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Qisqartma_so'zlar

Kullanımı ve Yozlaşma Problemi” maqolasida, Oktay Sinanoğlu “Bir New-York Rüyası “BYE-BYE” “TÜRKÇE” kitobida va Nuriddin Altinbayev maqolalarida buning yorqin namunalarini ko‘rishimiz mumkin.

Qisqartmalar dunyoning istalgan tilida uchraydi. Quyida ijtimoiy tarmoqda keng qo‘llaniladigan turk tilidagi ayrim qisqartmalarni keltiramiz.

Hece düşmesi ve kısaltmalar: Slm: Selam, Mrb: Merhaba, Tsk: Teşekkürler, Nbr: Naber?, Kib: Kendine iyi bak, Npyn: Ne yapıyorsun?, aeo: Allah’a emanet ol Ünsüz düşmesi ve ikinci hecedeki değişiklikleri: İlik: İyilik, Saol: Sağol, Dio: Diyor, Aney: Anne

İngilizce kökenli kelimeler: Ok: Tamam, Bye: Güle güle, Bradır: Brother Bozulmuş İngilizce — Türkçe kelimeler: Sewsin: Sevsin, Dwm et: Devam et, Ewet: Evet, Veriyorum: Veriyorum Ses değişiklikleri: Ajkm: Aşkı, Güsel: Güzel, Össledim: Özledim.¹

O‘zbek tilida ham ijtimoiy tarmoqlarda qisqartma so‘zlar keng qo‘llaniladi: Masalan: un- uchun, v.b- va boshqalar, kk- kerak, bn- bilan, mk- maktab.

Shuningdek so‘zlarga sonlarni qo‘shib yozish ham keng tarqalgan. Bunda harflarga qo‘shilgan “4” soni “ch” harfini, “6” soni esa “o” harfini ifodalaydi.² Masalan: u4un- uchun, t6g‘ri- to‘g‘ri. Shu bilan birgalikda o‘zbekcha harflar joyiga inglizcha harflar ishlatiladigan holatlarni ham ko‘p uchratamiz. O‘zbek alifbosidagi “sh” harfining o‘rniga inglizchadagi “w” harfidan foydalanish nafaqat yoshlar, kattalar o‘rtasida ham avj olgan. Buning yaqqol namunasi sifatida “wuning u4un”, “wahar” so‘zlarini keltirishimiz mumkin. Ayni vaqtda ijtimoiy tarmoqdagi yoshlar yozishmasidan namuna ko‘rsatmoqchi bo‘lsak, ishorat belgilari, hatto ba’zi so‘zlarda unli harflarni qoldirib ketishayotganiga guvoh bo‘lamiz. Va o‘z holatini ifodalash uchun turli stiker va emojilardan foydalanish eng ommalashgan yozishma uslubidir.

Misol uchun:

Salom, qalesn

-Z6r (stiker yoki emoji)

O‘zing yaxshimsn

Ha nma gaplar

Tin4lik.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turganidek, ijtimoiy tarmoqlar orqali tilimiz ham yo‘qolib bormoqda.

“Kompyuterlar, internet va ijtimoiy tarmoqlar tufayli yoshlarning o‘qish va yozish odatlari asta-sekin yo‘qolib bormoqda. Dunyoda ham, Turkiyada ham yoshlarning muloqoti 300-400 so‘z bilan chegaralangan. Kitob o‘qish va yozish insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan ikkita muhim xususiyatdir. O‘qish va yozish aqliy kuchni rivojlantirish va tilni boyitish nuqtai nazaridan juda muhim ikkita harakatdir. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘qish va yozish odatiga birinchi navbatda oilada erishiladi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlar ham doimiy, ham

¹ Ali Murat Kırık (2012). “Sosyal Medyada Gençlerin Dili Kullanımı ve Yozlaşma Problemi” maqolasi.

² <https://blog.xabar.uz/post/to-g-ri-yozish-qiyinmi>

mobil qurilmalar orqali qo‘llanilganligi sababli, yoshlarning kitob o‘qish odatlari asta-sekin yo‘qolib bormoqda” – deydi Ali Murat Kırık “Sosyal Medyada Gençlerin Dili Kullanımı ve Yozlaşma Problemi” maqolasida.¹

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy muloqot usullarining qulayliklari anchagina, ammo shu bilan birga o‘ziga xos kamchilik va salbiy ta’sirlari borligini unutmasligimiz ham kerak. Yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlarda foydalaniladigan qisqartma so‘zlar zamonaviy muloqotning muhim qismiga aylangan. Ular tezlik va samaradorlikni oshirsa-da, til madaniyatiga va aniq muloqotga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Qisqartmalar yoshlarni birlashtirishi, ijodiy fikrlashga turtki berishi mumkin, ammo ularning ortiqcha ishlatilishi tushunmovchilik va tilning buzilishiga olib kelishi ehtimoli ham mavjud. Yozishmalarimiz kundan kunga imloviy xatolarga to‘lib bormoqda. Bu kelajak avlod va yoshlarimizning bilim darajasining tushishi va tilimizning yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, qisqartma so‘zlarning foydali va zararli tomonlarini muvozanatlash, yoshlarni ongli ravishda foydalanishga undash muhimdir. Bu muammoni hal qilish uchun boshlang‘ich sinflarda internet savodxonligini oshirish, maktablarda va universitetlarda rasmiy til va yozuv madaniyatini o‘rganishga alohida e’tibor berish, qisqartmalarni me’yorida ishlatish bo‘yicha darslar o‘tkazish, yoshlar o‘rtasida til madaniyatini targ‘ib qilish, yoshlarni muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash, qisqartmalardan foydalanishdan ko‘ra to‘liq ifoda etishga e’tibor qaratish va yoshlarni to‘liq va tushunarli yozishga rag‘batlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prof. Dr. Oktay Sinanoğlu (2000). Bir New-York Rüyası “BYE-BYE” TÜRKÇE.
2. Ali Murat Kırık (2012). “Sosyal Medyada Gençlerin Dili Kullanımı ve Yozlaşma Problemi” maqolasi.
3. Tosun, C. (2005). Dil Zenginliği, Yozlaşma ve Türkçe, Journal of Language and Linguistic.
4. Misçi, S. (2006). Yeni Medya Kullanımının Organizasyon Yapısı Üzerindeki Etkileri, New Media and Interactivity International Conference
Internet saytlari:
<https://blog.xabar.uz/post/to-g-ri-yozish-qiyinmi>.
https://uz.wikipedia.org/wiki/Qisqartma_so_zlar.

¹ Ali Murat Kırık (2012). “Sosyal Medyada Gençlerin Dili Kullanımı ve Yozlaşma Problemi” maqolasi.

KO'P TILLILIK JAMIYATI VA GLOBAL ALOQALARNING YANGI ASRI

KOMRONBEK INOYATULLAYEV

TDSHU, Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

(Ingliz tili-2) 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori, professor Q. Omonov

Annotatsiya: Ushbu maqola ko'p tillilik jamiyatlarining ahamiyatini, uning shaxsiy va jamiyat darajasidagi ta'sirini tahlil qiladi. Globallashuv davrida til faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki milliy identitet, madaniyat va iqtisodiy hamkorlikning asosi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Ko'p tillilik shaxslarning madaniy anglashuvini, ijtimoiy integratsiyasini va psixologik rivojlanishini kuchaytiradi. Maqolada, shuningdek, til va madaniyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali jamiyatlarning global hamkorlikni rivojlantirishdagi roli, madaniy boylikni kengaytirish, ta'lim va iqtisodiy sohalarda ko'p tillilikning ta'siri haqida ham so'z yuritiladi. Ushbu maqola ko'p tillilikning ahamiyatini yanada kuchaytirish uchun ta'lim tizimini takomillashtirish va jamiyatda ko'p tilda muloqot qilishning zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Ko'p tillilik, globallashuv, madaniyatlararo aloqalar, ijtimoiy integratsiya, til o'rganish, madaniy boylik, iqtisodiy rivojlanish, bilingvizm, trilingvizm, ta'lim, xalqaro hamkorlik.

Hozirgi globallashuv davrida, turli madaniyatlar va tillar o'rtasidagi o'zaro aloqalar tobora chuqurlashib, insonlar bir-birini tushunish va muloqot qilishda yangi imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Bunday jarayon jamiyatda har tomonlama o'sish va rivojlanish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratadi. Aholining ko'plab tillarda so'zlashishi, shubhasiz, kun sayin kuchayib borayotgan dunyoqarash va tushunish darajasini ko'rsatadi. Bugungi kunda til faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki milliy identitet, madaniy meros va iqtisodiy hamkorlikning asosi bo'lib qolmoqda¹.

Bugungi globallashuv davrida ko'p tilli jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning ahamiyati to'g'risida tadqiqotlar olib borilayotir. Biz bu jarayonning jamiyat uchun yaratgan imkoniyatlarini va uning oldida turgan qiyinchiliklarini tahlil qilishni maqsad qilgan ekanmiz, albatta madaniyatlararo muloqotga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Ko'p tillilikka globallashuvning ta'siri, milliy tillarning ahamiyati va madaniyatlararo aloqalar bevosita bog'liq. Tillar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, yangi imkoniyatlarni ochish va jamiyatlarning kelajakka bo'lgan yondashuvini shakllantirishda qanday rol o'ynashini ham bildiradi.

Bundan tashqari, nafaqat til o'rganish va ko'p tilda muloqot qilishning kundalik jihatlari haqida, balki til va madaniyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali jamiyatni qanday yaxshilash va rivojlantirish mumkinligi haqida ham

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyundagi "Chet tili o'rganishni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

qiziqarli va aniq ma'lumotlar taqdim etish lozim. Ko'p tillilik (poliglotizm) — bir kishining yoki jamiyatning bir nechta tilni bilishi va ulardan samarali foydalanish qobiliyati bilan ta'riflanadi¹. Ushbu tushuncha lingvistik, psixologik va madaniy nuqtai nazardan keng qamrovli o'rganiladi.

Birinchidan, lingvistik nuqtai nazardan ko'p tillilik shaxsning ikki yoki undan ortiq tilda so'zlashish qobiliyatini anglatadi. Buning turli shakllari mavjud: bilingvizm (ikki tillilik), trilingvizm (uch tillilik) va ko'p tillilikning boshqa ko'rinishlari. Har bir yangi tilni o'rganish insonning kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytiradi va dunyoqarashini boyitadi. Bu masalada Crystal² ta'kidlashicha, til faqat muloqot vositasi emas, balki madaniyatni aks ettiruvchi eng muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, psixologik jihatdan, ko'p tilli shaxslar o'zining xotira va fikrlash qobiliyatini samarali ravishda rivojlantirganligini ko'rsatadi. Boshqa tillarda o'ylash va muloqot qilish ko'p tilli insonlarning ongini tezroq shakllantirishga, yangi ma'lumotlarni tezda qabul qilish va qayta ishlashga yordam beradi. Bu, shuningdek, ularning ijtimoiy va emotsional intellektini ham yaxshilaydi³.

Uchinchidan, madaniy nuqtai nazardan ko'p tillilik boshqa xalqlarning madaniyatlarini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Til, faqatgina kommunikatsiya vositasi emas, balki har bir millatning o'ziga xos qadriyatlari, urf-odatlar va dunyoqarashi aks etadigan oyna bo'lib xizmat qiladi. Bir nechta tilni bilish insonning madaniyatlararo anglashuvini kuchaytiradi, boshqalarga nisbatan hurmatni oshiradi va global hamkorlikni rivojlantiradi.

Shunday qilib, ko'p tillilik shaxsning faqat til bilishi bilan cheklanmaydi, balki uning psixologik va madaniy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Jamiyatda ko'p tillilikning ahamiyati juda katta. U nafaqat til o'rganish va muloqot vositasi sifatida, balki ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash, madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirish va global miqyosdagi hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy integratsiya

Ko'p tillilik jamiyatdagi turli guruhlar o'rtasidagi anglashuvni kuchaytiradi. Ko'p millatli yoki turli tilni biladigan aholi yashaydigan davlatlarda, davlat tillaridan bir yoki bir nechtasini bilish jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida birdamlikni saqlashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlash va jamiyatda hurmatli aloqalar o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ko'p tillilik milliy birdamlikni ta'minlashda, jamiyatning xilma-xilligi va turli tillardagi insonlarni birlashtirishda zarur vosita bo'lib xizmat qiladi.

Madaniy boylik

¹ Авдеева И.В. Секреты полиглота: как выучить 20 иностранных языков / И.В. Авдеева // Доклады. ТСХА: сборник статей. — М., 2016. <https://www.mgpu.ru/wp-content/uploads/2020/07/Spisok-statej.-poliglotty-i-mnogoyazychie.pdf>

² Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press. <https://www.cambridge.org/core/books/cambridge-encyclopedia-of-language/59BC744BCE0E62F65A8D9C1DC70ECFAA>

³ Grosjean, F. (2010). Bilingual: Life and Reality. Harvard University Press. <https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbn=9780674066137>

Ko‘p tillilikning yana bir ahamiyatli jihati – madaniyatlararo aloqalar va madaniy boylikni kengaytirish imkoniyatidir. Har bir til o‘ziga xos tarix, urf-odatlar va qadriyatlarni aks ettiradi. Shuning uchun, turli tillarni bilish insonni boshqa xalqlarning madaniyatiga chuqurroq kirishga undaydi. Masalan, fransuz, ispan, arab yoki xitoy tillarini o‘rganish orqali ushbu xalqlarning boy madaniy merosi bilan tanishish mumkin. Bu, o‘z navbatida, madaniyatlararo anglashuvni kuchaytiradi, boshqalarni yanada yaxshi tushunishga yordam beradi va global jamiyatdagi birdamlikni oshiradi.

Ta’lim va fan

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ta’lim va ilm-fan sohalarida katta afzalliklarga ega. Ingliz tili, masalan, xalqaro ilmiy va texnologik aloqalar uchun asosiy vositaga aylangan. Xorijiy tillarni o‘rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish uchun, balki ilmiy izlanishlar va ta’lim jarayonlarida ham muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘rganish jamiyatning rivojlanishiga, yangi bilimlarni qabul qilish va ulardan samarali foydalanishga katta hissa qo‘shadi. Bunday bilimlar nafaqat ilm-fan sohasida, balki iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Ko‘p tillilik bugungi kunda shaxsiy va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. U nafaqat til bilish qobiliyatini oshirish, balki ijtimoiy integratsiya, madaniy boylik va iqtisodiy rivojlanishga ham katta hissa qo‘shadi. Ko‘p tillilik orqali insonlar o‘rtasida o‘zaro anglashuv va hamkorlik mustahkamlanadi, madaniyatlararo muloqot rivojlanadi, va global hamkorlik yanada chuqurlashadi. Shu bilan birga, ko‘p tillilikni yanada rivojlantirish uchun ta’lim tizimini takomillashtirish, til o‘rganishga qaratilgan dasturlarni kuchaytirish va jamiyatda ko‘p tillilikka bo‘lgan ehtiyojni targ‘ib qilish zarur. Faqat shunday qilish orqali biz global dunyoda muvaffaqiyatli va ijtimoiy barqaror jamiyatlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyundagi “Chet tili o‘rganishni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Авдеева И.В. Секреты полиглота: как выучить 20 иностранных языков. И.В. Авдеева // Доклады. ТСХА: сборник статей. – М., 2016. <https://www.mgpu.ru/wp-content/uploads/2020/07/Spisok-statej.-poliglotty-i-mnogoyazychie.pdf>
3. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of Language*. Cambridge University Press.
4. Grosjean, F. (2010). *Bilingual: Life and Reality*. Harvard University Press.

ДОПОЛНЕНИЕ И ЕГО ВИДЫ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

ФОТИМА ШУКУРУЛЛАЕВА

ТГУВ, Высшая школа арабистики 4 курс

Научный руководитель: доц. Г.Муталова

Аннотация: Статья посвящена изучению дополнения в арабском языке. В ней рассматриваются виды дополнений. Особое внимание уделяется прямому дополнению, его функциям и его употреблению в предложении.

Ключевые слова: Дополнение, арабский язык, главные члены, второстепенные члены, обстоятельство места, обстоятельство времени, винительный падеж, прямое дополнение, косвенное дополнение, дополнение совместности.

В арабском языке как и других языках есть главные и второстепенные члены предложения. Одним из второстепенных членов в арабском языке является дополнение. Оно делится на два вида: косвенное и прямое.

Косвенным дополнением является имя, над которым выполняется действие и сказуемое употребляется с предлогом. В связи с этим косвенное дополнение стоит в родительном падеже.

Прямым дополнением в арабском языке является имя, над которым выполняется действие, но при том сказуемое не имеет при себе предлогов. Оно по-арабски называется *مفعول*. Прямое дополнение употребляется в состоянии *النصب*, то есть в винительном падеже. Существуют 5 типов прямого дополнения: *المفعول المطلق* абсолютный объект, *المفعول لأجله أو له* обозначение цели причины действия, *المفعول به* прямое дополнение, *مفعول فيه* обстоятельство места и времени, *المفعول معه* дополнение совместности. Теперь рассмотрим каждый из видов дополнения по отдельности с примерами.

Абсолютным объектом *المفعول المطلق* называется имя действия, а также имя однократности и имя способа действия в винительном падеже. Он употребляется в следующих случаях:

1) «для усиления» (*للتأكيد*) и подчеркивания значения глагола, например: *ضربه ضربا* (букв.: он его побил битьём) *سار سيرا* (букв.: он шел хождением);

2) «для выделения» (*للتمييز* или *للنوع*) и выражения отличительного признака данного действия, причем имя действия имеет при себе определение-прилагательное, выражающее этот признак, например: *ضربته ضربا شديدا* я его сильно бил (букв.: сильным битьём), *سرت سيرا طويلا* я долго шел (букв.: я шел длинным хождением);

3) при пересечении нескольких действий; в этом случае вместо имени действия употребляется имя однократности, например: *ضربة و ضربتي ضربتي* я ему нанес один удар, а он меня дважды ударил.

Следует обратить внимание на следующие случаи:

1) Вместо имени действия данного глагола может употребляться имя действия другого глагола с аналогичным значением, например: *جلس قعودا* он сидел;

2) В некоторых случаях глагол опускается и абсолютный объект употребляется самостоятельно, например: *سادى قعودا*!

3) Иногда в качестве абсолютного объекта употребляется имя, которое не является масдаром, но уточняет или характеризует данное действие, например: *رجع القهقري* он вернулся¹.

المفعول الأجله используется для обозначения цели и причины действия. Это масдар в винительном падеже, которое отвечает на вопрос «почему?». Например: *قصدتك ابتغاء معروفك* я направился к тебе (почему?) в ожидании твоей благосклонности², *اقمت اكراما له* встал из уважения к нему³.

Обстоятельство времени и места — это имя в винительном падеже, которое служит для выражения места или времени происхождения действия. Оно по-другому называется *ظرف المكان و الزمان* сосуды (вместилища) места и времени, так как содержит смысл «в чём-либо».

1) общее обозначение времени, например: *دنهرا* днём;

2) обозначения уточненного времени события, например: *يوم الجمعة* я пришёл в пятницу;

3) продолжительность времени действия, например: *سرت ثلاثة ايام* ехал три дня;

4) общее направление по отношению к какому-либо месту например: *يمينا* направо;

5) обозначение расстояния, в особенности при глаголах передвижения, например: *سار اربعة اميال* он ехал четыре мили⁴.

В арабском языке имеется ещё одна разновидность дополнений, которые ставятся в форме винительного падежа после частицы *واو المعية* (واو) со значениям совместности *المفعول معه*. Эти дополнения показывают, кто (или что) сопутствует объекту при совершении им действия. Примеры: *سار العمال* рабочие отправились по Нилу⁵, *ما لك و زيدا* что у тебя с Зейдом⁶?

Прямое дополнение *مفعول به* — это имя в винительном падеже над которым выполняется действие. Например: *اكل الحمار الفول* осёл съел зерно⁷. Прямое дополнение бывает выражено явным именем (существительным,

¹ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. — М., 2001. — С. 339

² Сарбулатов И. Ф. Аль-Аджуррумия. Синтаксис арабского языка для начинающих — М., 2016. — 109 С.

³ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. — М., 2001. — С. 340

⁴ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. — М., 2001. — С. 340

⁵ Холидов Б.З. Учебник арабского языка — Т., 1977. — С. 421-422

⁶ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. — М., 2001. — С. 341

⁷ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. — М., 2001. — С. 341

причастием или прилагательным) либо местоимением¹. Например: هو ضربني *он побил меня*, здесь местоимение *نى* выражает прямое дополнение. В одном предложении может быть одно, два и более прямых дополнений. Это зависит от типа глагола.

Теперь рассмотрим примеры:

1. Волк съел ягненка — أكل الذئب الخروف

2. Лиса охотится за курицей — يصيد الثعلب دجاجة

Данные предложения состоят из одного глагола и двух имён: первое имя, которое называется *فاعل* букв.: выполняющий (так как оно выполняет действие). Если обратим внимание на второе имя в этих примерах, то увидим, что над ними выполняется действие. Действие выполняемое первым именем падает на второе имя, которое по-арабски называется *مفعول به*. Его признаком является то, что оно стоит в винительном падеже.

Необходимые требования для *فاعل* и *مفعول به*:

1. Субъект и объект действия всегда является именем;
2. *فاعل* это то, но кто (или что) выполняет действие;
3. *مفعول به* это то, кого (или чего) падает действие;
4. *فاعل* стоит в состоянии *الرفع*, то есть в именительном падеже;
5. *مفعول به* стоит в состоянии *النصب*, то есть в винительном падеже.

Можем сделать вывод что, в арабском языке имеется 5 видов прямых дополнений. У каждого из них есть своя функция в предложении и своё значение. Следует отметить, что некоторые прямые дополнения в арабском языке переводятся на русский язык как косвенное дополнение или обстоятельство.

Список использованной литературы:

1. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М., 2001.
2. Халидов Б.З. Учебник арабского языка – Т.: Укитувчи, 1981.
3. Али Ал-Джарам и Мустафа Амин. الواضح النحو — К., 1707.
4. Сарбулатов И. Ф. Аль-Аджуррумия. Синтаксис арабского языка для начинающих — М., 2016.
5. Али Ал-Джарам и Мустафа Амин. الواضح النحو — К., 1707. — С. 32.

ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ВИНИТЕЛЬНОГО ПАДЕЖА ПРИ ГЛАГОЛАХ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

ФАЗИЛАТХОН МАХКАМОВА

ТГУВ, Высшая школа арабистики 4 курс,
Научный руководитель: доц. Г.Муталова

Аннотация: Статья посвящена изучению определенных функций винительного падежа в арабском языке. Целью является анализ

¹ Али Ал-Джарам и Мустафа Амин. الواضح النحو — К., 1707. — С. 32.

винительного падежа прямого объекта, а также глаголов, требующих двух и даже трех прямых и косвенных дополнений. Также рассматриваются некоторые способы передачи винительного падежа при переводе.

Ключевые слова: Винительный падеж, прямое дополнение, переходные глаголы, непереходные глаголы, породы глаголов, соучастие, совместности, перевод.

Значение винительного падежа в арабском языке разнообразно. Он употребляется для выражения зависимости имени от глагола. В предложении имя в винительном падеже выполняет функцию различных типов дополнений и обстоятельств. Дополнение – это объект, на которое направлено действие, обычно выражается винительным падежом. Оно бывает различных типов: приименное, приглагольное, прямое, косвенное и т.д.

Прямое дополнение выражается в форме винительного падежа имени и местоимения как после переходных глаголов, так и после масдаров и причастий, образованных от переходных глаголов, и в некоторых специфических синтаксических конструкциях.¹

Например:

Он ел финики – أَكَلَ ثَمَرًا
Она пила воду – شَرَبَتْ مَاءً

В отношении употребления винительного падежа арабские глаголы делятся на «переходные» (الافعال مُتَعَدِّيَّة) и «непереходные» (الافعال لَازِمَة) или غير مُتَعَدِّيَّة. К первым относятся те глаголы, при которых объект действия выражен формой винительного падежа. Те глаголы, при которых объект действия выражается именем с предлогом, арабские грамматисты называют «глагол переходный посредством предлога» (الافعال مُتَعَدِّيَّة بِغَيْرِهِ) или الْمُتَعَدِّي بِحَرْفٍ (جَرَّ). В этом случае дополнение при глаголе не считается прямым.² Такое дополнение считается косвенным.

Например:

Он пошел в университет с товарищем – ذَهَبَ إِلَى الْجَامِعَةِ مَعَ رَافِقٍ

Слово прямого дополнение в предложении на арабском языке часто совпадает с прямым дополнением русского языка. Но также там, где русский глагол требует прямого дополнения, соответствующий арабский глагол может требовать косвенного или наоборот. Как правило прямое дополнение ставится в предложении после подлежащего.

Например:

Студент понял это упражнение – فَهَمَّ الطَّالِبُ هَذَا التَّمَرِينَ

Однако для выделения прямое дополнение может быть вынесено впереди подлежащего³.

¹ Шагаль В.Э. Учебник арабского языка. Воениздат. 1983. – С. 157-158.

² Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М., 2001. – С. 339.

³ Шагаль В.Э. Учебник арабского языка. Воениздат. 1983. – С. 157-158.

Например:

فَهَمَ هذا التمرينَ الطالبُ – Это упражнение студент понял

Некоторые переходные глаголы в арабском языке требуют после себя постановки не только одного, но и двух и даже трех существительных, из которых одно бывает прямым дополнением, а остальные – косвенными дополнениям¹.

Вдвойне переходные глаголы представляют собой группу глаголов, которые можно разделить на определенные категории. Эта группа в количественном отношении может значительно увеличиться за счет превращения переходных глаголов во вдвойне переходные с помощью дополнительных моделей, которые придают глаголу переходность.

Вдвойне переходные глаголы делятся, в свою очередь, на две группы:

1) Глаголы с двумя дополнениями, которые по отношению друг к другу не могут быть подлежащим и сказуемым именного предложения. К таким глаголам относятся:

اعطى давать кому-либо что-либо; *سأل* спрашивать кого-либо о чем-либо; *منح* награждать; *منع* запрещать; *علم* обучать и т.п.

Например:

اعطيتُ الطالبَ كتابًا - Я отдал студенту книгу
علّمتُ اخاك حسابًا - Она обучила твоего брата арифметике

2) Глаголы с двумя дополнениями, которые по отношению друг к другу могут быть подлежащим и сказуемым именного предложения. Эти глаголы, в свою очередь, делятся на две группы: глаголы ощущения и глаголы превращения. К глаголам ощущения относятся:

ظنّ думать, полагать; *زعم* полагать; *حسب* считать, полагать; *عدّ* считать; *علم* знать; *رأى* видеть, считать и др.

Например:

ظنّ طالبًا عاقلًا - Он полагал, что студент умён
أرى العلمَ نافعًا - Я считаю знание полезным
حسبتُ اخاك عالمًا - Я счел твоего брата ученым

Эти глаголы названы глаголами ощущения, потому что их значение связано с внутренним ощущением человека, которое воспринимается сердцем. Вместе с тем следует отметить, что не каждый из этих глаголов ставит в винительный падеж два дополнения. Среди них есть глаголы, которые ставят в винительный падеж одно дополнение, а также и непереходные глаголы².

Двух дополнений в форме винительного падежа требует также VIII порода глагола *أخذ - اتخذ*

Например:

اتَّخذَ الجارَ رفيقًا - Он избрал соседа в качестве товарища

¹ Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Т. Укитувчи. – С. 420

² Рыжих В.И. Переходность арабского глагола. Східний світ №1 2008. – С. 153.

IV порода некоторых глаголов, обозначающих уведомление, сообщение и т.п. требует трех дополнений в форме винительного падежа.

Например:

اعْلَمْتُ مَحْمُودًا الْمَعْلُومَةَ مُفِيدَةً

Я дал знать Махмуду, что информация полезна.

أَرَيْتُ أَخَاكَ الْحَرْفَةَ لَازِمَةً

Я показал твоему брату, что профессия нужна.

В арабском языке имеется ещё один вид дополнения, который использует форму винительного падежа. После частицы *وَ* имя, обозначающее лицо или предмет, участвующий в действии совместно с субъектом и объектом, обозначается винительным падежом. Его называют: «винительный падеж соучастия» (*الْمَفْعُولُ مَعًا*), а союз *وا*: «вав совместимости» (*وَإِوَاءُ الْمَعِيَّةِ*).

Например:

وَهَا أَنَا ذَاهِبٌ لِاتِّتَاوَلَ وَإِيَّاهُ الْهَشَاءُ

И вот я иду, чтобы ужинать вместе с ним

سَارَ الْعَمَّالُ وَالنَّيْلُ

Рабочие отправились по Нилу

В этих предложениях слова *النَّيْلُ* и *إِيَّاهُ* представляют собой дополнения совместности. В первом предложении *он* – соучастник субъекта в совершении действия, а во втором примере *Нил* мыслится как бы сопутствующим субъекту, пока им не совершается действие.¹

Таким образом, можно сделать выводы о том, что в арабском языке винительный падеж имеет широкий спектр значений и функциональных особенностей. Винительный падеж является основным способом выражения прямых дополнений в арабском языке. Однако, исходя из специфики арабского языка, винительный падеж не всегда передает значение прямого дополнения. В ряде случаев, а это часто связано с категорией переходности/непереходности глаголов, винительный падеж служит также и для выражения косвенных дополнений, значение которых необходимо учитывать при переводе на русский язык.

Список использованной литературы:

1. Шагаль В.Э. Учебник арабского языка. – М.: Воениздат, 1983.
2. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М., 2001.
3. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Т.: Укитувчи, 1981.
4. Рыжих В.И. Переходность арабского глагола. – Східний світ, №1, 2008.

¹ Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Т.: Укитувчи. – С. 422.

VYETNAM TILIDAGI OT SO‘Z TURKUMIDA TAKROR SO‘ZLARING QO‘LLANILISHI

BEHZOD ODILOV

*TDSHU, Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha
sharq tillari(Vyetnam) 2-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: N. Abdurashidova

Annotatsiya: Mazkur maqola vyetnam tilidagi takror so‘zlarni o‘rganish va tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: tematik tahlil, qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, kasb nomlari, mehnat qurollari.

Xorijiy tillarni o‘rganish insonga yangi madaniyat, bilim va yangi do‘stlar bilan tanishish, muloqotga kirishish hamda dunyoqarashni o‘stirishda yordam beruvchi eng yaxshi vosita. Ammo yangi tillarni o‘rganish anchayin murakkab jarayon va hamma ham bu kabi murakkabliklarni yengib o‘ta olmaydi.

Vyetnam tilidagi gapning istalgan qismi bo‘g‘inga bo‘linadi. Har bir bo‘g‘in oldidagi bo‘g‘indan ham leksik ham grammatik jihatdan farq qiladi.

Vyetnam tilida so‘zlar turli xil usullarda: so‘z qo‘shish (so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi), affiksatsiya va takror yordamida yasaladi. Vyetnam tilida takror usuliga ko‘ra so‘z yasalishi ko‘p miqdorni tashkil etadi.

Vyetnam tili lug‘at boyligini ko‘p miqdorini takror so‘zlar tashkil qilib, takror so‘zlar ikki xil usulga ko‘ra yasaladi: to‘liq takror (ngày ngày “kundun kunga”, người người-“odamlar”) va qisman takror (ấm áp — “iliq”, sáng sủa - “yorqin”, nghỉ ngơi- “dam olmoq”). Vyetnam tilida takror so‘zlar turli xil ma’no mazmunni yaqqol ifodalab ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada biz vyetnam tilidagi ot so‘z turkumida takroriy so‘zlarning qo‘llanilishini quyidagi bandlarda ko‘rib chiqamiz.

Ot so‘z turkumida takror holati:

Takroriy otlar yasalganda so‘zlar ko‘plikni ifodalab keladi.

Masalan: làng – “qishloq”- làng làng “qishloqlar¹”

ngày- “kun” – ngày ngày “har kuni ²”

người – “odam”- người người “har bir odam³”

Takroriy otlarda sifatlardagi kabi tovush o‘zgarish holati mavjud emas.

Vyetnam tilida ot so‘z turkumiga oid so‘zlarning takrorlanish holati, ularning turli xususiyatlariga ko‘ra 6 ta guruhga ajratiladi.

1. Otlarda o‘simlik yoki hayvon nomini ifodalovchi so‘zlarning o‘zak morfemasini takrorlash holatida. Bunda so‘z yasovchi morfema, o‘zak morfemadan oldin keladi. Ohangning o‘zgarishi kuzatilib, ular quyidagicha tus

¹ Аликанов К.М. Мальханова И.А «Новый Русско – Вьетнамский словарь» (более 50 тысяч слов), Ханой. 2007. б 549

² Аликанов К.М. Мальханова И.А «Новый Русско – Вьетнамский словарь» (более 50 тысяч слов), Ханой. 2007. б 667

³ Аликанов К.М. Мальханова И.А «Новый Русско – Вьетнамский словарь» (более 50 тысяч слов), Ханой. 2007. б 567

oladi: Bunda soʻz yasovchi morfemada 1,2,5 – ohangini (agar oʻzak morfemada 1,2,5 – ohanglardan biri boʻlsa) yoki ohanglardan birini (agar oʻzak morfema ohangi 4 yoki 5 – ohang boʻlsa, soʻz yasovchi morfema 1- ohang boʻlsa soʻz yasovchi morfema 1- ohangli; oʻzak morfema ohangi 1,3 yoki 6 – ohang boʻlsa, soʻz yasovchi morfema 2 –ohangni) qabul qilib olishini quyidagi misollar yordamida koʻrib chiqamiz:

buóm “kapalak” > buóm buóm;

én “qaldirgʻoch” > en én;

cháu “chigirtka” > chau cháu;

bồ “kalish” > bồ bồ

2. Otning ikkilantirilgan shakli bir boʻgʻinli shaklidan leksik maʼnoni va grammatik xususiyatiga koʻra farq qilmaydi. Shunchaki, bir soʻzning leksik varianti deb qaraladi.

Otlarning biror vaqt boʻlagini ifodalovchi bir boʻgʻinli morfemalarning barchasi takrorlanishi mumkin. Bu holatda na ohangning na finalning almashinishi kuzatiladi.

năm “yil” > năm năm “yildan yilga”

tháng “oy” > tháng tháng “oydan oyga”

ngày “kun” > ngày ngày “kundan kunga”..

Bunday ikki boʻgʻinli leksik birliklar bir boʻgʻinli soʻzlardan ham maʼnosi ham grammatik xususiyatlariga koʻra farq qiladi. Ushbu usul bilan yasalgan ikki boʻgʻinli soʻz uzluksiz ketma – ketlikni ifodalaydi: năm “yil” > năm năm “yildan yilga”. Bu turdagi ikki boʻgʻinli takror soʻzlar miqdor, tartib sonlari, shuningdek miqdorni ifodalovchi sozʼlâ va koʻplik koʻrsatkichlari bilan birika olmaydi. Bu xildagi soʻzlardan keyin aniqlovchining qoʻllanilishiga yoʻl qoʻymaydi.

3. Shaxs, joy, predmetni ifodalovchi oʻzak morfema ham takrorlanishi mumkin. Bunday ikki boʻgʻinli soʻzlar koʻplik maʼnosini ifodalaydi va ularda hech qanday fonetik oʻzgarishlar roʻy bermaydi. Ixtiyoriy bir boʻgʻinli ot koʻplikni ifodalash uchun ikkilantirilishi mumkin emas. Takrorlanish orqali koʻplik yasalishi sanoqli otlarga xosdir.

làng “qishloq” > làng làng “qishloqlar”;

người “odam” > người người “odamlar”;

nhà “uy” > nhà nhà “uylar”.

4. Ikki boʻgʻinli otlar takrori kam boʻlsa-da uchrab turadi. Bular soʻzlarning oʻzaro qoʻshilishi (soʻz qoʻshish) natijasida hosil boʻlgan jamlovchi otlardir.

Masalan:

đời kiếp (đời “hayot”, “avlod”; kiếp “hayot”) > đời đời kiếp kiếp “avloddan avlodga”, “bir umrga”;

tầng lớp (tầng “qavat”; lớp “qavat”) > tầng tầng lớp lớp “qavat”

chị em (chị “opa”, em “uka” yoki “singil”) > chị chị em em “aka singillar”.

Ushbu holatdagi takroriy otlar distributivlik maʼnosini ifodalovchi koʻplik shaklidir.

5. Mavhum otlardan tashqari, vaqt maʼnosini ifodalovchi otlarga yordamchi morfema qoʻshilishi bilan takroriy otlar hosil boʻlishi kuzatiladi:

“những + ot + là + ot”

Takrorning bu xilida hech qanday fonetik oʻzgarish sodir boʻlmaydi.

Áo đặc những cá là cá

Hovuz toʻla lar baliq dir baliq

“Hovuz baliqlar bilan toʻla”¹.

6. Hamma otlar quyidagi sxema boʻyicha takrorlanishi mumkin.

ot + nào + ot + này (ây)

Hosil boʻlgan leksik birlik koʻplik maʼnosini ifodalab, gapda asosan ega vazifasida keladi:

Khó khăn nào khó khăn ấy đều vượt qua.

“Qiyinchiliklarning hammasi yengib oʻtildi”.

Vyetnam tilida takroriy otlarda ohang oʻzgarishlari kuzatilmaydi. Gapda takroriy otlar odatda hol vazifasini bajarib keladi².

Qisman takroriy soʻz yordamida ot soʻz turkumiga oid soʻzlarning yasashida asosan birinchi boʻgʻin dominant hisoblanadi. Birinchi boʻgʻinga ergashgan ikkinchi boʻgʻin esa hech qanday maʼno anglatmaydi. Ikkala boʻgʻin oʻzaro birikkan holda takroriy soʻz yasaydi.

Masalan: bạn bè “doʻst”, “yoshlikdagi doʻst” (bạn “doʻst”, bè “guruh”)

tiếp xúc với bạn bè — “doʻstlar bilan muloqotda boʻlmoq”³;

Yuqoridagi maʼlumotlarni oʻrganib chiqib quyidagicha xulosalarga toʻxtaldik:

- vyetnam tilida ot soʻz turkumida takroriy soʻz yasalishi 6 ta guruhga ajratiladi:

- otlarda oʻsimlik yoki hayvon nomini ifodalovchi soʻzlarning oʻzak morfemasining takrorlanishi holati koʻra;

- otlarning biror vaqt boʻlagini ifodalovchi oʻzak morfemaning toʻliq takrorlanishi holatiga koʻra;

- shaxs, joy, predmetni ifodalovchi oʻzak morfemaning takrorlanishi holatiga;

- ikki boʻgʻinli otlarning takrorlanishida yuzaga kelgan toʻrt boʻgʻinli takroriy soʻzlar holatiga koʻra;

- vaqt maʼnosini ifodalovchi otlarga yordamchi morfema qoʻshilishi bilan takroriy ot yasash holati koʻra;

- barcha otlaning “ot + nào + ot + này” shakliga koʻra yasalishi aniqlandi;

- vyetnam tilidagi ot soʻz turkumlarida takroriy soʻz yasalganida takroriy soʻzlar predmetning koʻpligini aks ettiradi va gaplarda asosan ega, kesim, hol vazifalarida keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Nguyễn Thiện Giáp “Từ vựng học tiếng Việt”, NXBDH và THCN, H., 2005n;

¹ Hoang Van Hanh “Tu lay trong tieng Viet”, Hanoy, 2006, b 5

² Солнцев В.М., Лекомцев Ю.Л. “Вьетнамский язык” Москва 1960, b 59

³ Глебова И.И, Соколов А.А. «Вьетнамско – русский словарь» — Русский язык. Москва. 1992. b 30

2. Bùi Minh Toàn "Tiếng Việt thực hành", — NXB Giáo Dục .., H., 2005n;
3. Huong Van Hanh "Tu lay trong tieng Viet", — NXBKHXH, H., 2008n;
4. Nguyễn Việt Hương "Tiếng Viet nâng cao" (quyển 1), -NXBDHQG Hà Nội, H., 2010 n;
5. Qodirova D.M "Vyetnam tili (davom ettiruvchi kurslar uchun)"- T., 2009y;
6. www.wikipedia.vn ;
7. www.grammaticheskisyposobpovtora.ru;
8. online từ điển/ [http:// Tủ láy Tiếng Việt – Nhạc QM.vn](http://Tủ_láy_Tiếng_Việt_Nhac_QM.vn);

HINDIY VA O‘ZBEK TILLARIDA MAYL KATEGORIYASI BUYRUQ VA ISTAK MAYLI

SHAHZODA RAUFOVA

*TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Filologiya tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich hind-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi, A. Yunusova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hindiy va o‘zbek tillarida mayl kategoriyasi, shuningdek buyruq va istak mayllari haqida tushunchalar beriladi. Ularning ushbu tillardagi o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlari, grammatik tahlillar, so‘zlardan mayl shaklining yasalishi misollar bilan keltiriladi.

Kalit so‘zlar: mayl kategoriyasi, buyruq va istak mayli, kishilik olmoshlari, agglyutinatativ va analitik tillar guruhi.

Mavzuning maqsad va vazifalari: Ushbu mavzuning bosh maqsadi o‘rganish obyekti qilib olingan hindiy va o‘zbek tillaridagi buyruq va istak mayllarining sintaktik-morfologik xususiyatlarini yoritish, bir-biriga qiyoslashdan iborat. Shu bilan birga ularning gapdagi sintaktik-morfologik vazifasini o‘rganish, farqli va o‘xshash jihatlari ma’lum darajada ko‘rsatib berish maqolamizning vazifalaridan hisoblanadi.

Ish-harakatning voqelikka munosabatini ko‘rsatuvchi grammatik kategoriyaga fe’l mayli deyiladi. Mayl kategoriyasi grammatik zamon (o‘tgan, hozirgi, kelasi) va grammatik shaxs (bajaruvchi) bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, hammasi birgalikda fe’lning tuslanish tizimiga kiradi. Fe’l mayllarida voqelik bilan bog‘liq ravishda ish-harakatning bajarilish xususiyatlari turlicha bo‘ladi. O‘zbek tilida fe’l anglatgan ish-harakat voqelikka ko‘ra xabar, shart, buyruq-istak kabi qo‘shimcha ma’nolarni ifodalaydi. Shunga ko‘ra fe’llar, asosan, 3 fe’l mayli ko‘rinishiga ega: 1) xabar mayli 2) shart mayli 3) buyruq-istak mayli¹

¹ Hamroyev M. Ona tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2007.

Hindiy tilida fe'l anglatgan ish-harakat voqelikka ko'ra xabar, buyruq, istak, shart va taxmin kabi ma'nolarni ifodalab, jami 5ta fe'l mayliga ega, bular: 1) xabar mayli 2) buyruq mayli 3) istak mayli 4) shart mayli 5) taxmin mayli¹

Buyruq-istak maylidagi fe'l kelasi zamonga oid bo'lib, ish-harakatni bajarish yoki bajarmaslik haqida buyurish, so'rash, istash, iltimos, maslahat, undash-chaqirish kabi ma'nolarni anglatadi va o'zbek tilida fe'l asosiga birlik va ko'plikda affikslarni qo'shish bilan buyruq-istak mayl shakli yasaladi:

Birlik	Ko'plik
I -ay, -y, -ayin, -yin	-aylik, -ylik
II -gin (fe'lning noaniq infinitiv shakli)	-ing, -ng, -ingiz, -ngiz
III -sin	-sinlar

Hindiy tilida buyruq va istak mayllari o'zbek tilidagi kabi yaxlit bir mayl sifatida olin- magan. O'zbek tilida buyruq va istak mayli qo'shimchalari har ikkala maylga ham to'g'ri kelib, ohang orqali buyruq va istak ma'nolarini anglata oladi. Biroq hindiy tilida buyruq va istak mayllarini yasovchi *affikslar* alohida qo'llaniladi.

Hindiy tilida buyruq mayli hindiy tilida II shaxsga nisbatan buyruq ma'nosini ifodalash uchun qo'llanadi. O'zbek tilida II shaxs kishilik olmoshlari "sen" va "siz" bo'lsa, hindiy tilida II shaxs uchun 3ta kishilik olmoshlari bor – तू, तुम, आप. Buyruq maylining hindiy tilidagi II shaxs kishilik olmoshlarining har biri uchun alohida ifodalash shakllari bor.

Birlik	Ko'plik
तू (fe'l asosi)	तुम –ओ
	आप – इये, ईजिये, जिये

तू olmoshi uchun buyruq mayli fe'l asosiga teng bo'lib, bu holda ma'no jihatdan kuchli ta'kid, ogohlantirish yoki erkalanish ma'nolari ifodalanib keladi:

पढ़ना – (तू) पढ़ ! जाना – (तू) जा !

1. थोड़ी देर के लिए मैं बाहर जा रहा हूँ, तब तक तू इसे साफ करा *Biroz vaqtga ketyapman, ungacha sen mana buni tozalab qo'y.*

तुम olmoshi uchun buyruq maylini ifodalashda fe'l asosiga –ओ qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Bu holdagi buyruq shakli tengdoshlar, do'stlar, opa-singil, aka-ukalarga nisbatan foydalaniladi:

आना – (तुम) आओ *keling* रखना – (तुम) रखो *qo'ying*

लेना va देना fe'llarida mustasno holda –ओ qo'shimchasi fe'l asosiga emas, ularning birinchi harfiga qo'shiladi: लेना – (तुम) लो *siz oling* देना – (तुम) दो *siz bering* 1. तुम जल्दी से पानी लाओ, वह बीमार है। *Siz tezda suv keltiring, u kasal.*²

¹ Камтаप्रसाद Гуру. Грамматика Хинди. – М.: «Иностранная литература», 1957.

² अशोक श्रीवास्तवा रिमझिमा नई दिल्ली। २००८ पृ-५६

आप kishilik olmoshi uchun buyruq maylining shakli fe'l asosiga –इये qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

लिखना – (आप) लिखिये Siz yozing (yozinglar) पढ़ना – (आप) पढ़िये Siz o'qing(o'qinglar)

1. आप विद्यार्थी कल के लिए यह पुस्तक पढ़कर जाइए। Siz o'quvchilar kelasi kun uchun bu kitobni o'qib boring.¹

Istisno holda लेना, देना, करना fe'llari uchun –ईजिये va पीना fe'li uchun –जिये qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi: लीजिये, दीजिये, कीजिये, पीजिये.

Buyruq mayli infinitiv, ya'ni fe'ning noaniq shakliga teng bo'lib kelishi ham mumkin va bu qo'pol munosabat, qat'iy talab va ogohlantirishni ifodalab keladi:

उठना – ज़रा उठना ! Iltimos, turing. जाना – जल्दी जाना! Tezda boring.

1. सख्त ठंड है। यहाँ गुलुबंद बांध लेना। Juda sovuq. Bu yerda sharfni bog'lab olgin.²

O'zbek tilida buyruq maylining inkor shakli, ya'ni bo'lishsiz shaklini yasash uchun fe'l negiziga –ma, –mang bo'lishsizlik affikslari qo'shiladi: qilma, yozmang.

Hindiy tilida buyruq maylining inkor shakli मत va न inkor yuklamalari bilan yasaladi. तू va तुम olmoshlarida मत bilan, आप va infinitiv shakllarida न yuklamalari bilan qo'llanilib, ushbu inkor yuklamalari fe'ldan avval keladi: मत खा ! Yema ! मत खाओ ! Ovqatlanma !

न खाइये ! Ovqatlanmang ! (iltimos) न खाना ! Ovqatlanmang !

1. निबंध न लिखिए, अब कोई जरूरत नहीं। निबंध लिखने की अवधि गुजर गई। Insho yozmang, endi shart emas. Insho yozish muddati o'tib ketdi.³

Hindiy tilida fe'ning istak mayli hali bajarilmagan, ammo bajarilishi ehtimol, mumkin bo'lgan ish-harakatni bildiradi. Hindiy tilida istak maylining 4ta turi bor:

1. Istak maylining sodda shakli; 2. Istak maylining murakkab notugal shakli; 3. Istak maylining murakkab tugal shakli; 4. Istak maylining davomli shakli.

Istak maylining sodda shakli fe'l asosiga shaxs qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi:

खेलना va जाना fe'llarining Istak maylida shakllanishi

मैं खेलूँ	हम खेलें
तू खेले	तुम खेलो/ आप खेलें
यह/ वह खेले	ये/वे खेलें

लेना va देना fe'llari bundan mustasno holda istak mayli qo'shimchalari fe'ning birinchi harfiga qo'shiladi:

¹ सुशील शुक्ल, शाही सबलोका बच्चों का दुमहिया साइकिला नई दिल्ली, २०२१। पृ-१६

² अशोक श्रीवास्तव। रिमझिमा पृ-३२

³ सुशील शुक्ल, शाही सबलोका बच्चों का दुमहिया साइकिला पृ-५८

मैं लूँ; दूँ	हम लें; दें
तू ले;दे	तुम लो;दो/ आप लें;दें
यह/वह ले; दे	ये/वे लें; दें

1. मैं इन्हें कहाँ छिपाऊँ, कहाँ छिपाऊँ? मैं तश्तरी को रेडियो के पीछे छिपा दूँगा। *Men bularni qayga berkitay, qayga berkitay? Men likopchani radio ortiga yashiraman.*¹

Istak maylining murakkab notugal shakli yuz berish ehtimoli bo‘lgan tugallanmagan ish-harakatni anglatiladi. Ushbu shakl ko‘proq qo‘shma gaplarda, ergashgan qismida ishlatiladi. Istak maylining murakkab notugal shakli asosiy fe‘lining sodda notugal sifatdoshiga होना yordamchi fe‘lining istak maylidagi sodda shaklini qo‘shish bilan yasaladi. Sodda notugal sifatdosh bilan ifodalangan asosiy fe‘l jins va sonda (muzakkar jinsida) o‘zgaradi. होना yordamchi fe‘li shaxs-sonda o‘zgaradi.

1. वे सब यह उम्मीद करते रहने से न रुके, शायद इसे किसी मुश्किली का सामना करना न पड़ता हो। *Ularning hammasi, u biror qiyinchilikka duch kelmasin, deya umid qilaverishdan to‘xtashmadi.*²

2. उस ने इशारा किया जैसे उसे मेरे बारे में कोई खास बात मालूम होता हो। *U xuddi men haqimda biror gap bilgandek ishora qildi.*³

Istak maylining murakkab tugal shakli amalga oshishining ehtimoli bo‘lgan tugallangan ish-harakatni ifodalaydi. Istak mayli murakkab tugal shakli asosiy fe‘lining sodda tugal sifatdoshiga होना yordamchi fe‘lining istak maylidagi sodda shakllarini qo‘shish bilan yasaladi. Biroq istak maylining ushbu shakli uch xil konstruksiyada amalga oshadi.

I. Sodda tugal sifatdosh o‘timsiz fe‘l bilan ifodalangan bo‘lsa, u jins va sonda ega bilan moslashadi, होना fe‘li esa shaxs va sonda o‘zgaradi. Bunday tuzilma subyektli tuzilma deyiladi.

1. मालूम होता है कि तुम दोनों फिर लड़े हो। *Sen ikkoving yana urishganga o‘xshaysan.*⁴

II. Neytral tuzilmada sodda tugal sifatdosh muzakkar jinsida va होना fe‘li 3-shaxs birlikda qo‘llaniladi.

Артикуль **ال** имеет некоторый оттенок указательного значения¹. Первоначальное указательное значение определенный артикуль '**al**-сохранил в некоторых словах: **اليوم** "сегодня" (букв. этот день), **العام** "этот год", "в этом году" **الى الساعة** "до этого часа"»².

Таким образом, любой предмет или явление становится известным или определенным в результате того, что на него указывается. В конечном итоге, то, что определенный артикуль происходит от указательного местоимения, является несомненным фактом в большинстве языков, и теория указательных местоимений возникла и получила широкое развитие.

Список использованной литературы:

1. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М., 2001.
2. Габучан Г. М. Теория артикля и проблемы арабского синтаксиса, – М., 1972.
3. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Казань: КФУ, 2013.

¹ Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Казань: КФУ, 2013. – С. 143

² Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М., 2001. – С. 319-320.

XXI ASR BOSHLARIDAGI O‘ZBEK VA XITOIY BOLALAR ADABIYOTINING QIYOSIY TADQIQI XUSUSIDA

MEHRIBON SHOYKATOVA

TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xitoyshunoslik oliy maktabining 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: TDSHU Xitoyshunoslik oliy maktabi professori

J. Ziyamammedov

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda aynan xitoyshunoslik sohasida dolzarb bo‘lib kelayotgan xitoy va o‘zbek bolalar adabiyoti haqida so‘z boradi. Bolalar adabiyoti bu ikki xalq hayotida qay darajada muhim vazifa bajarayotgani va rol o‘ynayotganligi, ushbu hikoyalar bolalar hayotiga o‘zining ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganliki ikki shoir ijodi misolida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Xitoy Xalq Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi, Sayyid Ajal Shamsiddin Umar al-Buxoriy, “Hikoyalar qiroli”, Gong Syun, hajviy adabiyot, bolalar adabiyoti, Anvar Obidjon, ibora,

Zamonlar o‘tgani sayin va insoniyat hayoti taraqqiy etgani sayin turli sohalarda ham yangidan- yangi o‘zgarishlar bo‘ladi. Ayniqsa mamlakat rivoji uchun jamiyatning siyosat, turizm, iqtisod, ta’lim sohalari doimiy rivojlanishda bo‘lishi muqarrarlari barchangizga ma’lum.

Ma’lumki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, uning ilk diplomatik va do‘stlik munosabatlari aynan Xitoy Xalq Respublikasi bilan o‘rnatilgan. 1991-yil XXR O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini birinchilar qatorida tan olib, 1992-yil diplomatik munosabatlari o‘rnatilgach ikki mamlakat o‘rtasida teng huquqli aloqalar o‘rnatila boshladi¹.

Xitoy-O‘zbekiston mustaqilligini tan olishidan avval, ya’ni tarixda o‘nlab asrlar davomida ikki millat o‘rtasida ma’lum bir sohalarda aloqalar mavjud bo‘lgan. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, Xitoydagi birinchi o‘zbek gubernatori Sayyid Ajal Shamsiddin Umar al-Buxoriy bo‘lgan. (xitoychada: 赛典赤·赡思丁).

Sayyid Ajal Shamsiddin Umar al-Buxoriy 1211-yilda tavallud topgan. Buxorolik Shamsiddin Muhammad Payg‘ambarimizning 27-avlodi bo‘lgan. U Pekinning Yuan (元) sulolasi davrida, saroyda xizmat qilgan². Shunday buyuk ikki xalqning do‘stlik rishtalari asrlar davomida avloddan- avlodga o‘tib, hozirgacha ikki xalq do‘stligi abadiy bo‘lib kelmoqda.

Maqolamizning asosiy mavzusi bolalar adabiyotidir. Aslida bolalar adabiyoti deganda, biz bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy va publitsistik asarlar majmuini tushunamiz. Zarnigor Abdurazzoqova o‘zining tadqiqotlarida

¹

https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Xitoy_Xalq_Respublikasi_munosabatlari

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Ajal_Shamsiddin_Umar

keltirib o'tganidek, "Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqining bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalari boshlanadi"¹.

Xitoyda bolalarning eng sevimli turkum kitoblari "故事大王" (o'zbek tilidagi tarjimasi — "Hikoyalar qiroli") deb ataladi. Ushbu maqolada biz Janubi-G'arbiy Jiaotong Universiteti bitiruvchisi, muhandislik fanlari nomzodi – Gong Syun (龚勋)ning tahriri ostidagi "故事大王" kitobidan olingan hikoyalarni, o'zbek bolalar adabiyoti rivoji uchun beminnat xizmat qilgan, hajviy adabiyot an'alarini muvaffaqiyatli rivojlantira olgan, o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyondasi, O'zbekiston milliy universiteti Jurnalistika fakulteti bitiruvchisi Anvar Obidjonning "Hajviy hikoyalar" to'plamidagi bir nechta bolalar hikoyalari bilan qiyoslashga harakat qilamiz.

Aslida bolalar adabiyotini yaratish unchalik ham oson kechmaydi, faqatgina bir hikoyani yozish uchun bolalarcha fikr yuritish, tasavvur qilish, ularning ichki kechinmalari-yu, orzularini o'zida his qila bilish, katta mas'uliyat va mehnat talab qiladi. Aynan Anvar Obidjon ham yuqorida keltirilgan qiyinchiliklarni yuqori saviyada bajara olgan.

Anvar Obidjonning "Hajviy hikoyalar" to'plami "Buzoqchanning hikoyasi" va Gong Syunning "故事大王" (o'zbek tilidagi tarjimasi — "Hikoyalar qiroli")dagi "聪明的狼妈妈"(o'zbek tilidagi tarjimasi — "Aqlli bo'ri ona")ustida o'rganish ishlari olib boramiz.

Ikki hikoyaning eng asosiy ko'zga ko'rinadigan farqi shundaki, xitoy bolalar adabiyotidan farqli ravishda o'zbek bolalar hikoyalarida sharqona tarbiyaga xos axloqiy mavzular keng qo'llanilgan. Xitoy bolalar adabiyotida esa ko'proq aqlni charxlovchi, bolalar ongini o'tkir qiluvchi hikoyalar ko'p.

Agar hikoyalar yoki ertaklar tarkibida qo'llanilgan iboralar va hikoyalar kirish so'zlarini qiyoslaydigan bo'lsak, o'zbek xalq ertaklari asosan ushbu satrlar bilan boshlanib, roviy ertaklarning boshidanoq bolalar e'tiborini o'ziga tortishga harakat qiladi: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan", "Qadim-qadim zamonda" va hokazo.

Xitoy ertaklari va hikoyalari esa ko'proq shunday so'zlar bilan boshlanishini guvohi bo'lamiz: "从前», "一天», "有一天», "春(夏天, 冬天, 秋天)来了», "19世纪80年代» va boshqalar.

Ma'nosi va mazmuni jihatidan o'rganib chiqsak, ikki xalq hikoyalarida ham roviylar bolalarni ezgulikka, komillikka yetaklaydi. Ertak roviylari inson hayotda qanday qiyinchiliklarga duch kelmasin, qanday sinovlarga uchramasin, doimo kuchli iroda bilan olg'a borishi kerakligini aynan bola tilidan tushuntirib yetkazishga harakat qiladilar.

¹ Abdurazzaqova Z. (2023). Bolalar adabiyotida tarjimaning o'rni. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(26), 55–57. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/23677>

龚勋 tahriri ostidagi “故事大王” bolalar hikoyalari to‘plamidagi “黑熊老爷与鹿” (o‘zbek tilidagi tarjimasi – “Janob qora ayiq va bug‘u xonim”) hikoyasida janob Ayiq va Kiyik xonimning ajoyib sarguzashtlari yoritib berilgan. Hikoyada bolalar to‘g‘riso‘zlikka va haqiqatgo‘ylikka chorlanadi, ammo juda ham sodda bo‘lmaslik inson hayotiga foydali ekanligi ham uqtirib o‘tilgan.

Anvar Obidjonning hikoyalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, u bolalarni zukkolikka chorlaydi, uning hikoyalarini o‘qigan ota-onalar ham beixtiyor yoshlikda ularning ota-onalari tomonidan aytib berilgan xalq dostonlari-yu, ertaklarini yodga oladilar.

Uning eng mashhur hikoyalaridan biri “Buzoqning hikoyasi” nomli hikoyani o‘qib, o‘quvchilar o‘zgalarning haqqini yeb yurgan razil, insofsiz kimsalar haqida tushunchaga ega bo‘lishadi. Ushbu hikoya ham bolalarni to‘g‘rilikka, halollikka chorlaydi¹.

Hikoyalar tarkibida ko‘plab maqollarni uchratishimiz ham aynan Anvar Obidjonning o‘ziga xos uslubidan darak beradi. Mazkur maqollarning berilishi hikoyalarni yanada mazmunan boyitgan desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. U shu hikoyalar orqali unib-o‘sib borayotgan avlodga o‘zbek xalqining asrlar davomida ota-bobolardan meros bo‘lib qolayotgan urf-odat va an‘analarini ishonchli qilib, soda til orqali mohirona yetkazib beradi.

“Quyunchaning hikoyasi”da keltirgan “omading yurishsa-ko‘miringdan tillo, eshagingdan mullo chiqadi” degan o‘zbek xalq maqoli aynan quyunchaning omadi kelayotgan davrda qo‘llanilgan. Ya‘ni quyunchaning qorni och paytida u yo‘lda eshak aravani ko‘rib qoladi, o‘sha eshak aravadagi karam bexosdan yo‘l chetiga tushib qoladi. Shu yo‘sinda uning omadi kelib, rizqi ham shu karam orqali keladi.

Bolalar nozik qalb egalaridir. Ularning hayotlari turli voqealarga boy holda kechadi. Ular yoshlik davrlarini turli xil hikoya, ertak, multfilmlar, kitob va jurnallar bilan bog‘lashadi.

Gapimizga yanada aniqlik kiritadigan bo‘lsak, aksariyat hikoyalardagi voqealarni aynan bir narsa bog‘lab turadi, ya‘ni turfa ranglar. Hikoya yoki multfilm nechog‘liq mazmunli bo‘lmasin, agar u oq-qora tasvirda bo‘lsa, beixtiyor bolalarda qiziqish yo‘qoladi. Buyuk nemis yozuvchisi va mutafakkiri Iogann Volfgang fon Gyote birinchi bo‘lib ranglarning inson ruhiyatiga ijobiy va salbiy ta‘sirini kashf etdi va shu bilan zamonaviy rang terapiyasining asoslarini yaratdi. U shunday deya ta‘kidlagan edi: “Ranglar qalbga ta‘sir qiladi: ular his-tuyg‘ularini uyg‘otishi, bizni tinchlantiradigan va hayajonlantiradigan his-tuyg‘ular va fikrlarni uyg‘otishi, qayg‘u va quvonchni keltirib chiqarishi mumkin”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xitoy va o‘zbek xalq bolalar ertaklari va hikoyalari mazmun va mohiyatan bir- biriga juda mushtarak, ular bir g‘oya va bir maqsad uchun yozilgan va yozilib kelmoqda, u ham bo‘lsa, yosh avlodni ma‘nan

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/anvar-obidjon-hikoyalarining-bolalar-adabiyotidagi-orni/viewer>

va ruhan sog'lom va barkamol qilib tarbiyalash, ezgu ishlar qilishga da'vat qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston — Xitoy Xalq Respublikasi munosabatlari.
https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Xitoy_Xalq_Respublikasi_munosabatlari
2. Ajal Shamsiddin Umar. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ajal_Shamsiddin_Umar
3. Abdurazzaqova Z. Bolalar adabiyotida tarjimaning o'rni. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(26), 55–57. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/23677>
Chutboyeva N. Anvar Obidjon hikoyalarining bolalar adabiyotidagi o'rni. / *Central Asian academic journal of scientific research*. 2022. 750-752-betlar.

SEVGI VA VAFO DOSTONI YOHUD SAIDNOSIROVANI MASHAQQATLI UMR YO'LI

MOHINUR AZIMQULOVA

TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti:

koreys-ingliz yo'nalishi, 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. X. Hamidov

“Men Zarifa opaning xotiralarini o'qir ekanman, unda Oybekning shaxsiy hayotinigina emas, balki bir-biriga munosib ikki ulug' siymoning sevgi va vafo dostonini xam varaqlagandek bo'laman. Va bu doston bilan tanishish meni ruhan poklagandek, boyitgandek bo'ladi”

Naim Karimov.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zarifa Saidnosirova tomonidan yozilgan “Oybegim mening” biografik asari haqida so'z boradi. Shuningdek, Oybek va Zarifaxonimning buyuk sevgisi, mashaqqatli umr yo'li, tuganmas sabr-qanoati yoritiladi.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, she'riyat, muhabbat, vafo, qissa.

O'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi, taniqli adib Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek umr yo'liga nazar tashlaydigan bo'lsak, bir qator yangidan yangi goh achinarli, goh quvonchli sahifalarga duch kelamiz. Azaldan ma'lumki, har qanday kuchli erkakning ortida uni qo'llab-quvvatlaydigan oilasi bo'ladi. Shoirlik hammaga ham berilavermaydigan Alloh tomonidan yuqtirilgan iste'doddur. Bu imkoniyatni yuzaga chiqarish esa vaqt, ko'nikma, albatta yaxshi sharoitni talab qiladi. Zarifaxonim ana shu mahoratni yuksak darajaga chiqib, Oybekni qo'llab-quvvatlab unga dalda bergan ayol edi. Barchamizga ma'lumki, mashhurlarning oilasi haqida gap ketganda, jamiyat ko'z o'ngida ular avvalambor

“Palonchining xotini, qizi” sifatida gavdalanadi. Saidnosirova esa mashhur yozuvchi “Oybekning xotini” bo‘libgina qolmay, birinchi rassom o‘zbek qizi, kimyogar olim, shoira, fizik, biolog, adabiyotshunos sifatida tanildi. Farqli ravishda, u adabiyot sohasida samarali ijod qilgan bo‘lsa-da, na Oybekning tiriklik vaqtida, na undan keyin asarlarini chop ettirmadi. Asosiy sabab yozilgan she‘rlaridan qoniqmaslik emas, balki u o‘zini Oybek domlaga tenglashtirishni xohlamas edi. Har doim unda bir pog‘ona pasda yurar edi. Mana shu oddiygina misoldan ko‘rishimiz mumkinki, Zarifaxonim buyuk iffat, nazokat, madaniyat egasi edi.

Saidnosirova Zarifa 1908-yil 31-sentyabrda Turkiston shahrida dunyoga kelgan. Toshkentda “Pestolotssi” maktabi (1922—26), Navoiy nomidagi ta’lim-tarbiya texnikumi (1924—1936) va so‘ngra Rozanov tasviriy san’at studiyasida (1924—26) o‘qigan. So‘ng O‘rta Osiyo universiteti fizika-matematika fakultetining kimyo bo‘limini tugatib (1926—30), o‘rta maktablar, xotin-qizlar bilim yurti va ishchilar fakultetida fizika, matematika va kimyo fanlaridan dars bergan. Qishloq xo‘jalik institutida o‘qituvchi, dotsent va kafedra mudiri (1930—86), Toshkent tibbiyot institutida o‘qituvchi (1932—37), O‘quv-pedagogika nashriyotida muharrir (1934—35). O‘rta maktablar va texnikumlar uchun “Kimyo” darsligi (1933) muallifi.¹

“Oybegim mening” asari Oybek domla vafotidan so‘ng Z.Saidnosirova va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilib, nashrdan chiqarilgan. “Oybegim mening” asari nafaqat biografik asar, balki tarbiyaviy ahamiyati katta bo‘lgan, jonli va yorqin tasvirlarga ega chiroyli muhabbat qissasidir. Kitobda Oybekdan tashqari yana bir asosiy qahramon bor. Bu butun hayotini Oybekka bag‘ishlagan, uning mashaqqatli qismatini yengillashtirishga intilgan, unga munosib yor bo‘lgan Zarifa opaning o‘zidir. Oybekning shaxsiy hayotinigina emas, balki bir-biriga munosib ikki ulug‘ siymoning sevgi va vafo dostonidir. “Oybegim mening” asarini o‘qir ekansiz, ular boshidan o‘tkazgan qiyinchiliklar, ularga qilingan tuhmatlardan lol qolasiz, kitob sizni shunchalik qiziqtirib qo‘yadiki, go‘yo bu voqealar o‘zingiz bilan yuz berayotganday tuyiladi. Asar ularning qanday tanishgani va Oybek domlaning so‘nggi yillari bilan tugaydi. Zarifa Saidnosirova buyuk bir ishq egasi deya ayta olaman. Tuhmatlar, moddiy qiyinchiliklar, har qanday odamni ham sindiradi. Bunday vaziyatda sabr bilan hammasini yengish, to‘g‘ri yo‘ldan adashmaslik muhim jihatlardan biridir. Asarda ta’riflanadiki, ular hattoki bir burda nonga zor bo‘lishgan, ammo Oybek bunga qaramasdan ijod qilgan, izlanishda davom etgan. Uydagi eng oxirgi bir hovuch masalliqdan unga ovqat pishirib berib “Siz ishlayapsiz, toliqib qolmang” deydigan ham, bolalariga “Adang ishlayaptilar, bezovta qilmanglar” deb tanbeh beradigan ham Zarifa opa edi. U ana shunday sabrli, matonatli, oqila ayol edi. Oybek domla oxirgi nafasigacha adabiyot bilan hamnafas bo‘ldi. Yaqin insonlari, kasbdoshlari tomonidan tuhmat va xiyonatga uchragan Oybek shol bo‘lib qoladi. Har kuni Zarifa opaning ishdan kelishini kutar, kelishi bilanoq miyasida taxlangan asar g‘oyalarini Zarifa opaga aytib turar u esa oq qog‘ozga ko‘chirar edi. Kunlardan

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Zarifa_Saidnosirova

bir kuni leksiylarimni tugatib, toliqib uyga qaytdim. Har doimgidek Oybek meni kutib turgan edi, kelganimni ko‘rib sevindi, ammo men Oybek bugun emas, juda charchaganman dedim. Uning yuziga birdaniga g‘am yopirildi va ko‘zlaridan yosh chiqdi. Bu holatni ko‘rganimdan keyin Oybek uchun adabiyot uning bir bo‘lagi bo‘lib ulgurganini yana ham chuqur his etdim. Har qanday holatda bo‘lsam ham endi Oybek yoniga kulib borar, u aytgan jummalarni bitta qoldirmay oqqa ko‘chirar edi deb yozadi u kitobda.

Oybek adabiyot uchun, she‘riyat uchun yaratilgandek edi go‘yo. Samimiy, bolalarcha o‘ylaydigan, barchaga birdek yordam beradigan Oybekka taqdir ham oqila ayolni nasib etgan edi. Bu esa taqdirning ajoyib sovg‘asi desak yanglishmaymiz. Uning qanchalik adabiyot ixlosmandi ekanligini ushbu parchalar orqali bilib olishimiz mumkun:

Xastamen...Fikrga, tuyg‘uga to‘lib
Oy menga hamqadam sokin yuramen,
Sog‘aysam bir kuni yozamen to‘yib,
Hislarga qalbimni qo‘shib yozamen.
Kechalar yururmen telbaday horib,
Boshimda oy borur, menga hamqadam.
Xayollar uchadi mash‘alday yonib,
To‘yib yozajakmen bir kun sog‘aysam...¹

Asar faqatgina ikki qalb muhabbatidan iborat emas, ota va qiz, buvi va nabiralalar o‘rtasidagi sog‘lom, samimiy munosabatlar hozirgi kun uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Saidnosirova qanday qilib birinchi o‘zbek rassomi, kimyogar olimasi bo‘lib yetishdi? Vaholanki u yashagan davr anchagina qaltis va odamlarning qizlar o‘qishi haqidagi fikr doirasi anchagina past edi. Otasining ko‘magi, ishonchi, yordami albatta unga bu yo‘lda madad bo‘ldi. O‘ylaymanki, ota-ona tomonidan bildirilgan ishonch va madad farzandlarning iste’dodlarini namoyon etishlari uchun darcha ochib beradi. Uning aksi esa mahoratlarni yo‘qqa chiqaradi, ziyo istagan qalblarni esa qorong‘ilik tubiga ko‘madi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Саидносирова Зарифа Ойбегим менинг: Хотиралар [Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир Н. Каримов.]. — Т.: “Шарк”, 2005. — 256 б.
2. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Mukammal asarlar to‘plami, 19 jildlik. 1-jild: She‘rlar (1922-1935). T.: “Fan”, 1975.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Zarifa_Saidnosirova
4. <https://mutolaa.com/uz/book/oybegim-mening>
5. <https://tafakkur.net/xastamenfikrga-tuyguga-tolib/muso-toshmuhammad-ogli-oybek.uz>
6. Саидносирова, Зарифа Ойбегим менинг: Хотиралар [Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир Н. Каримов.]. — Т.: “Шарк”, 2005. — 256 б.
7. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Mukammal asarlar to‘plami, 19 jildlik. 1-jild: She‘rlar (1922-1935). T.: “Fan”, 1975.

¹ <https://tafakkur.net/xastamenfikrga-tuyguga-tolib/muso-toshmuhammad-ogli-oybek.uz>

OGAHIIY IJODIDA ISHQ MAVZUSI

IRODAXON YAXYAXONOVA

TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti

Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha) yo'nalishi

3-kurs dariy-ingliz guruhi talabasi

*Ilmiy rahbar: TDSHU, Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi
kafedrası o'qituvchisi A. Fayzullayev*

Annotatsiya: Maqolada Ogahiy hayot yo'li, asarlari haqida ma'lumot berilgan. Ishq mavzusida Ogahiyning ba'zi qarashlari aks ettirilgan. Ogahiyning tarjimashunoslik borasida qilgan ishlari shu jumladan Ogahiyning ish mavzusidagi qarashlari aks etgan.

Kalit so'zlar: Ta'viz ul-oshiqin, Guliston, Salamon va Absol, Bahoriston, "Haft paykar, tasavvuf madaniyati.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy o'zbek mumtoz adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi ulkan siymolardan biridir. Ogahiy xalqimiz madaniyati, adabiyoti va ilm-fani tarixida iste'dodli shoir, mohir tarjimon, yirik muarrix, ma'rifatparvar shaxs sifatida yorqin iz qoldirgan. Atoqli madaniyat arbobi, klassik she'riyatning mohir ustasi, Xivadagi adabiy harakatning yuksak siymosidir. Ogahiy nihoyatda barakali ijod qilgan. Shoirning "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") nomli ulkan devoni bir necha janrlarda yaratilgan 20 ming misradan ziyod she'rdan tarkib topgan. U Xorazm xonligi tarixining turli davrlarini yoritishga bag'ishlab 5ta mustaqil yirik tarixiy asar yaratgan. Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Abdurahmon Jomiyning "Salamon va Absol", "Bahoriston", Nizomiyning "Haft paykar" kabi o'lmas badiiy asarlarini, o'nlab tarixiy kitoblarni mahorat bilan tarjima qilgan. Ogahiy ijodining qimmatli va xarakterli tomoni shundaki, u Alisher Navoiy ijodiyotida yuqori pog'onaga ko'tarilgan adabiyotdagi eng ilg'or, eng xalqchil g'oyaviy-badiiy an'analarni 19-asr sharoitida yuksak darajada rivojlantirdi. Ogahiy she'riyati har qanday bachkanalikdan, o'rtamiyonachilikdan tamomila xoli yuksak ishqiy-tasavvufiy she'riyatdir. To'g'ri, unda falsafiy-tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-axloqiy ohanglar yo'q emas. Umuman, uning she'riyati rangin. Lekin bu mavzularning aksariyatini birlashtiruvchi narsa ishqdir, muhabbatdir. Ogahiy she'riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Ogahiy lirikasining, umuman Ogahiy ijodining salmoqli qismini ishq-muhabbat mavzusi, oshiq va ma'shuqa obrazlari, bular orqali kishining tabiiy tuyg'usi, sevgi haqidagi fikrlari egallaydi. Jamiyatda, hayotda sevgiga munosabat dastlab Ogahiy lirikasining umumiy ruhida hazinlik, nadomat motivini ustun qiladi: oshiqlar, ko'pincha yoriga yetolmaslik xususida chuqur hayajon, nadomat bilan hasrat qiladi. Ogahiy lirikasi umumiy ruhida bu hazinlik xursandchilikdan ko'proq hasrat motivlarini ustunligi shoirning shaxsiy tuyg'usi yoki qobiliyatidagi biron nuqson natijasi sifatida yuzaga kelgan emas: aksincha, bu Ogahiyning ulug' insonparvar o'z ijodida bevosita hayotdan oziqlangan, sevgi masalasida ham davrining asosiy xususiyatlarini ko'ra bilgan realist sifatida

gavdalantiradi. Ogahiy lirikasida sevgi bilan bog'liq bo'lgan har qanday tuyg'u-kechinmalar asosan ikki obraz: oshiq va ma'shuqa obrazlari orqali ifodalanadi. Bu obrazlar oshiqning, shu bilan birga, shoirning bu masalaga munosabati, oshiqning sevgi bilan bog'liq bo'lgan turli kechinmalari: visol, hijron, firoq, rashk va hokazo tusidagi tuyg'ularini ifodalash yo'sinida ko'rinadi.

Ogahiy ijodining qimmatli va xarakterli tomoni shundaki, u Alisher Navoiy ijodiyotida yuqori pog'onagacha ko'tarilgan adabiyotdagi eng ilg'or, eng xalqchil g'oyaviy-badiiy an'analarni XIX asr sharoitida yuksak darajada rivojlantirdi. Insonning ko'ngil hayotiga teran kirib borgan shoir din, axloq, ma'naviyat, adolat to'g'risida ham o'z fikr-xulosalarini ochiq-oydin izhor qila olgan edi. Uningcha:

*Maoniy bog'ini dono qilur sayr,
Qachon qilg'ay oni nodon tamosho.*

So'zdan, ya'ni so'z izidan ma'niga tomon sayrni o'rgangan kishi so'z holati, so'z taqdiri va tarixini ham bemalol biladi. Xuddi tirik mavjudotga o'xshab, so'z va kalimalar ham tug'iladi, yashaydi: ba'zi birlari uzoq umr kechirsa, ayrimlarining umri qisqaroq bo'ladi. Vaqt va zamon o'tishi bilan so'zlarning ohangi, ma'no va shakllarida ham o'zgarishlar sodir bo'lishi yoki yangi mazmun, o'zgacha bir zavq bilan boyishi ularning jonli mavjudlik ekanidan dalolat beradi. Buni Ogahiy g'azallarida ishqiy, ma'rifiy, axloqiy ma'nolarning bir butun tarzda ifodalanishidan ham ilg'ash mumkin. Ogahiy ayni bir she'rda bir necha ma'nolarni aks ettirishda mahorat ko'rsatgan shoir. Shuning uchun tasavvufiy ma'nolar ham uning she'rlarida xuddi javharday, nurday singib ketgandir¹.

Tasavvuf madaniyati, faoliyat va tafakkuri islomiy dunyoqarash va tushunchaning ajralmas bir qismi ekanligi ilmda qayta-qayta ta'kidlab o'tilgan. Xoh biror shayx yoki murshidga ergashsin, xoh o'zi mustaqil harakat qilsin, ishtiyoqli har bir kishi bu ishq, irfon xazinasidan foydalangan. Tasavvuf tajribasi singari uning mavzusi ham dastlabki davrlarda ancha oddiy va oson anglashilarli bo'lgan. Tariqatlar bosqichi boshlanib, tasavvufga falsafa (ayniqsa, yunon falsafasi) kirib kelgach, so'fiylik vaqt o'tgani sayin murakkablashib, har turli fikr qarama-qarshiligi, maslak tortishuvlarining shiddatli girdobiga o'xshab qolgan. Buning tub sababini arab olimi Abul A'lo Afifiy shunday izohlaydi: "Tasavvuf yagona bir manbaga asoslanmagan yoki tug'ilish va taraqqiyotini toq bir zaminga bog'lab bo'lmas darajada ziddiyatli bir oqimdir. Xuddi shu sababdan tasavvufga bag'ishlab tadqiqotlar yaratgan atoqli g'arb olimlari dastlab to'g'riligiga ishongan fikr-qarashlarini hayotlarining oxirlarida tark etaroq, masalaga boshqa tomondan yondashganlar...". Bizda esa, aksincha: tasavvufga bir yoqlama munosabat, xato, yakrang, sayoz gaplarni takrorlash go'yoki bir "udum" bo'lib qolgan. Buning bir qancha sabablari bordirki, biz ulardan ikkitasiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Birinchisi, Abu Nasr Sarroj ta'kidlaganidek, tasavvufni o'rganish, uning u yoki bu masalasi ustida bosh qotirib, ma'lum bir xulosaga kelish aqlga shodlik bermaydi. Bil'aks: aql va idrok, dard va iztirobga chuqur oshno bo'lishi, fano va

¹ "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2009 yil 50-sonidan olindi.

baqoni teng ko‘rishi, holga teskari amalga, amalga zid hollarga imkon qadar barham berishiga to‘g‘ri keladi.

“Yorima ayting” g‘azalida shoir badiiy san‘atning nido san‘ati (ey do‘stlarim), istiora (la‘li shakarborim, ko‘zlari bemorlig‘im, parizodi vafodorim), tanosib (qatl, qotilvash, qon, kushu, xunxor) va mubolag‘a san‘atidan mohirona foydalangan. Bu esa asarning badiiy ta‘sirchanligini yanada oshirgan. G‘azal hazaj bahrida (hazji musammanixrabi makfufi mahzuf: maf‘ulu mafoiylyu mafoiylyu faulun) yozilgan. Ayting so‘zi qofiyadan so‘ng takrorlanib radif vazifasini bajargan. G‘azalning qofiyasi (yorima shakarborima, bemorima, afgorima, dilozorima, xunxorima, jafokorima) raviydan keyin harflar kelganligi uchun mutlaq qofiya hisoblanadi. Qofiyalarda R harfi paviy hisoblanadi. G‘azalda oshiqning o‘z yoriga — ma‘shuqasiga bo‘lgan muhabbati samimiy, ham nihoyatda chuqur ekanligi tasvirlangan. Oshiqning sevgi tuyg‘ulari, orzulari nihoyat darajada tabiiy, bu tufayli o‘quvchiga chuqur ta‘sir qiladi. Bu tabiiy va reallik g‘azalga uzoq umr baxsh etadi. Shoir merosidagi barcha fikr va g‘oyalar ishq tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Barkamol inson barkamol dunyoni, buyuk vatanni, qudratli millatni yaratadi. Inson barkamol bo‘lishi uchun, avvalambor, ruhan ozod bo‘lishi shart. Puan ozodlik bu parhezkorlik, halollik, adolat, qanoat, sadoqat, mehr-oqibat kabi qator amallar bilan chambarchas bog‘liq. Xo‘sh, ruhiy ozodlikka qanday erishish mumkin? Bu juda mashaqqatli, iztirobli yo‘l. Ammo, insonni haqiqiy hurlikka, ruhiy ruhiy kenglikka olib chiquvchi birgina vosita bor. U ham bo‘lsa — ishq. Ana shu ishq orqali kishi Ollohga yetadi. O‘zining va olamning mohiyatini, sir-asrorini anglaydi. Ogahiy ijodida ishq mavzusi shunday g‘oyalarni ilgari suradi.

Ogahiy ijodi haqida umuman xulosa tarzda aytish mumkinki, Muhammad Rizo Ogahiy o‘zbek mumtoz adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi ulkan siymolaridan biri hisoblanadi. U ijodida sevgi va ishq mavzularini chuqur falsafiy va tasavvufiy mazmun bilan boyitgan. Ogahiy she‘rlari inson qalbining nozik tuyg‘ularini, oshiq va ma‘shuqa munosabatlarini visol, hijron va rashk kabi kechinmalar orqali tasvirlagan. Shoirning ijodida sevgi nafaqat romantik his-tuyg‘u, balki ilohiy haqiqatga eltuvchi yo‘l sifatida tasvirlanadi.

Ogahiy tasavvufiy madaniyatni yuksak mahorat bilan she‘riy janrlarda aks ettirgan, tarjima asarlarida esa o‘z davrining xalqchil va badiiy ilg‘or g‘oyalarini rivojlantirgan. Shoirning asarlari, xususan, “Ta‘viz ul-oshiqin” devoni, o‘zbek adabiyotining estetik va ma‘naviy boyliklarini yuksak darajaga olib chiqdi. Ogahiy ijodi inson ruhan ozodligi va barkamolligini targ‘ib qiluvchi asarlar orqali o‘z davrining ijtimoiy va madaniy manzarasini aks ettiradi.

Uning ijodi, xususan, ishq mavzusidagi g‘oyalari, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida yuksak o‘rin tutadi va zamonaviy o‘quvchilar uchun ham qimmatli ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. She‘r san‘atlarini bilasizmi? Toshkent, Sharq nashriyoti. 1999. 94 .

2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 1964. B-347- 376.
3. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. B-221-232.
4. Navoiy asarlar lug'ati. Alisher Navoiy asarlarining o'n besh tomligiga ilova. Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. 782
5. Ogahiy she'riyatidan. Toshkent. 1983. 120 b.
6. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. Toshkent. O'zbekiston FA nashriyoti. 1953. 238
7. Munirov Q. Ogahiy. Toshkent, O'zbekiston FA nashriyoti. 1969. 54b
8. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. 22b.
9. Mallayev M., Karimov K., Ismatov I. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi. 1982.

ILYA ABU MODIYNING ARAB ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI VA UNING FALSAFIY LIRIKASI

ZIYODA RAHIMOVA

*TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Arabshunoslik oliy maktabi 3-kurs arab/ingliz-1 guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: professor R.U. Xodjayeve*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi davr arab shoiri Suriya-Amerika maktabining namoyondasi Ilya Abu Modiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan qisqacha ma'lumot keltirilgan. Adibning adabiy faoliyati haqida fikr yuritiladi, uning falsafiy va romantik ruhdagi asarlari arab adabiyotining boy merosi sifatida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: She'r al-vijdan, Qalam uyushmasi, romantizm, Suriya-Amerika maktabi, falsafiy she'riyat, adabiy meros

Arab she'riyatidagi romantizm yo'nalishining yorqin vakili Ilya Abu Modiy ijodida mehr-oqibat, vatanga bo'lgan muhabbat, insonparvarlik, tabiat mavzulari alohida o'rin tutadi. U she'riyatda romantizm yo'nalishiga tamal toshini qo'ydi.

Ilya Abu Modiy 1889-yili Livanning Muhaydasa qishlog'ida dunyoga keldi, u tavallud topgan qishloq shimoliy viloyatdagi Kufiya qishlog'iga yaqin yerda joylashgan bo'lib, o'zining tabiiy boyliklari va noyob go'zalligi bilan ko'zni quvnatar edi. U bu go'zallikdan zavqlanib she'rlar yoza boshladi. U 1905-yili iqtisodiy muammolar sababli Misrga ko'chib o'tdi, ammo Abu Modiyning haqiqiy gullab-yashnash davri Amerikaga ko'chib o'tganidan keyin boshlandi¹. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Amerika qit'asiga Usmonli turk imperiyasiga tobe bo'lgan Suriyadan yuzlab masixiy arab oilalari ko'chib ketdi. Buning sababi,

¹ ۱۹۹۶ م_ الدين جمال ماجدة دكتورة مراد، نعيمة دكتورة-قراءة و ادبية دراسات

bir tomondan, Usmonli turklarning xristianlarga nisbatan o'tkazayotgan zulmi va ta'qibi kuchaygan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Suriya aholisi, jumladan, o'sha davrda uning tarkibiga kirgan Lubnon aholisining moddiy ahvoli nihoyatda og'irlashganidir. Usmonli turk imperiyasining qoloq bir qismiga aylangan Lubnonning qishloqlaridagi yersiz qolgan dehqonlar, shaharlarida ishsiz qolgan kosiblar vatanlarni tark etib, okean oshib AQSh, Meksika, Braziliya, Argentina va Amerika qit'asining boshqa davlatlariga tirikchilik ketidan baxtini izlab ketdilar. Muhojirlar orasida ziyolilar ham bor edi ana shu ziyolilar o'z vatanlarni, tillari, madaniyati va adabiyotidan aloqalarni uzmaslik uchun yangi joylarda adabiy madaniy jamiyatlar tashkil qildilar, klublar ochdilar, arab tilida nashriyot ishlarini yo'lga qo'ydilar. Amerika qit'asining turli davlatlarida 30 dan ortiq arab tilida gazeta va jurnallar chiqa boshladi. Shimoliy Amerikalik muhojir adiblar o'z ijodlari bilan butun arab madaniy dunyosini o'ziga jalb qildilar. Ular arab adabiyotiga yangi janrlar kiritdilar hamda yangi adabiy yo'nalishga asos solib, uning so'nggi rivojiga katta hissa qo'shdilar. Shimoliy Amerika muhojir adiblari safiga Jubron Xalil Jubron, Ilya Abu Modiy, Amin ar-Rayhoni, Mihael Nuayme, Nasib Arida kabi Suriya Amerika maktabining eng yirik namoyondalari kirar edi. Ular 1920-yilda Nyu Yorkda o'zlarining uyushmasi "Ar-robita al-Qalamiyya" (Qalam uyushmasini) tuzishdi¹.

Uyushmani tashkil etishdan maqsad muhojirlikda ham milliy adabiyotni saqlab qolish, arabiy vatanlarni hayoti bilan uzviy bog'lanib turish, uzoqdan bo'lsa ham uning madaniyatini yuksalishiga hissa qo'shish, adabiyotni haqiqiy ijtimoiy ma'naviy kuchga aylantirishdan iborat edi.

Abu Modiy arab tilida nashr etilgan nufuzli gazeta va jurnallarda ishladi. U arab diasporasi ichida yetakchi madaniy arboblardan biriga aylandi. U "al-Mahjar" harakati doirasida faoliyat yuritdi va arab adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning she'rlarida tabiat tasviri lirik qahramon kayfiyatiga bog'liq ravishda turli maqsadlarga xizmat qiladi. Abu Modiy hayot ha bo'lgan ijobiy qarashlari bilan ajralib turadi, uning falsafasining asosiy tamoyili hayot go'zalligini ko'ra bilish, dunyoga muhabbat bilan qarash insonni erkin ruhiy holatga chorlashdir. Uning ijodi arab adabiyotida yangi sahifalar ochib, o'zining falsafiy va lirika bilan sug'orilgan asarlari orqali o'quvchilar qalbiga yetib borgan. Lirik asar insonning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini badiiy ifodalashga qaratilgan asardir, u muallif yo qahramonning subyektiv dunyoqarashi va hissiyotlari bilan namoyon bo'ladi. Shoirning falsafiy lirik tus olgan she'rlari tahliliga o'tamiz.

الشاكى ايها

ع غدوت إذا تغدّ داءٌ كيف بك وما الشاكى أيها
الرحيل الرحيل قبل نفس تتوقى الأرض في الجنة شر إن
إكليلا الندى فوقها ترى وتعمى ان الورود في الشوك وترى
تقيلا عبأ الحياة في يرى ثقيل من الحياة على عبء هو
جميلا شيئا الوجود في جمال لا يرى بغير نفسه والذي

Ey shikoyat qiluvchi

¹ R.U Xo'jayeva, Yangi davr arab adabiyoti, 54-b. Toshkent 2004-y.

Ey shikoyat qiluvchi ne dardga duchor bo'lding
 Bu dard-u alam bilan yasharsan qanday
 Gar qalbing adovat birla to'la bo'lsa
 O'lim chog'i xalos bo'lursan qanday
 Atir gul tikonin ko'rarsan darkor
 Va lek shudringi bo'lar namoyon
 Hayoti dunyoga sig'mas hayolan
 Dunyoga o'zin malol sanagan kishi
 Qalb go'zalligidin yiroq har kishi
 Borliq nafosatin ko'rolmas albat

She'ning asosiy mavzusi – insonning hayotdan shikoyat qilishi va bu shikoyatning behuda ekanligini ochib berishdir. Shoir shikoyat qiluvchini hayotning asl mohiyatini anglashga, shukr qilishga va qanoatli bo'lishga chorlaydi. U hayotdagi qiyinchilik va iztiroblarni insonning yetuklashuvi uchun zarur jarayon sifatida ko'rsatadi. She'ning g'oyasi – hayotni qabul qilish va undan faqat yaxshilik izlashdi

Shoir shikoyat va shukr qilish, azob va sabrni qarama-qarshi qo'yib, o'quvchiga har bir tanlovning oqibatlarini ko'rsatadi

Abu Modiy she'rida hayotga qarashni o'zgartirishni taklif qiladi. Shoir shikoyatning insonni kuchsiz qilishi va uning ruhiy dunyosiga zarar yetkazishini ta'kidlab, shukr va qanoatga undaydi. Bu falsafiy mulohazalar inson hayotining ma'nosi haqida o'ylashga undaydi va uni ichki tinchlikka erishish yo'lida mustahkamlaydi

Tahlil natijasida aytish mumkinki, Abu Modiyning bu she'ri o'quvchiga chuqur ta'sir ko'rsatadi va uning hayotga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Shoirning o'ziga xos uslubi va chuqur falsafasi she'rni o'lmas adabiyot namunasi sifatida qadrlanishiga sabab bo'ladi.

«التراب موكب» قصيدة
 ببابي؟ عجت كيف و جئت أين من
 الاحقاب و الاجيال مكوب يا
 بها حولو من فكيف القبور؟ من أ
 تطراب و الم ذو هناك أ
 غودروا ام لنا؟ صبايات لهم و
 خراب غير فيه ما بلقع في
 الربى تلك في بلاعشاب مررت ا
 الاعشاب في كنت انك ذكرت و
 الثرى على النائمات الصخور حول
 المنساب الجدول حواشي علي و
 الفضا في كالسحابة تصعد علي و
 سحاب كل مصير التراب الي و

Changu tuproqlarning karvoni¹

Qayerdan kelding? -eshigimga qanday shovqin olib kelding?

¹ ۱۹۹۶_م الدين جمال ماجدة دكتورة مراد، نعيمة دكتورة-قراءة و ادبية دراسات

Ey zamonlaru avlodlarning halqasi
Qabrdanmi? U yerdan qanday ozod bo‘lding
U yer alamu-azoblar yerimi
Ularda bizga nisbatan muhabbat bormi, yo bizni tark etdilar
Kimsasiz yerlarda xarobadan ortiq hech narsa yo‘q
o‘t-o‘lanlar bo‘ylab tepalikdan o‘tdingmi?
Esingdami sen ham o‘sha o‘t-o‘lanlar orasida eding
Uyquga ketgan qoyatoshlar atrofidagi namliklarda
Oqib turgan jilg‘alar bo‘ylarida
Hattoki bulutlar kabi fazoga ko‘tarilganingda
Tuproqqa qaytursan barcha bulutning taqdiri kabi.

She’rda tuproq timsoli orqali inson hayotining o‘tkinchiligi, dunyo va tabiat bilan o‘zaro bog‘liqlik tasvirlanadi. Insonning tuproqdan yaratilishi, yer yuzida yashab, o‘zini iz qoldirish jarayoni va oxir-oqibat yana tuproqqa qaytishi chuqur falsafiy ma’noda ifodalangan.

Abu Modiy tuproqni inson hayotining boshlanishi va tugashi sifatida talqin qiladi, hayotni karvon yo‘lida davom etayotgan sayohatga qiyoslaydi. Abu Modiy insonning tuproqdan kelib chiqishi va yana tuproqqa qaytishini tabiatning eng oliy qonuni deb ta’kidlaydi.

Hayot va o‘limni qarama-qarshilik emas, balki bir butunlik sifatida tushunish, insonning tuproq bilan uyg‘unligi va abadiyat haqidagi falsafiy mulohazalar aks ettirilgan. U Inson hayotini karvon yo‘lida davom etayotgan sayohatga qiyoslash orqali ma’noni yanada chuqurlashtiradi

Abu Modiyning “Tuproq karvoni” she’ri inson hayoti va o‘limining falsafiy mohiyatini ochib beradi. Bu asar o‘quvchini hayot haqida o‘ylashga, insonning tabiat bilan uyg‘unligi va tuproq oldidagi burchini anglashga undaydi. She’r arab she’riyatining ramziy ma’no va falsafiy mulohazalar bilan boyitilgan eng nodir namunalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Abu Modiyning she’rlari hayotning murakkabligini odamlarning dardlari bilan kurashish zarurligini tasvirlaydi. Shoir shikoyat qilishni unutilishga va umidni yo‘qotmaslikka chaqiradi, u inson o‘z irodasi orqali hayotni o‘zgartira olishiga ishonchini bildiradi.

Tuproq karvoni she’rida esa shoir inson hayotini tabiatda uchraydigan mavsumiy va doimiy hodisalar bilan solishtiradi. Bulutning yerga qaytishi kabi, Inson ham tuproqdan kelib, tuproqqa qaytishini tasvirlaydi. Bu fikr hayotning o‘tkinchiligi va abadiyligini, tabiatning doimiyligi orqali o‘zining shaxsiy mohiyatini anglashni ta’kidlaydi, shuningdek she’r o‘quvchini hayot va o‘lim haqidagi savollar bilan yuzma-yuz qilib, hayot mazmunini chuqurroq tushunishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.U Xo‘jayeva, Yangi davr arab adabiyoti, Toshkent 2004-y.
2. <https://www.marefa.org/>
3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Elia_Abu_Madi

4. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lugʻati. Toshkent 2013-y.

5. م_۱۹۹۶ الدين جمال ماجدة دكتورة مراد، نعيمة دكتورة-قراءة و ادبية دراسات

6. Akbarova M.X. – Yangi davr arab adabiyoti. Toshkent 2009-y.

ATOYI LIRIKASIDA SOMATIZMLARNING BADIY TALQINLARI

MAFTUNA TURAYEVA

Buxoro davlat universiteti,

Filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili)

taʼlim yoʻnalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: F.f.d, Prof., Z. Amonova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Atoyi gʻazallarida tavsif etilgan yorning turli uzvlari, taʼsir kuchi yuqori darajada tasvirlangan somatik birliklari tahlil qilingan. Shoir ijodi chuqur oʻrganilganda, sheʼrlarida Qurʼon va hadislar mazmunini singdiradi. Muqaddas manbalardan iqtibos keltiradi. Tasavvufdagi zulf, xol, qosh, koʻz, bel, sanam, mayxona istilolari bilan botiniy sirlarga ahamiyat qaratadi. Maʼshuqa siymosida Haq nuri konsepsiyasining zohir boʻlishi asoslab beriladi. Mazkur masala bayonida ijodkorning maʼshuqa timsolini gavdalandirishdagi oʻziga xos ifoda uslubi va yangicha ifodalariga diqqat qaratilgan.

Kalit soʻzlar: xat, xol, lab, Yusuf, Sulaymon, Xizr, obi dahan, obi hayvon, sunbuli tar.

Kirish. XV asrning birinchi yarmiga kelib, turkiy adabiyotning rivojlanishi koʻplab qalam ahllarining erkin ijod qilishiga asosiy omil boʻldi. Turkiy sheʼriyatda bebaho asarlar yaratilib, ayniqsa, Mavlono Atoyi gʻazallaridagi jozibadorlik, tasvir vositalarining rang – barangligi fikrimizga dalildir. Atoyi – oʻzbek mumtoz adabiyotida salmoqli oʻrin egallagan lirik shoir. Uning gʻazallari oʻz davridayoq xalq orasida mashhur boʻlgan. Bu haqida Hazrat Navoiy oʻzining “Majolis- un nafois” asarida ham taʼkidlab oʻtgan: “*Oʻz zamonida sheʼri atrok orasida koʻp shuhrat tutti*”¹. Atoiy ijodi bilan turkiy til ravnaqiga hissa qoʻshdi. Uning ijod tili haqida Alisher Navoiy ham oʻz tazkirasida qayd etgan: “*Turkigoʻy erdi... Mavlono koʻp turkona aytur erdi*”².

Maʼno qatlamlari va badiiy sanʼatlar. Atoiy oʻz sheʼrlarida nozik xayol, sinchkov nigoh, oʻtkir isteʼdod egasi ekanligini namoyish etadi. Nihoyatda goʻzal oʻxshatishlarni yaratib, yorning ajoyib portretini yaratdi. Shoir gʻazallari qatʼida yorning qaddi-qomati, yuzi, koʻzi, qoshi, sochi, kipriklari, ogʻzi, labi, xoli kabi

¹ Alisher Navoiy. Majolis un – nafois. Ikkinchi majlis. Oʻzb SSR Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomi dagi til va adabiyot instituti. — 62- bet.

² Alisher Navoiy. Majolis un – nafois. Ikkinchi majlis. Oʻzb SSR Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomi dagi til va adabiyot instituti. — 62- bet.

go‘zallik uzvlari badiiy tavsif etiladi. Ya’ni shoir somatizmlarning badiiy talqinida yuksak mahorat kasb etadi. She’rlarida badiiy tasviriy vositalar orqali ma’shuqaning go‘zallikda tengsiz timsolini yaratadi:

*Kotibi qudrat, xating tahrir etarda gul uza,
Nuqtayi xoling magar nogah qalamdin sachradi.*

Baytning birinchi misrasida barcha maxluqot yaratuvchisi, qodir Parvardigor yorni yaratayotganda yuzining suratini chizayotib, xolini gul uza (yor yuzidan) tahrir etganligi, ya’ni joylashtirganligini aytsa, keyingi misrada mana shu yor yuzidagi xol, go‘yoki qalamdan nogahon sachrash oqibatida paydo bo‘lgan nuqtaga tashbeh etiladi. Shoir bu ajoyib o‘xshatish orqali Ollohning sifatlaridan birini – yaratuvchanlik va har bir bandasiga go‘zal bir husnni ham ato etish qudratiga ega yagona Zot ekanligini qalamga olib, undan hayrat va olqishini yashirmaydi. Baytdagi go‘zal tasvir ramali musammani mahzuf vazni orqali qoliplashtirilgan. Yana bir baytda yorning lablari bilan bog‘liq badiiy mulohazalar keltirilganligini ko‘rish mumkin:

*Hurlar Kavsar sharobin ichmagaylar ravzada,
Lablaring jomi mayining topsalar sarqutini.*

Baytda mubolag‘a san’atidan foydalanilgan. Bunda yorning lablaridan chiqayotgan so‘zlarning ozgina mazasidan hattoki, jannatdagi hurlar ham Kavsar sharobini icha olmasliklari ifodalangan. Ko‘ryapmizki, yorning shirin kalomi va Kavsar suvi parallelligida Atoyi o‘z yorning bir og‘iz so‘zini Kavsardan ham shirin va yoqimli, — deydi. Xushbo‘y, pok, zilol suv oldida ma’shuqa tilining jozibasini Atoyi mana shunday yuksak darajada ulug‘laydi. “Kavsar” so‘zi *talmeh* san’atini hosil qilgan. Hurlar, Kavsar, ravza kabi birliklar esa *tanosub* san’atini yuzaga keltirgan.

*Safhayi husning qoshinda munfail avroqi gul,
Nuqtayi xoling abiri mushk-u anbardin latif.*

Navbatdagi baytning mazmuni: Sening chehrangning go‘zal bir husni oldida, anvoyi bir gulning yaproqlari ham uyalgan, ular xijolatda (1-misra). Nuqtadek qop-qora xoling esa xushbo‘y mushki anbardan ham latif hamda iforlidir (2-misra). Ko‘rib turganimizdek, ushbu baytda ma’shuqaning husnda tengsiz chiroyi hamda qora, xushbo‘y hidli xollari asosiy tasvir obyekti sifatida talqin qilingan. Baytda xolning ham uch sifati: nuqtadek shaklliligi, xushbo‘y hid taratishi hamda qoraligi kabi jihatlari lutf bilan e’tirof etilgan.

Atoyi g‘azallarida ma’shuqa go‘zallikda nuqsonsiz, har jihatdan mukammal bir siymo sifatida namoyon bo‘ladi. Ha, ma’shuqa go‘zalligiga chek-u chegara yo‘q. Hatto, ko‘plab rivoyatlarda go‘zallik timsoli sifatida tasvirlangan Yusuf ham unga teng kelolmaydi:

*Yuzi husn ichra Yusufcha tuman ming,
Vale zulfi Sulaymon lashkaridir.*

Baytning ikkinchi misrasida shoir navbatdagi noan’anaviy *tashbihni* yaratadi. Ya’ni zulf qora rangda bo‘lishi tabiiy holdir. Shoir esa buni Sulaymon lashkarining uzoqdan zohir bo‘lgandagi qora tasviri bilan qiyoslab, o‘zgacha ifodani yaratadi (2-misra). Baytda Yusuf alayhissalom va Sulaymon alayhissalom bilan bog‘liq rivoyatlarga ishora borligi *talmeh* san’atining yorqin namunasidir.

Atoyi gʻazallarida maʼshuqa har jihatdan mukammal qilib tasvirlanadi. Uning har bitta uzvi ham oshiq uchun barcha narsadan qadrli. Boisi, yor bilan bogʻliq har jihat oshiqqa maʼshuqasini eslatib turadi. Quyidagi baytda maʼshuqa lablaridagi terni abadiyat suvi darajasiga koʻtarish tasviri keltiriladi:

*Tashlading obi dahan yer uzra istab oqibat,
Xizr oni topdi-yu , otin obi hayvon ayladi.*

Obi dahan — ogʻizdagi suyuqlikdir. “Obi hayot” zulmat olamida boʻlgan, keyin esa uni Xizr topib oladi va aynan shu bois abadiy hayotga erishadi. “Obi hayot”, “obi hayvon”, “tiriklik suvi” kabi tushunchalar, koʻpincha birining oʻrnida almashib kelaveradi. Baytda esa bu suvni maʼshuqa tashlagani uqtirilmogʻda. Keyingi misra esa gʻazal mohiyatini yoritishda asosiy oʻrin tutadi. Anglashiladiki, maʼshuqa bilan bogʻliq har qanday narsaning muqaddas ekanligi, Xizr topgan tiriklik suvi ham aslida yor lablaridan olinganligi taʼkidlanadi.

Buyuk ijodkor gʻazallarida yorning sifatlari bilan birgalikda, uning sarkashligi, oshiq boshiga kulfat- u sitamlar yetkazgani ham bayon etiladi:

*Oy yuzlik, Zuhra koʻzlik, zulfi yaldo koʻnglining,
Mehrini kam, javrini bisyor aylagan.*

Atoyi husn taʼrifini davom ettirar ekan, yorning bir nechta sifatlari ketma-ket keltirib oʻtadi. Yuzlari oydekkina, porloq koʻzli, uzun zulfli maʼshuqam, — deb sifatlaydi (1-misra). Keyingi misrada uning jabrda ham mohirligiga, suyaklisiga mehr oʻrniga, jabr va sitamlar ulashgani aytiladi. Maʼshuqa yuzlarining oyga, koʻzlarini porloq yulduzga, zulfini uzun tunga oʻxshatishi *tashbihni*, kam va bisyor soʻzlari esa *tazod* sanʼatini hosil qilib, baytning taʼsirchanligi oshishiga xizmat qilgan.

Maʼlumki, oriflar Olloh jamolini koʻrish orzusida yashaydi. Haqqa yetishish ilmlarini puxta oʻrganib, boshqalarga ham oʻrgatadi. **Olim N. Komilov taʼkidlaganidek**, *orif – aslida ilohiy ilmlar sohibi demakdir*¹. Orifona gʻazal yozishning asosiy shartlaridan boʻlgan diniy bilimlarni bilishdadir. Atoyi uchun bu ilmlarni oʻrganish ham begona boʻlmagan. Quyida keltirilgan bayt aynan orifona ruhda bitilgan.

*Ey musʼhafi husningga menging nuqtasi oyat,
Islom eliga boʻldi yuzung nuri hidoyat.*

Baytda aytilmogʻdaki, oshiq uchun maʼshuqasining husni muqaddas Qurʼon sahifasidir, bu orazdagi nuqtadek xol esa Qurʼondagi oyatlardir. Musulmon ahliga esa sening jamoling nuri hidoyat boʻldi. Bilamizki, Qurʼoni Karim musulmonlarga yaxshi va yomonni, ezgulik hamda yovuzlikni, savob va gunohni, halollik va nopoklik, toʻgʻrilik va egrilik, maʼrifat hamda jaholat, xullas, jamiki insoniy fazilatlarni kishilar qalbiga joylab, iymonini boyituvchi muqaddas kalomlar majmui. Atoyi nazdida esa butunlay boshqacha. Uning maʼshuqasi hamma narsadan yetuk va agar kishilar nuri hidoyat ila ul yuzlarga boqsa, uning husni, xollarigacha — barchasida (barqaror, mutlaq, abadiy Allohning sifati) ga guvoh boʻladi. Bu baytda yuz bilan Qurʼon, yuzdagi xolni Qurʼondagi oyatlardir, — tarzida jilolantirish tashbih sanʼatidan mohirona foydalanganligini koʻrsatadi.

¹ N. Komilov. Tasavvuf. Toshkent. “Movarounnahr” – “Oʻzbekiston”. 2009-y, — 278-b.

*Shakar og‘zing qoshinda la‘l qonin,
Mening hindulari saqlab turubdur, -*

baytida ham go‘zallikda tengi yo‘q qiz tasvir etilayotganiga shubha yo‘q. Bunda la‘l — lab. Oriflar tilida kalom, so‘z. Yorning labi qon kabi qip-qizil bo‘lgani uchun ham qizil qimmatbaho tosh – la‘lga o‘xshatiladi. Og‘izning shakar deb sifatlashishida ham ma‘shuqaning iliq so‘zliligi, shirin gaplariga ishora bor. Shakardek shirin so‘zlaringning oldida qip-qizil qondek lablaringni go‘yoki hindulardek bo‘lgan xollaring saqlab turibdi.

Bundan tashqari, la‘l — lab deganda, tasavvufda ma‘shuqa so‘zining botini, nozik ma‘nosi, shuningdek, ilohiy nafas, yo‘qlikdan borliqni vujudga keltirgan Alloh kalomi anglashiladi. Ya‘ni bu kalom barchani qamrab oladi, valiy pirlar mujdasi bilan oshiq vujudiga singib, uning jonini egallab oladi.

*Manga san b o‘lmasang jon hojat ermas,
Bihishti hur-u Rizvon hojat ermas¹.*

Rizvon — sakkiz jannatning biri, rozilik va mamnuniyat jannati. Lirik qahramon yorini jonidan ham aziz tutmoqda. U dunyodagi jannat hurlari va jannat makonlari ham yorisiz unga tatimaydi. Atoyining ulug‘vorligi shundaki, unda zohiriy va botiniy ma‘nolar, ya‘ni ishq haqiqiy hamda ishq majoziy tasvirlar bir-biriga xalaqit bermaydi, bir — birini to‘ldirib keladi. Kitobxon goh u ma‘nodan, goh bu ma‘nodan, goh har ikkalasidan zavqlana oladi.

*Shomi zulfungda jamoling sham‘idin ber, partave,
Bizga ham yetsunki derlar, bir charog‘din ming charog‘².*

Zulf — qoralik ramzi. Partav- yog‘du, nur, shu‘la, yorug‘lik. Ishqqa asos bo‘lgan jihatni shoir “jamol sham‘i”ki, bu jamol partav (yorug‘lik, porloqlik, nur, shu‘la) biz kabilarni ham yoritsin, — degan istagi yotadi. Menga qop — qora zulfing ôrnida jamoling nuridan, shu‘lasidan ulash, sening birgina o‘zingdan mingta yorug‘lik bilan siylashing bizga ham yetsin. Bu yerda “shom”- qora bitilgan bo‘lsa ham, sen bizga shu‘la, ziyo ulashgin degan umumiy mazmun ifodalangan.

*Judo bo‘lg‘oli men zulfu yuzingdin,
Ko‘zimga ne qaro ko‘rindi, ne oq.³*

Nasriy bayoni: men sening zulfing va yuzingdan ham judo bo‘ldim, o‘sha damda ko‘zimga na qora va na oq ko‘rindi. Atoyi bu yerda so‘z qo‘llashda o‘zining mohirona iste‘dodini namoyish etgan. Zulfning “qoralik”, yuzning “oqlik” ramzi ekanligidan unumli foydalanib, baytda ajoyib tasvir yaratgan. Baytda go‘zal insonga muhabbat orqali ilohiy qudratga muhabbati aks etgan. Buni boshqa g‘azallar sharhida ham kôrib o‘tdik. Ya‘ni oshiq sohibjamol insonni kôrib, husn-u jamoliga maftun bo‘ladi va uning vasliga yetishish umidida jonini nisor qilishga tayyor. Atoyining bu tasvir uslubi mumtoz she‘riyatda an‘naviy, biroq

¹ “Devoni Shayxzoda Atoyi”, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “Fan” nashriyoti, 2008-yil, -117-b.

² “Devoni Shayxzoda Atoyi”, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “Fan” nashriyoti, 2008-yil, -112-b.

³ “Devoni Shayxzoda Atoyi”, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “Fan” nashriyoti, 2008-yil, -116-b.

yozuvchi bu tasvirlarni o'zgacha tashbihlar bilan ifodalab, voqelikni yangicha uslubda jonlantirgan.

*Yuzung davrinda Yusuf dostonin,
O'qurlar omi xos afsonalardek.*

Ma'lumki, Atoyi lirikasida tasvirlangan har bir voqea — hodisaning mohiyati haqiqatga mos ravishda tasvirlanadi. Shoirning ana shu uslubi muallifning yuksak ilm sohibi ekanligidan dalolat beradi. *Talmeh* san'ati vositasida Yusuf payg'ambar bilan bog'liq rivoyatga ishora bor. Yusuf haqidagi rivoyatlarga ko'ra, u — Ya'qubning sevikli o'g'li. U husnda tengsiz, chiroyi haddan oshiq edi. Akalari bunga hasad qilib, quduqqa tashlashadi, so'ng "Bo'ri yedi" — deb yolg'on ovoza tarqatishadi. Baytda esa shoir o'z yorini Yusufga tenglashtiradi. Baytda keltirilgan "omi xos" birikmasi odatdagi, oddiy ma'nolarini ifodalaydi. — U (ma'shuqa) yashagan davrda insonlar mashhur Yusuf qissasini ham odatdagi, oddiy bir afsonalar kabi o'qishini aytib, shu tarzda yorining husnda tengsiz jamolini gavdalantiradi:

*Yuz uza solsang tarab mushkin sochingni noz ila,
Gul uza burqa' solursen sunbuli tardin latif.¹*

Ushbu baytda oshiq yor Yuzi uzra xushbo'y hidli sochlarini noz bilan solganida, go'yoki gulning ustiga pokiza sochlardan latif parda solingandek bo'lishini bayon etadi. Mazkur baytda shoir Yor yuzlariga yoyilgan nafis sochlarni iffat pardasi deb nomlab, o'ziga xos novatorlikka erishgan.

*Gul yuzindin munfail nasrin Iram bo'stonida,
Qomatindin Tubiyi firdavs a'lo bo'lmadi.*

Ma'shuqaning ta'rifi navbatdagi baytda ham davom etadi. Yorning guldek yuzlaridan nasrin guli ham Eram diyorida uyalib qolgani, qomati tikligi oldida jannatdagi eng tik o'suvchi — Tubi daraxti ham a'lo bo'lmagani, — ta'kidlanadi. Parchada "gul" so'zi *tashbihni*, afsonaviy Iram bog'i va muqaddas Tubi daraxtidan foydalanish *talmehni* hosil qilgan.

*Yangog'ing lolazorining g'amida baski, bo'ldum zor,
Chamanda bag'ri qon bo'ldi, eshitib lola zorimni.*

Keltirilgan ushbu baytda shoir *husni ta'lil* san'atidan foydalanib, voqelikni badiiy quvvatlantirgan. Oshiq yorining qip-qizil yanoqlarini ko'rishga zor. Bu yanoqlar shunchalar qizilki, buni ko'rishni istagan oshiqning qalbi vayron, uning g'am-anduhlarini eshitib, lola guli ham achinganidan qon kabi qizargan. Ma'lumki, lola tabiiy qizil rangda bo'ladi, biroq "lirik qahramonning yanoqlar umidida chekkan iztiroblarni eshitib qizargan" — tarzida ifodalash shoirning buyuk mahoratidan dalolat beradi.

Xulosa. Atoyi mumtoz she'riyatda g'azal janrining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. G'azallari til va uslubi jihatidan xalqona ruh, xalqona iboralar va ta'birlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir ma'shuqa portretini tasvirlab berishda xayoliy hamda hayotiy o'xshatish, ko'chma ifodalarga murojaat qilib, mumtoz adabiyotimiz xazinasini boyitishga salmoqli hissa qo'shdi. Bu kabi

¹ "Devoni Shayxzoda Atoyi", O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, "Fan" nashriyoti, 2008-yil, -113-b.

xususiyatlar kitobxonga adibning badiiy mahoratining yuksakligi, soʻz qoʻllash nazokati borasida ulkan saboq beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

3. Alisher Navoiy. Majolis un – nafois. Ikkinchi majlis. Oʻzb SSR Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. — 62- bet.

4. N. Komilov. Tasavvuf. Toshkent. “Movarounnahr” — “Oʻzbekiston”.2009-y, — 278-b.

5. “Devoni Shayxzoda Atoyi”, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “Fan” nashriyoti, 2008-yil, 319 b.

6. Navoiy asarlari lugʻati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S. Ibrohimov. Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1973, 784 b.

TARIX VA FALSAFA

O'RTA OSIYODA ISLOMGACHA BO'LGAN DAVRDAGI OILA A'ZOLARI HUQUQIY MUNOSABATLARI

SARDOR ABDIQAHHOROV

TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti PhD Odilov B.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'lkamizda milodiy VIII asrgacha mavjud bo'lgan asosiy dinlardan biri bo'lgan Zardushtiylik dini va Avestodagi jamiyat a'zolari; er-xotin, yoshlar, o'spirinlar va hokazo huquqlari, majburiyatlari, qisqacha aytganimizda Islomgacha bo'lgan davrda o'lkamizning ma'naviy tasavvurini ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: huquq, Avesto, Videvdot, shartnoma, munosabat, qonun, jinoyat, er-xotin, din, qonun, axloq, jamiyat, sud, majburiyat, nikoh, Mitra, Ahura Mazda.

Ma'lumki o'lkamizga milodiy VIII asrdan boshlab muqaddas Islom dini kirib keldi. Ammo o'lkamizning "Islom" gacha bo'lgan davri u davr huquq-majburiyatlari diniy qonunlari haqida ko'pchiligimizda aniq taassurot shakllanmagan. Asosiy kitobi Avesto bo'lgan Zardushtiylik O'rta Osiyoda eng katta dinlardan biri bo'lgan. Asrlar davomida shakllangan Avesto bu yerda yashayotgan aholining turmush tarzini tartibga slogan. Ijtimoiy-iqtisodiy, diniy-estetik, siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-huquqiy jihatlarni o'zida qamrab olgan.

Avesto kitobini o'rgangan, uni tadqiq etgan, Avestoshunos olimlar yakdillik bilan bir to'xtamga kelishganki, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avesto yakka shaxs tomonidan bir vaqtning o'zida yozilmagan. U asrlar davomida kohinlar, olimlar, har xil avliyolar, xalqning orasidan chiqqan xattotlar tomonidan qayta yozilgan, sharhlar yozilgan. Bunga sabablardan biri Makedoniyalik Aleksandr mil.avv. 330-yilda ahamoniylar davlatini bosib olgan paytda Ahamoniylar davlati asosiy dini bo'lgan Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoni faqat tibbiyot va astronomiyaga oid qismlarini yunon tiliga tarjima qildirib qolgan qismlarini yoqib yuborishga buyuradi. Bunda ko'rinib turibdiki bizning davrimizgacha Avesto qayta tiklangan o'zgartirilgan. Asl nusxasi yo'q. Lekin bizning hududimizda har bir so'ziga amal qilingan Avesto haqiqiy noyob manba. Inson to tug'ilishidan o'limigacha bo'lgan davrni tartibga solib uni qoliplab bergan, nima to'g'ri-yu nima noto'g'ri ekanligini saodatli hayot kechirish qanday bo'lishini, inson bolasi qaysi amallarni qilsa baxtga erishishini o'zida mujassamlashtirgan. Va aynan asosiy xo'jaligi turmush tarzi dehqonchilik bo'lgan O'rta Osiyo aholisi uchun bu ayni muddao.

Ahura Mazda uchun yerdagi insonlardan eng qadrlisi quyida keltirilgan xususiyatlarga ega bo'ladi;

- Bu yerga o'ng va chap qo'li, chap va o'ng qo'li bilan yerga ishlov bergan odam. Yerga foyda keltiradi.

- taqvodor inson (ashavan), o'zi uchun uy quradi, uyida yaxshi podasi, xotini, bolalari bor. Bunday uyda taqvodorlik, chorva, yem-xashak mo'l-ko'l, xotinlar, farzandlar, olov va har xil mol-mulk ko'p bo'ladi. U yerda g'alla, o'tlar, o'simliklar va mevalar serobdir; mayda va yirik qoramollar ko'p yetishtiriladi. Hamma baxtli bo'ladi¹.

Ko'rinib turganidek mehnat insonning eng buyuk axloqiy maslagi sifatida anglanadi, odamlar axloqiy xatti-harakatlarini baholashda bosh tamoyil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, Avesto etikasi inson va jamiyatni kamolotga yetkazish, taqvodor turmush tarzi va ijtimoiy tenglikni madh etish hamda butun yer yuzidagi hayotni ma'naviy-axloqiy jihatdan tartibga solishdan iborat. Avestoda ko'p ma'lumotlar bor.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra inson bolasi ona qornidayoq huquqiy imkoniyatlarga ega, tug'ilganidan keyin huquqdorga aylanadi. Avestoda shartnoma tushunchasiga alohida ahamiyat beriladi. Mitra alqovida (10-yasht, Mehr Yasht) "SHARTNOMA" tushunchasi "qasam, va'da", "so'z berish" kabilarga ma'nodosh.

A.G.Perixanyan 'shartnoma' tushunchasi tilga olingan Avesto matnlariga asoslangan holda shartnomalarning quyidagi tasnifini beradi; 1) og'zaki shartnoma; 2) qo'l berish bilan tuzilgan shartnoma; 3) 1 ta qo'y yo sigir qiymatiga teng garov qilingan shartnoma; 4) yer uchastkasi qiymatiga teng qilingan shartnoma² Ahura Mazda dedi; — Ey iymonli Zaratushtra mening bitimlarim oltita;

Birinchisi – so'z berib ahdlashish.

Ikkinchisi – qo'l siqib kelishmoqlik.

Uchinchisi – garovga qo'y tikib ahdlashish.

To'rtinchisi – garovga buqa qo'yish.

Beshinchisi – odamni garovga qo'yib bitishuv qilish.

Oltinchisi – serhosil yerdan dalani garovga qo'yib qilinadigan ahdlashuv³ shartnomani buzganlar Mitra tomonidan albatta jazolanadi. U har qanday lavozimda; uy Bekasi, mamlakat hukmdori, cho'ri bo'lsa ham qonun hamma uchun bir. Mitragabrgan so'zini ustidan chiqmagan jazoga mahkum; uning qo'llari kuchini yo'qotadi, oyoqlari turg'unligini, ko'zlari ko'rish qobiliyatini, quloqlari eshitish qobiliyatini yo'qotadi. Mamlakatning tinchligi va osoyishtaligi shartnoma bajarilishiga bog'liq, agar shaxslar o'rtasida qilingan shartnomalar bajarilmasa mamlakatda razillik, vayronalik va baxtsizliklar bo'ladi.

R.Abdukarimov Avesto huquqi doirasiga kirgan 17 moddadan iborat huquqlar tasnifini keltiradi; inson huquqlari; jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari; shaxs erkinligi; ayollar va erkaklar teng huquqliligi; ozchilikni tashkil etganlar huquqi; balog'atga yetmaganlar huquqi; vijdon – e'tiqod va dinlar

¹Авеста в русских переводах (1861-1996), СПб, 1998,-С.95.

²Периханян А.Г. Общество и право Ирана и парфиянский и Саснидский периоды. — М.Наука, 1983. — С. 226

³ Avesto. Asqar Mahkam tarjiması. — Sharq; 2001. — B.121.

erkinligi huquqi; ijtimoiy guruhlar huquqlari; mol-mulk huquqi; oila huquqi; majburiyat huquqi – shartnoma; aybsizlik prezumpsiyasi; jinoyatlarning qasddan yoki qasdsiz sodir etilganligini hisobga olish; o‘g‘rilik va bosqinchilik o‘rtasidagi farqni hisobga olish; sudsiz jazolashni taqiqlash; sud ishlarini ma’lum tartibda ko‘rish (sud jarayoni); himoya huquqi¹.

Zardushtiylikda yosh yigit uylangandan so‘ng, huquqdor shaxsga aylanadi, lekin oilada uning xulq-atvori otasi va bobosi tomonidan tartibga solinadi, u mustaqil yuridik shaxs ekanligini ular yo‘q bo‘lgan joyda namoyish etishi mumkin. A.G.Perixanyan Sosoniylar sulolasi hukmronligi davridagi qonunlar majmui asosida erning asosiy majburiyatlarini keltiradi; 1) rafiqasiga izzat-hurmat va uy bekasini martabasini ta’minlab berish majburiyati, demak, bu bilan bog‘liq barcha huquqlarni (imtiyozlarni) ham tan olish majburiyati. 2) rafiqasini umrbod oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta’minlash majburiyati. 3) xotini tug‘ib bergan barcha bolalarni o‘zining qonuniy farzandi va merosxo‘ri sifatida tan olishi majburiyati². Er-xotin o‘rtasidagi ikki taraflama huquqlar tarkibida erning xotiniga vasiylik qilishi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Yuridik bitimlarni xotin eri bilan birgalikda faqat uning roziligi bilan tuzgan. Sudda xotin faqat eri bilan birga qatnashishi mumkin bo‘lgan. Shuningdek xotin ham erning hayotligida, ham uning vafotidan so‘ng qator huquqlarga ega bo‘lgan. Xotin o‘z shaxsiy mol-mulkiga ega bo‘lishi mumkin. Nikohni bekor qilish faqatgina ikkala tomon rozi bo‘lgandagina o‘zaro qonuniy amalga oshirilgan.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘lkamiz aholisi Islomgacha bo‘lgan davrda ham o‘zining badiiy-estetik, axloqiy-falsafiy qadriyatlariga ega bo‘lgan. Barcha uchun umumiy bo‘lgan odob-axloq, estetik qoidalarni qonun darajasiga ko‘targanlar va o‘sha paytda butun xalqning diniy tizimiga singdirganlar. Umuman Zardushtiylik va Avesto etikasi inson va jamiyatni kamolotga yetkazish, taqvodor go‘zal turmush tarzi, ijtimoiy tenglik, yer yuzini ma’naviy-axloqiy jihatdan tartibga solishdan iborat. Bu o‘rinda, albatta, muqaddas Islom dinimizga, Yagona Alloh taologa shak keltirmagan holda, O‘rta Osiyo hududiga Islom kelishidan oldin ham, U kelgandan keyin ham, bu diyorlda qadim-qadim zamonlardan beri yashab kelayotgan xalqlarning, millat va elatlarning butun hayoti go‘zal ma’naviy-ma’rifiy odob-axloq ustida bo‘lganligini guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авеста в русских переводах (1861-1996). // СПб: Журнал «Нева» — РХГИ. 1997
2. Периханян А.Г. Общество и право Ирана и парфянский и Саснидский периоды. — М.Наука, 1983.
3. Avesto.Asqar Mahkam tarjimasi.- Sharq; 2001.

¹ Abdulkarimov R. Авестийские текст о государственности и праваж вопрось генезиса и эволюции структурь // Узбекистон тарихи. — 2003. №3. — С. 23-24.

² Периханян А.Г. Общество и право Ирана и парфянский и Саснидский периоды. — М.Наука, 1983. — Б.87

4. Mahmudova G.T. Avestoning falsafiy mohiyati. Noshir. 2015.
5. Abdukarimov R. Авестийские текстъ о государственности и правезъ вопросъ генезиса и эволюции структуръ // Узбекистон тарихи. – 2003.

TARIX FANINI O'RGANISHDA NUMIZMATIK ASHYOLAR-TANGALARNING AHAMIYATI (KUSHON DAVRI TANGALARI MISOLIDA)

FERUZA USERBAYEVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Tarixi kafedrası dotsenti,

(PhD) Shoirá Jumáyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy voqealarni tasvirlash va o'rganishda biz uchun muhim ahamiyat kasb etadigan numizmatik topilmalar haqida so'z boradi. "Kushon davri" tangalarini o'rganish va tadqiq etishning ahamiyati to'g'risida muallif tarixiy ma'lumotlar asosida o'z tahlillarini bildirib o'tgan.

Kalit so'zlar: revers, avers, savdo, tanga, Vima Kadfiz, Vasedva, metal, Zevs

Ma'lumki eng rivojlangan dunyo tan olgan sivilizatsiyalarning manbalarini, tarixini, iqtisodiyotini bilish uchun ularning tangalarini o'rganish tangalardagi yozuvlarini o'qish kabi ishlarni amalga oshirish zarur. Chunki tangalar o'zining ahamiyati bilan eng kerakli bo'lgan ma'lumotlarni bizga necha asrlardan keyin taqdim etadi. Manbalar bizgacha to'liq yetib kelmasligi shikast yetishi mumkin, lekin tangalar nisbatan o'zini yaxshi saqlay olganligi aynan qattiq metallardan yasalganligi, undagi hukmdorning ismi, hukmronlik yillari hattoki rasmlarini ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Guvohi bo'lganimizdek bizga eng muhim va asosiysi tasdiqlangan ma'lumotlarni yetkazib beradigan tangalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tangalarni maxsus o'rganuvchi fan numizmatika fani ham tarix fanining eng asosiy yordamchi tarmoqlardan biridir. Bundan tashqari tangalarni faqat bitta davlat hududidan topilishi yoki unga qo'shni hududlardan, masofa tomonidan olis davlatlardan topilishi o'sha davlatlar bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalarni ham anglatadi va bu orqali biz savdo aloqalarining naqadar rivojlanganligini uning geografiyasi haqida tushunchalarga ega bo'la olamiz. Shunday ekan kushonlar davlatining tarixini iqtisodiyotini o'rganar ekanmiz tangalariga alohida e'tibor berishimiz zarurdir. Olimlar arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan tangalarni har tomonlama ilmiy tadqiq etgan holda ma'lum bir xulosalarini berishadi. Aniqlangan ma'lumotlar hukmdorlarning ismlarni yashab o'tgan davrini yoki hukmronlik yillarni albatta qayd etib borishadi. Aniq yozilmagan yoki aniqlanish jarayonidan to'xtamagan ma'lumotlar ustida esa yana izlanish va tadqiqot ishlarini olib borishadi. Bu bilan davlatning tarixini chuqur va har tomonlama o'rganishning imkoni tug'iladi.

Kushonlar saltanatida ilk tangalar Kudzula Kadfiz I davrida Rim imperatorlariga taqlididan zarb qilinganligi aytib o‘tiladi. Bu davrda kushonlar davlati to‘la tashkil topmagan bo‘lsa-da, Kudzula Kadfizning o‘g‘li Vima Kadfiz yoki Kadfiz II davrida rasman tangalar zarb etishni boshlagan. Tangalar asosan hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston va o‘ng qirg‘oq Baqtriyadan topilishi aynan shu hududlar davlat tarkibiga kirganligini anglatadi. Tangashunoslarning so‘nggi yillardagi tadqiqotlarga ko‘ra Kadfiz II zarb ettirgan “shohlar shohi-buyuk xaloskor” degan yozuv bor tangalar Hindiston, Afg‘oniston va O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Bunday tangalar Ashxobod Xorazm, Toshkent vohasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Panjikentlardan ham topilgan. Kadfizning Rim saltanati bilan aloqalari o‘rnatilganligi haqida ham ma‘lumotlar ham mavjuddir¹. Hukmdorlar o‘z tangalarini zarb etish orqali hukmronligini mustahkamlashni maqsad qilsa, yana bir tomondan savdo aloqalarini nazoratda ushlashga urinadi. Kushonlar ham hududlarida nazoratni va ichki hamda tashqi aloqalarni mustahkamlash uchun Vima Kadfiz davridan muntazam tangalarni zarb etishni yo‘lga qo‘yganlar.

Kushon shohi Vima Kadfiz II davrida pul islohot o‘tkazilganligi ham ahamiyatga molikdir. Yangi tangalar tizimni turli nominaldagi oltinga asoslangan bo‘lib, ular orasida asosiy davlat og‘irligi 8,3 gramm, 6,7g va 2,1 g zarb qilingan diametri 23-25 mm, og‘irligi 16-17 gr ni tashkil etgan². Ulardan tashqari Xuvishka, Vasedva va Kanishka kushon tangalarining turli taqlidlari sobiq kushon mulklarida keng tarqalgan. Ular bir-birlaridan tangalardan nafaqat tasvirlarining haddan tashqari sivilizatsiyasi balki vazni diametr va mahorati bilan ham farq qiladi. Tangalarning avers qismida yuzi yon tomonidan aks ettirilgan shoh mehrob oldida tik turganicha diniy ibodatni ado etmoqda. Bu tipdagi kohin shoh tasviri boshqa barcha kurshon podsholarining shohlari uchraydi. Tangalari reversida homiy ma‘budalar tasviri bor. Vima Kadfiz va Vasedva tangalarida homiy ma‘buda sifatida buqa yonida turgan Hindiston ma‘budasi shiva namoyon bo‘ladi. Kanishka va Xuvishka tangalarida esa ma‘budalar ahli jam bo‘lib avesto dinidagi otashkad, sanamlar yana yunonlarning Geliosi va hindlarning Buddasi tasvirlanganligini ko‘ramiz.

O‘sha davrda tangalarni chizuvchi unga ma‘lumotlarni yozuvchi maxsus o‘qimishli kishilar bo‘lib, ular tangalarning har bir mayda detallarigacha katta e‘tibor bilan yondashganliklarini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Hukmdorlar o‘zining tasvirini tangaga tushirishar ekan o‘zlarini kuchli, adolatli yoki o‘zlarini timsolidagi biror-bir qahramonga o‘xshatib tasvirlashlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin bo‘ladi. Ayniqsa bu yurtimizda hukm surgan Yunon-Baqtriya davlati davrida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu davlatda hukm surgan hukmron doiralar yunon afsonalariga taqlidini ko‘ramiz. Kushonlarda ham dastlabki tangalarda yunoncha yozuvni ko‘radigan bo‘lsak, Kanishka davrida to‘liq baqtra yozuviga o‘tilganligini ko‘ramiz. Muhim jihatlardan yana biri bu kushon podsholarining tangalarida dastlab yunonlarning asosiy xudosi bo‘lmish Zevsning haykali tasvirlanganligidadir. Olimlarning tahlillariga ko‘ra bu tangalar Dalvarzintepada

¹ A. Sagdullayev. O‘zbekiston tarixi. Toshkent. Donishmand ziyosi. 2021. 265-bet.

² Sh. Pidayev. Tangalar-davr ko‘zgusi. Toshkent. O‘zbekiston. 1984. 19-bet

zarb qilingan. Keyinchalik Zevsning o'rniga otning surati zarb qilina boshlaydi. Tangaga joylashtirilgan ot surati yangi davlat paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Tangalarda otning tasviri paydo bo'lishi bilan uning old tomonidagi noma'lum shoh surati o'rniga aniq shoh tasviri paydo bo'ladi. Uning yuz qiyofasi Xolchayondan topilgan haykallarga o'xshab ketadi. Tanganing orqa tomonida endi otning o'zi emas otliq, ot mingdan kishi tasviri tushirilgan bu yerda yunon harflar bilan bitilgan to'rtta so'z ham bor. Birinchisi hukmdor, ikkinchisi Geray uchinchi so'z haligacha o'qilmagan to'rtinchi so'z esa kushon deb o'qiladi. Shunday qilib uyushma kushon urug'idan bo'lgan birinchi hukmdorni nomi aniq bo'ldi. Afsuski hozirgacha Geraning hukmronlik yillari aniqlanmagan taxmin qilinishicha u mil. avv I asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan.

Kushon shohlari Vima Kadfiz va Kanishkaning haykallari ham ularning tangalardagi rasmlariga o'xshab ketadi, lekin bu ikkala haykalning boshi saqlanmagan. Bu borada bizga tangalar yordam beradilar, ya'ni shohlarning tangalaridagi rasmiga qarab ularning boshi qanday tasvirlanganligini bilishimiz mumkin. Hukmdorlarning asl suratlari yoki haykallari saqlanib qolmaganligi tufayli aynan tangalar bizga ularning tasvirini aniqlashda ularning tashqi ko'rinishi va liboslari haqida ma'lumotlarni bera oladi. Chunki haykallar va turli xil rasmlar yoki suratlari bo'lsa ularni saqlanib qolish ehtimoli ancha pastdir. Ularga shikast yetishi yo bo'lmasam tabiiy ofatlar tufayli bizgacha yetib kelmasligi mumkin, lekin tangalar bundan mustasnodir. Chunki tangalar anchagina mustahkam bo'lganligi tufayli ularni ancha yillardan keyin ham qayta tiklash, o'rganish va undagi tasvirlarni o'qish yoki tasvirlarda nusxa olish imkoniyatlari mavjud.

Bundan tashqari o'sha davr nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak xalqqa hukmdorni tasvirini tanitish uchun eng maqbul yo'l bu ularning tangalari bo'lgan. Chunki deyarli barcha hukmdorlar o'z tangalarining old tomoniga ya'ni avers qismiga o'zining suratini chizdirgan bo'lsa orqa tarafi reversga esa ko'pincha biror-bir ma'buda, o'sha mamlakatdagi diniy ibodatxonalar yoki o'sha xalqning mafkurasida alohida rol o'ynaydigan biror bir jonivorning ham tasvirlarini ko'rishimiz mumkin. Savodli odamlar tangadagi yozuvlarni o'qiganlar, savodsizlar esa rasm va yozuvlarni tomosha qilish bilan kifoyalanganlar. Lekin bundan qat'iy nazardan o'z vazifasini bajarmagan ya'ni tangalardagi rasm va yozuvlar beixtiyor muomala davomida sekin-asta inson ongiga singib borgan¹. Hukmdor va davlat dini ham, undagi mafkura va g'oyalar xalqqa yetkazilishi oson bo'lgan va ta'siri nisbatan samaraliroq bo'lgan.

Tangalar orqali xalqning ongiga va diniga ta'sirini yaqqol namunasi sifatida Vima Kadvizning tangalarini ko'rsatishimiz mumkindir. Ma'lumki kushon podshohlaridan birinchilardan bo'lib Hindistonning shimolini zabt etadi va tanga zarb etishni yo'lga qo'yadi. O'zining tasviri avers qismida bo'lsa, revers qismiga shivaning muqaddas ho'kizi bo'lgan nandinining oldida turganligi tasvirlangan. Shiva raqs, bo'ron va serpushtlilik mabudi ham hisoblangan. Bu bilan Vima Kadfiz hindlar orasidan hukmronligini mustahkamlashni va uni yoyishni maqsad

¹ Sh. Pidayev. Tangalar-davr ko'zgusi. Toshkent.O'zbekiston-1984. 19-bet.

qilgan. Tangalarda yana bir tasvirlangan mabudalardan biri bu urush-mabudasi hisoblangan Orlognodir. U tangalarda uzun kiyimda tasvirlangan. Uning bosh va yelkasi atrofda lentalar hilpirab turadi. Chap qo‘li belida belida qilich tepaga ko‘tarilgan, o‘ng qo‘lida esa nayzani ushlab turibdi. Orqada “Orlagno” deb yozilgan yozuv ham mavjud¹. Guvohi bo‘lganimizdek tangalarda tasvirlangan ma‘budlar davlat miqyosida ahamiyatga ega bo‘lgan va xalqning hayot va turmush tarziga ta’sir ko‘rsata oladigan darajada tasvirlangandir. Hukmdorlar mana shu tasvirlar orqali ham xalqni osonroq boshqarishga, ularning turmush tarzini belgilab berishga urinishgan.

Kushon tangalarining bir nechtasiga nazar soladigan bo‘lsak, ularda quyidagi tasvirlarni ko‘rishimiz mumkin. Vima Kadfiz milodning birinchi asr 2 yarmida avers qismida o‘ng qo‘lini mehrob uzra cho‘zib, chap qo‘lini biqiniga tirab olgan. Boshiga tasmali uzun quloq kiygan shox tasviri. Tanga sathining chap tomonidan uch tig‘li nayza va g‘adir-budur gurzi o‘ng tomonida to‘rt qirrali yon o‘simliklari bor tamg‘a odatda beshta so‘zdan iborat doira shaklidagi yunoncha yozuv “shohlar shohi Vima Kadfiz” kushon ma‘nosini anglatadi. Raversida esa buqa nandni ro‘parasida turgan shiva rasmi tushirilgan. yozuvlari esa hindcha xarashtxi yozuvida yozilgan.

Kanishkaning tangasida esa aversida tik turgan, chakmonli va uzun xuolxli shoh tasviri. O‘ng qo‘li merhob uzra cho‘zilgan, chap qo‘lida nayza. E’tiborli tomoni baqtra tilida yozilgan “shohlar shohi Kanishka” yozuvidir. Bungacha bo‘lgan shohlar yunon yozuvidan foydalanishgan bo‘lsa, Kanishka birinchi bo‘lib mahalliy baqtra yozuvini rasmiy yozuv sifatida qo‘llaydi.

Agar O‘rta Osiyoda kushonlargacha hatto ilk kushonlar davrida ham kumush tanga zarb qilingan bo‘lsa, kushon podshosi Vima Kadfiz yangilanish o‘tkazib oltin tanga zarb qilishga asos soldi. Shu davrda ko‘plab oltin tangalar chiqarildi. Mazkur tangalar xalqaro savdoda muhim o‘rin egallagan Rim oltinlariga yaqin turardi. Shu narsa diqqatga sazovor kushonlar davlati qimmatga ega bo‘lgan tangalar ham ko‘plab zarb qilingan. Faqat Surxondaryo viloyati viloyatining kichik qishloq rayonlarida kushonlarning yuzlab mis tangalari topilganligi fikrimizning dalilidir. O‘rta Osiyoda bunday hol oldin bo‘lmagan bunday kundalik mayda savdoning xalq orasida qanday rivojlanganligidan dalolat beradi². Oddiy xalqning qo‘lida to‘plangan va savdo muomalasida muhim rol o‘ynagan tangalar sifati yuqori darajada bo‘lganligi va ommaning ishonchini qozonganligini ko‘ramiz. Chunki ba’zida hukmdorlar tomonidan chiqarilgan tangalar sifati pastligi yoki siyosiy kuchi yo‘qligidan savdo munosabatlarida ishlatilmay qolishi mumkin. Kushon shohlari orasida esa buni ko‘rmaymiz. Demak tangalar sifati va siyosiy qudrat darajasi yuqori bo‘lgan.

Xulosa. Kushon hukmdorlari tangalar orqali xalqning ongiga ta’sir ko‘rsatish va savdo ustidan butunlay hukmronlik qilish shartlaridan xabardor bo‘lgan kushon shohlari Buyuk Ipak yo‘lini nazorat qilishni ham xalqni boshqarishni ham aynan mana shu tangalar yordamida yaxshi o‘zlashtirganlar. Tangalarning shohlarini mafkura va g‘oyalarini yetkazish ularning tasvirlarini

¹ Sh. Piddayev. Tangalar-davr ko‘zgusi. Toshkent.O‘zbekiston-1984. 20-bet.

² T. Ernazarova. B. Kochnev. Tangalar o‘tmish darakchilari. Toshkent. Fan-1977. 9-bet.

oddiy xalqqa, oddiy ommaga tanishtirish kabi vazifalarni ham bajarganligi, shuningdek tangalar orqali mazkur davr iqtisodiy hayotidan ham dalolat berishi tangalarning muhim arxeologik topilma ekanligidan dalolat beradi. Biz tangalarni o'rganishda mayda elementlarga ham e'tibor bergan holda ularni tadqiq etishda davom etishimiz lozim. Chunki kichik bir tanga orqali kashfiyotlarni ochish va yangi ismlar yoki yangi biror ma'lumotlarga duch kelishimiz mumkindir. Bu esa bizga davr muhitidan kelib chiqqan holda o'tmish sirlarini o'rganishda biz uchun tayanch bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Sagdullayev. O'zbekiston tarixi. Toshkent. Donishmand ziyosi-2021.
2. Sh. Pidayev. Tangalar-davr ko'zgusi. Toshkent. O'zbekiston-1984.
3. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. Toshkent. Sharq-2010.
4. T. Ernazarova, B. Kochnev. Tangalar o'tmish darakchilari. Toshkent. Fan-1977.
5. Z. Choriyev, Sh. Shaydullayev, T. Annayev. O'zbekiston hududida yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti. Toshkent. Yangi asr avlodi-2007.
6. Sh. Pidayev. Sirli Kushonlar davlati. Fan. Toshkent-1990.

MIRZO ULUG'BEK RASADXONASINING ME'MORIY TUZILISHI

MUSHTARIYBEGIM XOLMIRZAYEVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I. Xudonazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug'bek rasadxonasining me'moriy tuzilishi va uning o'z davridagi ilmiy-texnik yutuqlar bilan uyg'unlashuvi tahlil qilingan. Rasadxonaning sirkulyar shakli, yer ostiga joylashtirilgan sekstant qurilmasi va koshinkor naqshlari Markaziy Osiyo me'morchiligining o'ziga xos jihatlari sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada rasadxonaning qurilishida matematik va astronomik bilimlarning qo'llanilishi, uning ilmiy ahamiyati hamda tarixiy o'rni haqida aytib o'tiladi. Ushbu maqola Mirzo Ulug'bek rasadxonasi orqali me'morchilik va ilm-fanning uyg'unlashuvini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Observatoriya, sekstant, koshin, Mirzo Ulug'bek, astronomiya, Nosiriddin at-Tusiy, Ziji Ko'ragoniy, Marog'a, Jamshid-al Koshiy, Qozizoda Rumiy.

Mirzo Ulug'bek tomonidan 1428-1429-yillarda Samarqandda dunyodagi eng ulkan rasadxonalaridan biri qurildi. Ulug'bek hali taxtga chiqmagan vaqtlarida ustozlari yozuvchi va faylasuf Orif Ozariy va buyuk matematik Qozizoda Rumiy bo'lgan. Keyinchalik rasadxona faoliyatida ularning ham xizmatlari asosiy o'rin tutgan. 1409-yilda Samarqand hukmdori bo'lgan Ulug'bek

ilm-fanni rivojlantirishga astoydil bel bog‘ladi¹. Oradan 10 yil o‘tib esa o‘zining orzusi – rasadxona tashkil etishni amalga oshira boshladi. Ulug‘bek Qozizoda Rumiyni bu ulkan ishdagi asosiy maslahatchisi deb tayinladi. Rasadxona shakliga ko‘ra, chuqurligi g‘orga o‘xshash aylana shaklidagi uch qavatli bino bo‘lib, diametri 46,4 m tashkil etgan. Balandligi esa kamida 30 metrni tashkil etganligi taxmin qilinadi. Shuningdek rasadxona o‘z ichiga marmar kvadrantni ham oladi. Rasadxona o‘ziga xos bino hisoblanib, uning qurilishida asosiy rolni me‘mor emas, balki binoga o‘rnatilgan asboblarning joylashuvi va hajmini aniqlagan olimlar o‘ynagan. Buni esa shubhasiz Ulug‘bek va Rumiya ta‘minlagan. Qurilish qariyb uch yil davom etgan. 1428-1429-yillarda rasadxona binosi tayyor holga keltirilgan². So‘ngra asboblarni o‘rnatish va moslashtirish ishlari boshlandi. Bu Ulug‘bekning farmoniga binoan, koshonlik astronom va matematik Jamshid al-Koshiy (1373-1430) tomonidan amalga oshirilgan. Ulug‘bek rasadxonasi Nosiriddin at-Tusiy tomonidan ishlab chiqilgan Marog‘a rasadxonasining namunasi asosida qurilgan. Ulug‘bek rasadxonasi me‘morchiligi o‘sha davrda qurilgan boshqa binolardan farq qilgan. Ulug‘bek unga yordam beradigan mohir me‘mor zarurligini anglab, Qozizoda Rumiya bilan maslahatlashadi, undan tajribali va mohir me‘mor topishni so‘raydi. Qozizoda Rumiya matematik va me‘mor Koshoniyni tavsiya qilgan. Inshootni qurishda yuqorida aytib o‘tilganidek, Xulokuxon va Manguxon tomonidan barpo etilgan Marog‘a rasadxonasidan namuna olingan. Marog‘a rasadxonasi me‘mori Nosiriddin at-Tusiy chizmalaridan foydalanilgan³. Rasadxona silindrsimon shaklda qurilgan bo‘lib, uch qavatli bino ko‘rinishida loyihalashtirilgan. Uning tashqi diametri taxminan 46 metrni tashkil etadi. Bino devorlari g‘isht va mahalliy qurilish materiallaridan qurilgan, yuzasi esa rang-barang koshinlar bilan bezatilgan.

Rasadxonaning eng muhim qismi bo‘lgan asbob – meridian yoy sekstanti (radiusi 40,2 metr), bu astronomik kuzatuvlar uchun mo‘ljallangan. Sekstant yerning tagiga o‘rnatilgan bo‘lib, faqat bir qismi ko‘rinib turadi. Bu asbob yulduzlarning aniq harakatini o‘lchashga xizmat qilgan. Ulug‘bek rasadxonasi yerdan 21 metr balandlikdagi tepalik ustida barpo qilingan. Sekstantning radiusiga ko‘ra hisoblaganda, bino anchagina baland bo‘lishi lozim edi. Biroq binoning tepalik ustida baland qilib qurilishi uning qulash xavfini yuzaga keltirishini hisobga olib, binokorlar sekstantning yarmini yer ostida qurish orqali bu muammoni hal qilishadi. Bu o‘z navbatida sekstantning o‘lchami va balandligini xavfli darajada baland bo‘lmagan holda saqlashga imkon berdi. Sekstant G‘iyosiddin Jamshid boshchiligidagi o‘rnatiladi. Samarqand sekstanti o‘sha davrda Sharqda ma‘lum bo‘lgan sekstantlarning eng yirigi hisoblangan. Ali Qushchi uning balandligini Istanbuldagi mashhur Ayo Sofiya ibodatxonasining balandligiga (balandiligi 50

¹ Stephen F. Dale. Babur: Timurid Prince and Mughal Emperor, 1483-1530, Cambridge University Press, 2018 P-45

² <https://uzbekistan.travel/uz/o/qiyinchiliklar-orqali-yulduzlarga-ulugbek-rasadxonasi/>

³ Stephen F. Dale. Babur: Timurid Prince and Mughal Emperor, 1483-1530, Cambridge University Press, 2018 P-45

metr) qiyoslagan¹. Rasadxona uch qavatdan iborat bo'lgan. Ilk qavatda xodimlar yashagan. Barcha kuzatuvlarni ko'zdan kechirish esa ikkinchi va uchinchi qavatlardan olib borilgan. Rasadxonaning tom qismi tekis bo'lib, asboblarni binoning tomi ustida ham ishlatish imkoniyati bo'lgan.

Ichki devorlarida osmon tasviri, yulduzlar xaritasi, tog', dengiz, mamlakatlar tasvirlangan. Yer shari tasviri ham tushirilgan. Shuning uchun ham bu joy "Naqshi jahon" deb nom olgan. Rasadxonaning ichki qismi ham juda nafis bezatilgan. Geometrik va islomiy naqshlar, yulduzlar va sayyoralar bilan bog'liq rasmlar rasadxonaning ilmiy maqsadini aks ettiradi. Ushbu naqshlar ayni vaqtda me'moriy go'zallik va ilmiy ramzlar uyg'unligini yaratgan. Naqshlar rasadxonaning nafaqat tashqi ko'rinishini bezagan, balki uning ilmiy maqsadini ham aks ettirgan.

Rasadxonaning ichki va tashqi devorlarida murakkab geometrik naqshlar keng qo'llangan. Ushbu naqshlar ilmiy va matematik bilimlar ramzi sifatida xizmat qilgan. O'sha davr musulmon me'morchiligida geometrik shakllar va naqshlar kosmik uyg'unlikni ifodalovchi belgilar deb qaralgan.

Rasadxona ilmiy-observatoriya bo'lganligi sababli, uning devorlarida yulduzlar, oy, quyosh va boshqa osmon jismlariga oid naqshlar ishlatilgan. Bu naqshlar astronomiyaga oid bilimlarni ramziy tarzda aks ettirgan.

Rasadxona bezaklarida Qur'oni karim oyatlari, ilm-fan va koinotga oid falsafiy fikrlarni o'z ichiga olgan yozuvlar joy olgan. Ushbu yozuvlar ko'pincha arabeska naqshlari bilan uyg'unlashtirilgan. Arabeska naqshlari chiziqli va o'simliksimon elementlar bilan to'ldirilgan bo'lib, ularning qaytariluvchanligi cheksizlikni ifoda etgan.

Rasadxonaning naqshlari yaratilishida ko'k, oq, yashil va oltin ranglar ustuvor bo'lgan. Ko'k rang osmon va koinotni ifodalagan, oltin esa ilm-fanning qadriyatini ifoda etuvchi ramz bo'lib xizmat qilgan. Rasadxona atrofidagi baland joyda joylashgani sababli, u osmon jismlarini kuzatish uchun qulay sharoit yaratgan. Bino o'rtasidagi kuzatuv joylari va ilmiy asboblari aniq hisob-kitob asosida joylashtirilgan.

Tashqi qismida an'anaviy koshinkor naqshlar, geometrik shakllar, va arabeska (ornamental) uslubdagi bezaklar bilan qoplangan. Moviy va oq rangdagi naqshlar binoga o'ziga xos estetik ruh bergan. Aynan ushbu rangdagi naqshlarni Shohizinda majmuasi va Registon ansamblida ko'rishimiz mumkin. Rasadxonaning aylana shaklda barpo etilganligi ham, o'sha davrda astronomik kuzatishlarni olib borishda qulaylikni ta'minlagan. Rasadxona me'morchiligida astronomik, geometrik va matematik hisob-kitoblar asos bo'lgan. Sekstantning joylashuvi, balandligi ham aynan yulduzlarning joylashuvini kuzatishga moslab o'rnatilgan. Sekstantning aynan yer osti qismiga o'rnatilishining asosiy sababi esa, bino ichida harorat va namlikni ushlab turish, shuningdek kuzatishlarni aniqroq olib borish hisoblangan. Inshoot bezaklari ko'p hollarda kosmos, yulduzlar va dekorativ elementlar uyg'unligini aks ettirgan.

¹ Barthold, V. V. *Four Studies on the History of Central Asia*. Vol. I: *A Short History of Turkestan*. Tr. V. and T. Minorsky. Leiden: E.J. Brill P-67

Xulosa qilib aytganda, Ulug‘bek rasadxonasi o‘z davrining ilmiy va me‘moriy yutuqlarini birlashtirgan yodgorlik hisoblanadi. Unda ilm-fan, me‘morchilik va estetik go‘zallik mukammal tarzda uyg‘unlashgan. Birinchidan, Ulug‘bek rasadxonasi o‘zining noyob me‘moriy uslubi bilan ajralib turadi. Uning qurilishida Markaziy Osiyo me‘moriy an‘analari va o‘sha davr ilm-fan talablarini birlashtirgan uslublar qo‘llanilgan. Ikkinchidan, binoning qurilishida matematik va astronomik bilimlardan keng foydalanilgan. Rasadxonaning geografik joylashuvi, sekstantning o‘lchovlari va bino tuzilishi Ulug‘bek va uning jamoasining ilmiy masalalarda chuqur bilimga ega ekanini ko‘rsatadi. Uchinchidan, Ulug‘bek rasadxonasi faqat kuzatuv inshooti bo‘lmay, balki ilmiy markaz bo‘lib xizmat qilgan. Bu yerda tuzilgan “Ziji Ko‘ragoniy” asari nafaqat Markaziy Osiyoda, balki dunyoda astronomiya rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Stephen F. Dale. Babur: Timurid Prince and Mughal Emperor, 1483-1530 Cambridge University Press, 2018 242p
2. Barthold, V. V. *Four Studies on the History of Central Asia*. Vol. I: A Short History of Turkestan. Tr. V. and T. Minorsky. Leiden: E.J. Brill, 1956
3. <https://uzbekistan.travel/uz/o/qiyinchiliklar-orqali-yulduzlarga-ulugbek-rasadxonasi/>
4. <https://uz.advisor.travel/poi/Ulug%60bek-rasadxonasi-10899>

JALOLIDDIN MANGUBERDININIG MO‘G‘ULLAR BILAN OLIB BORGAN SIYOSATI

IBROHIM ERGASHOV

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

tarix yo‘nalishi I-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: S. Toshtemirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada mo‘g‘ullar bosqini davrida ko‘plab qahramonlik ko‘rsatgan, mo‘g‘ullarni bir necha marta mag‘lub etgan hamda yengilmasligi bilan Chingizxonning e‘tirofiga sazovor bo‘lgan buyuk sarkarda va davlat arbobi Jaloliddin Manguberdining tarixiy qahramonliklari haqida qisqacha so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Xorazmshohlar, mo‘g‘ullar, jang, qahramon, sarkarda, qo‘shin.

Jaloliddin og‘ir bir paytda, Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilgan, xorazmshohlar qo‘shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik, qolgani o‘z joni-mulkini asrash yo‘liga tushgan, sulton mamlakatni o‘z holiga tashlab qo‘ygan, o‘zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo‘ldi. Jaloliddin shunday bir og‘ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo‘g‘ullarga qarshi 11 yil davomida kurash olib bordi, 14 marotaba mo‘g‘ullarga

qarshi jang qilib, uning 13 tasida g'oliblikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Mo'g'ullar bosqini arafasida Jaloliddin garchi katta o'g'il bo'lsa-da, buvisi Turkon-xotun tomonidan hokimiyatdan chetlatilgan bo'lib, taxt vorisi etib Turkon xotun urug'idan bo'lmish boshqa bir shahzoda Qutbiddin O'zloqshoh valiahd deb e'lon qilingan edi. Taomilga ko'ra shahzodalarga hududlar mulk etib bo'lib berilgan edi, jumladan G'azna, Bamiyon, al-G'ur, Bo'st, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh erlar esa Jaloliddinga mulk etib berilgan edi. Garchi Jaloliddin buvisining izmi bilan markazdan chetlatilgan bo'lsa-da, lekin sulton unga alohida muhabbat bilan qarar, uning jasurligini qadrlar va o'zidan uzoqlashib ketmasligini xohlar edi. Shuning uchun ham unga vazir etib taniqli davlat amaldori Shams-al Mulk Shahobiddin Alp al-Haraviyni, noib (o'rinbosar) etib, sarkarda sifatida Kuzbar Malikni tayinlaydi. Mo'g'ullar ta'qibidan hayiqib, ma'lum vaqt Xurosonda sargardon bo'lgan Muhammad xorazmshoh plevrit (o'pkaga suv yig'ilish) kasali bilan og'rib, taxminan 1220 yilning oxirlarida (hijriy 617 y.) quvg'inlikda Kaspiy dengizidagi Ashura orolida vafot etdi. O'limi oldidan sulton Jaloliddinni "taxt vorisi" deb e'lon qilib, sultonlik ba'zi rutbalarini unga topshirdi. Jaloliddin o'z inilari O'zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bilan to'g'ri Urganchga (Gurganj) keladi. Tez orada unga Xo'jand hokimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar ham kelib qo'shiladilar. Xalq Jaloliddin Manguberdini shod-xurramlik va katta umid bilan kutib oladi. Lekin, inisi O'zloqshoh va uning tarafdorlari unga qarshi fitna tayyorlayotganidan xabar topgach, bu alfozda mo'g'ullarga qarshi kurashib bo'lmasligini tushungan Jaloliddin 300 ta kishisi bilan yashirincha poytaxtni tark etadi. Hozirgi davrdagi yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, Jaloliddinning mo'g'ullar bilan ilk to'qnashuvi avval boshida Jand viloyatidagi Irg'iz dashtida bo'lgan. Jaloliddin 16 kun ichida Xorazmdan Xuroson erlaridagi Niso qo'rg'oni atrofiga etib keladi. Chingizxon sulton o'g'illarining Xorazmga qaytganliklaridan xabar topgach, agarda ular Xurosonga chekinmoqchi bo'lsalar, ularga qarshi chiqadi degan maqsadda o'z qo'shinidan Xurosonning har eriga pistirmalar qo'yadi. Jaloliddin Niso yaqinida o'zining 300 ta askarlari bilan mo'g'ullarning 700 kishilik otryadini zarbaga uchratadi. Mo'g'ullar batamom mag'lub etiladi. Ushbu g'alaba mo'g'ullarning "afsonaviy qudrati" haqidagi mish-mishlarga chek qo'yadi. Jaloliddin obro'si ko'tarilib, xalq ommasida g'alabaga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi. Shunday bir vaziyatda Jaloliddinning ukalari O'zloqshoh va Oqshohlar sarosimaga tushib, nima qilishlarini bilmay, Jaloliddin ketidan ular ham Xurosonga ketishadi. Mo'g'ullarning kichik otryadi ustidan g'alaba qozonib, bu g'alabaga juda katta e'tibor berib yuborishadi. Shundan so'ng ayshi-ishratga berilib, Xurosonning Habushan shahri yaqinida mo'g'ullarga qarshi navbatdagi kurashda qo'lga tushib, qatl etiladilar. Mo'g'ullar qatl etilgan shahzodalarning kallalarini namoyishkorona tarzda ma'lum bir vaqt Xurosonda olib yurishadi. Jaloliddinning yana bir inisi, Iroq erlarining noibi Rukniddin G'ursanjiy (manbalar unga "aql zakovat va ko'rkamlikda tengi yo'q" deb ta'rif berishgan) Eronning Ustunavand qal'asida 6 oy mo'g'ullarga qarshi kurash olib borib, mardonavor tarzda halok bo'ladi. Jaloliddinning boshqa bir ukasi, bir vaqtlar Kirmon, Makron va Kesh

erlari noibi G‘iyosiddin Pirshoh Eronning Kirmon viloyatida muqim qolib, o‘zini “sulton” deb e‘lon qiladi. Keyinchalik G‘iyosiddin Pirshoh Jaloliddinga Eron erlaridagi kurashlarida ma‘lum yordam beradi. Jaloliddin esa bu vaqtda Nishopurga etib keladi. Bir oy davomida mo‘g‘ullarga qarshi kurashish maqsadida barcha amir, sarkardalarga qo‘shin yig‘ish xususida murojaat qiladi. Mo‘g‘ullar uning ushbu faoliyatidan xabardor bo‘lganliklarini bilgach, Zavzon (Nishopur va Hirot oralig‘ida) tumanidagi al-Qohira qal‘asiga kelib o‘rnashadi. Afsuski, bu vaqtda mahalliy noib, hokimlar uning atrofida jipslasha ololmaydilar. Hali yetarli kuchga ega bo‘lmagan Jaloliddin qal‘ada uzoq turish xavfli ekanligini tushunib, G‘azna tomon yo‘l oladi.¹

Jaloliddin Manguberdi ancha yillar ilgari G‘azna, Voliyon, Guch, Bust va Hindiston hududlarigacha bo‘lgan yerlarga hokim etib tayinlangan edi. Shu bois, G‘azna tomon yurdi, yo‘lda ko‘pgina qo‘shin boshliqlari Sulton Jaloliddinga qo‘shildi. Sulton Jaloliddin Niso, Qandahorda mo‘g‘ullar qo‘shinini tor-mor etib, G‘aznaga yetib keldi. Jaloliddin Manguberdi katta qo‘shin to‘plab, Valiyon qal‘asi, Parvon tekisligida mo‘g‘ul qo‘shinlari bilan jang qilib, ularni tor-mor etadi. Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o‘zi qo‘shin tortadi. 1221— yil 25-noyabrda Sind (Hind) daryosi bo‘yida tengsiz jang bo‘ladi. Bu jangda Jaloliddin Manguberdi ko‘rsatgan jasoratga mo‘g‘ul hukmdorining o‘zi ham tan berib, lol qolgan. Bu hayot — mamot jangida Xorazm bahodiri, uning yigitlari arslonlardek jon berib, jon olardi. “Qaysi tomonga ot choptirmasin, tuproqni qonga bo‘yar edi. Agar bu jangni Zolning o‘g‘li ko‘rsa edi, u sulton Jalol (uddin) ning qo‘lini o‘pgan borardi”.¹ Chingizxon lashkari hisobsiz bo‘lsa-da, uning jang maydonidagi asosiy kuchlari parokanda holiga tushib qolgandi. Biroq pistirmadagi 10 ming nafar sara lashkar jangni Chingizxon foydasiga hal qiladi. Nochor, tang ahvolga tushib qolgan Jaloliddin qora to‘riq otiga minib, so‘nggi bor mo‘g‘ullarga hamla qilib, so‘ng ot jilovini ortga tortadi. Sovutini yelkasidan tashlab, otiga qamchi bosadi va balandlikdagi qoyadan o‘zini Sind daryosiga otadi. Jaloliddin bahaybat daryo to‘lqinlarini shiddat bilan kesib o‘tib narigi sohilga o‘tib oladi. Uning 4000 jangchisi ham bunga muvaffaq bo‘lishadi. Hozirgi paytda ham bu daryoning bir tomoni “Ot sakrar”, narigi tomoni “Cho‘li Jaloliy” deb ataladi²

Sulton Jaloliddinning bizga qoldirgan yana bir da‘vati shuki, u barchamizni ona yurtimizning beg‘ubor osmonini va osuda hayotini qadrlashga, o‘zib kelayotgan, ertaga bizning o‘rnimizni egallaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan farzandlarimizning kelajagini, baxt-saodatini himoyalashga, yorug‘ istiqbolga intilib yashashga chorlaydi. Qadrli vatandoshlar! Tarixi qariyb uch ming yilga boradigan, buyuk fan va madaniyat o‘lkasi bo‘lgan, jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo‘shgan ulug‘ zotlar vatani, “Avesto”dek o‘lmas asar yaratilgan tabarruk tuproq — Xorazm zamini butun dunyoga ma‘lum va

¹ O‘zbekiston tarixi. B.J. Eshov, A.A. Odilov. Toshkent-2013 3-456-b

² O‘zbekiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun (tarix yo‘nalishidan tashqari) darslik/Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; OkzR oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.- Γ2006, 520-b

mashhur. Bu yurt tengsiz allomalar, aziz-avliyolar, podshoh-u sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan. Ular orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberding betakror nomi yulduzdek charaqlab turadi. Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxr-u g'ururidir. U bizning ozodligimizga, istiqbolimizga tajovuz qilmoqchi bo'lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirligimizning tasdig'i va timsolidir. Bu bahodir zotning muborak nomi, uning qahramonligi kelajak avlodlarga, birinchi galda siz bilan bizga, tarixiy xotira oldida boshimizni mag'rur tutib yashamog'imiz uchun to'la huquq beradi¹.

Xulosa: Jaloliddin Manguberdi o'zbek davlatchiligi tarixidagi juda katta shaxslardan biri sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi. Uning buyuklik darajasi, ko'rsatgan jasratlari, aqliy jihatdan yetukligi, harbiy barkamolligini bugungi maqola orqali ko'rdik. Uning eng katta buyukligi shunda bo'ldiki, qayerga hujum qilmasin, o'sha yerni jahannamga aylantirayotgan, toptayotgan Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar aynan Jaloliddinga kelganda ensasi qotadigan darajada boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Qiziq tomoni shundaki, bu voqea-hodisalar mo'g'ullar eng cho'qqiga chiqqan, raqib tanlamay g'alaba qozonayotgan davrga to'g'ri kelib, Jaloliddin aynan shu davrda sodir bo'lgan 14 jangning naq 13tasida zafar quchdi. So'nggi mag'lubiyati ham uning kuchsizligi emas, balki yaqinlarining xiyonati hamda dushmanlarning ittifoqi natijasi bo'ldi. Ha, Jaloliddindek buyuk siymoga eng ko'p zarar bergan omil xiyonatdir.

Hattoki uning o'limi ham uning shaxsiyatiga munosib bo'lmadi. Oddiy kurd kishisining qo'lida o'lim topdi. Lekin bunda ham ramziy ma'no bor, ya'ni mo'g'ullar har qancha harakat qilmasin baribir ularga Jaloliddinni o'ldirish nasib etmadi.

Bugun biz yoshlar Jaloliddin Manguberdi siymosidan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, bahodirlik, harbiy mahorat, chidamlilik, intiluvchanlik hamda yengilmaslik kabi xislatlarni o'rganishimiz hamda ularga amal qilishimiz zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Жалолиддин Мангуберди хайоти. – Т.: О'zbekiston, 2006.
2. B.J. Eshov, A.A. Odilov "O'zbekiston tarixi" Toshkent-2013 3-456-b.
3. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun (tarix yo'nalishidan tashqari) darslik. 2006, 520-b.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan Tarixi. K.1. – T.: Sharq, 2010.
5. <https://e-tarix.uz/component/content/article/43-davlat/82-manguberdi.pdf>

¹ <https://e-tarix.uz/component/content/article/43-davlat/82-manguberdi.pdf>

MIRZO ULUG‘BEK BUYUK QOMUSIY OLIM VA ILM-FAN HOMIYSI

MARJONA TO‘XTAYEVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo‘nalishi bakalavr 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: ChDPU O‘zbekiston tarixi kafedrası

o‘qituvchisi Sh.Parmonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bekning hayoti hamda Jamshid Koshiy tomonidan uning ilmiy faoliyatiga bergan ma’lumotlar to‘g‘risida so‘z boradi. Uning astronomiya sohasidagi kashfiyotlari, ilm-fan homiysi sifatida mamlakatda olib borilgan ishlari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr, olim, Jamshid Koshiy, Samarqand, ilm-fan, madrasa, astronomiya

Mirzo Ulug‘bek o‘z umrini kelajak uchun, bugungi hayot uchun fido etdi. O‘sha uzoq zamonlarda bashariyat taraqqiyotini o‘ylab yashadi, o‘z avlodlari asrlar osha tartib etajak ma’rifatni bir jamiyatni barpo qildi. Har qanday millat ham Ulug‘bekday farzandni tarbiya etgani uchun g‘ururlanishi tabiiy xoldir. Chunki bunday insonlar faqat o‘z xalqiga emas, balki umumbashariy sivilizatsiya uchun ham xizmat qiladi va jahonning e’tiborini qozonadi ¹.

Mir Muhammad Ibn Shohruh ibn Temur Ulug‘bek Ko‘ragoniy (1394-1449) -buyuk astronom va matematik, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan allomasi, davlat arbobi hisoblanadi. Mirzo Ulug‘bek Sohibqironning “besh yillik urush”ida (1392-1396) Iroqdagi Morfin qal’asini qamal qilish chog‘ida tug‘ilgan. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug‘bekning tug‘ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat qilganliklari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal’asi qamalini to‘xtatib, uning xalqiga yuklangan to‘lovni bekor qiladi. Uning o‘z nabirasiga Muhammad Tarag‘ay deb ism qo‘ygani ham yuqoridagi munajjimlarning bashorati bilan bog‘lash mumkin. Temur Ulug‘bekning tarbiyasiga alohida e’tibor bergan va davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Mirzo Ulug‘bek o‘n yetti yoshida otasi Shohruh tomonidan Movarounnahr va Turkiston hokimi etib tayinlanadi. Mirzo Ulug‘bek bobosi kabi harbiy yurishlarga qiziqmas, ko‘proq ilm-fanga moyil edi².

Manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, Ulug‘bek buyuk mutafakkirlardan Ahmad Farg‘oniy, Farobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino asarlarini batafsil o‘rganadi. Ularning asarlari orqali qadimgi Yunon olimlari: Aflotun (Platon), Arastu (Aristotel), Gipparx (Gippokrat), Ptolomeylarning

¹ Ислом Каримов ‘ Биздан озод ва обод ватан колсин’2 Тошкент Ўзбекистон 1996, 115-б.

² Nazirov Baxtiyor Safarovich, Mengilboyev Akmal, Bozorov Quvonchbek, Uralova Aziza, Vafuqulov Shohruh “Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shohruh va Mirzo Ulug‘bek (risola)” Toshkent- “Lesson press”- 2022, 51-52-b.

klassik asarlari bilan ham tanishadi. Ulug‘bek yigirma yoshlarida o‘z davrining yirik olimlaridan bo‘lib, uning hokimligi davridagi muhim yangiliklar butun O‘rta asr madaniyati tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi. Ulug‘bekning xodimi bo‘lmish Jamshid Koshiy 1417- yili Koshonga otasiga yozgan maktubida, Ulug‘bekning faoliyati va bilimdonligini quyidagicha tariflaydi: Allohga va uning ne‘matlariga shukronalar bo‘lsinkim, yetti iqlimning farmonbardori, Islom podshohi (ya‘ni Ulug‘bek) kishidirlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo‘q. Haqiqat shuki u kishi Quroni Karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlarni va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so‘zlarini aqlda saqlaydilar va yoddan biladilar va arabchada g‘oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar, mantiq usullarining ma‘nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar.

U kishi riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko‘rsatganlarki, kunlardan bir kuni odamlarning ketayotib, 818 yil rajab oyining o‘n uchinchi va o‘n beshinchi kunlari (milodning 1415-yil 15-20 sentyabr) orasidagi dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni aytadilar. Shunga ko‘ra otda ketayotib, xayoliy hisob bilan Quyoshning taqvimini o‘sha kuni bir daraja va ikki daqiqa ekanligini topdilar. Keyin otdan tushgach, hisob to‘g‘riligini bir bandi bechoradan (Koshiydan) so‘rab, aniqlab oldilar.

Haqiqatdan ham, xayoliy hisobda ko‘p miqdorlarni yodda tutmoq va boshqa miqdorlarni bularga asoslanib topmoq kerak. Lekin insonning yodlash quvvati zaifdir va u daraja daqiqalarini aniq topolmaydi. Inson bino bo‘lganidan beri shu kungacha hali hech kimsa bu qadar aniq hisoblay olmagan edi.

Qisqa qilib aytmoqchimanki, u kishi bu fan sohasida katta mahoratga erishganlar, yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar bilan xuddi keragidek isbotlaydilar. “Tazkira”, va “Tuxfa” dan shu qadar zo‘r o‘tadilarki, ularga hech qanday qo‘shimcha qilishning hojati qolmaydi”¹. Yuqoridagi Jamshid Koshiy aytgan fikrlar shuni anglatadiki Mirzo Ulug‘bek ham diniy ham dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan. Ayniqsa, uning astronomiya sohasidagi faoliyati ilm-fan rivojlanishida katta yutuq bo‘ldi. Ulug‘bek yozgan asarlari orqali ilm-fanga ko‘p hissa qo‘shdi. U to‘rtta ilmiy asar yozgan bo‘lib, ulardan eng asosiysi uning “Zij”i hisoblanadi. Bu asar “Zij”i Ulug‘bek, “Zij”i jadidi Ko‘ragoniy nomlari bilan ham mashhur.

“Zij”idan tashqari uning qalamiga mansub matematik asar “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, astronomik asar “Risolayi Ulug‘bek” va tarixga doir “Tarixi arba ulus” kabi asarlari ham mavjuddir.

Mirzo Ulug‘bek Movarounnahr shaharlari xususan Samarqand va Buxoroni ilm-u ma‘rifat dargohiga aylantirishga intiladi. Uning farmonlari bilan 1417-yilda Buxoroda, 1420-yilda Samarqandda, 1433-yilda G‘ijduvonda madrasalar bino qilinadi. Hatto Buxorodagi madrasaning darvozasiga “Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir” degan kalima o‘yib yozib qo‘yiladi.

¹ Манавийат йулдузлари (Марказий осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашрийоти Тошкент-2001 173-б.

Movarounnahrning bu uchta qadimiy shaharlarida barpo etilgan ilmgohlar, xususan Samarqand madrasasi zamonasining dorilfununi edi. Ushbu madrasalarda ilohiyot ilmlari: Quron, hadis, tafsir, fiqh(din va shariat qonun qoidalari) bilan birga riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), ilmi xayot (astronomiya), tibbiyot (meditsina), tarix, geografiya, ilmi aruz (poetika), arab tili va morfologiyasi (qofiya) kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitilardi¹.

Ulug'bek barpo etgan Samarqand madrasasi va ilmiy to'garagi Sharq madaniyati va fani tarixida muhim ahamiyat kasb etdi, mamlakat ravnaqiga, shuningdek, ko'p xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu yerda ko'plab siymolar shakllandi. Jumladan, Xurosonning Jom shahrida 1414-yili tug'ilgan bo'lajak shoir Jomiy Ulug'bekning Samarqand madrasasida tahsil ko'rdi. Bu yerda u Qozizoda Rumiy, Ulug'bek, Ali Qushchi kabi ulkan olimlarning ma'ruzalarini eshitdi va ularning tarbiyasida bo'ldi².

Samarqanddagi madrasaga Ulug'bek tez orada mudarris va olimlarni to'play boshlaydi. Samarqandga Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosondan to'plangan olimlarning soni 1417-yilga kelib 100 dan ortib ketadi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, musavvirlar bor edi.

“Madrasaga asos solinganidan to'rt yil keyin Mirzo Ulug'bek Qozizoda Rumiy, Mavlono G'iyosiddin Jamshid va Mavlono Muiniddin Koshiniylar bilan maslahatlashib, Ko'xak tepaligida Obi Raxmat arig'ini bo'yida rasadxona binosini qurdiradi. Uning atrofida esa baland hujralar barpo etadi”.

Rasadxona qurilishi 1420-yildan 1429-yilgacha davom etadi. Mirzo Ulug'bek rasadxonani loyihalash va qurishda ham bevosita ishtirok etadi. U davlat ishlarini bajarish bilan birga madrasada ham ma'ruzalar o'qiydi. Uning chuqur bilimi, isbotlarining dalillarga asoslanganligi, mahorati va shu fanlarga muhabbati tinglovchilarni hayratlantiradi.

Bundan tashqari Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Ali Qushchilar bilan bir qatorda Ismoil, Mavlono Ibrohim, Mavlono Badriddin va boshqa olimlar ham ma'ruzalar o'qirdilar.

Mirzo Ulug'bekning katta ishtiyoqi — bu astronomiya bo'lgan. Buyuk astronom Ulug'bek rahbarligi va ishtirokida rasadxonaning asosiy ishi “Zidjiy Ko'ragoniy”, “Ulug'bekning yulduzlari jadvali” tuziladi. Kitobda ushbu Samarqand observatoriyasidan 1018ta yulduz joylashuvi aql bovar qilmas aniqlikda, Gipparxdan so'ng ilk bor belgilangan³

Mirzo Ulug'bek yulduzlarni jamlagan mukammal xarita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan mukammal astronomik jadvalini yaratdi.

Astronomik turkum yaratilishi jahon astronomiya fani xazinasiga qo'shilgan ulkan hissa hisoblanadi. Bundan tashqari, rasadxonada ekliptikaning ekvatorga qiyaligi va yulduz yilining uzunligini belgilash; sinusning bir burchakdagi

¹ Абдулахад Мухаммаджонов “Тимур ва Темурийлар салъанати” Тошкент, 115-б.

² А. Ахмедов Улугбек (хайоти ва фаолийати (1394-1449) Ташкент Ўзбекистон ССЖ "Фан" нашрийоти 1991, 52-б.

³ Arboblar.uz

ahamiyatini-muhim doimiylikni verguldan so'ng o'n sakkizinchi belgigacha aniqlikda hisoblash bo'yicha ishlar olib borilgan.

Ulug'bek o'z ma'lumotlarini bir necha bor tekshirib, uning sonlarini to'g'ri, degan xulosaga keladi. 1437-yil u astronomik yil yil uzunligini aniqlaydi: 365 kun 6soat 10 daqiqa 8 soniya. Keyinroq o'zgarishlar farqi 58 soniyada ekanligi aniq bo'lgan. Agar astronomik yil uzunligi 31 million 558 ming 150 soniya ekanligini hisobga olsa, Ulug'bek o'z o'lchamlarini naqadar yuqori aniqlikda olib borganligiga amin bo'lish mumkin ¹.

Shunday qilib Mirzo Ulug'bek jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadi. Tarixchi olim Bo'riboy Ahmedov aytganidek, Mirzo Ulug'bek "...tirikligidayoq o'ziga haykal o'rnatib ketdi". Ulug'bek "Zij"i buyuk bir falakiyotshunoslikka oid asar bo'lib, u o'rta asrlarda va undan ancha keyin ham Hindistondan to Atlantika okeanigacha bo'lgan hududda falakiyotshunoslikning rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Ulug'bek to'g'risida uning zamondoshi Abdurazzoq Samarqandiy:

- Chun Ulug'bek Mirzo har ilmi handasa, Natavon aft har hazaron madrasa, (geometriya ilmida minglarcha madrasalarda ham Ulug'bekdek olimni topolmaysan), deb ta'rif beradi ².

Uning hayoti va ijodi o'zbek xalqi ma'naviyati poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, xalqimizning o'rta asrlarda fundamental fanga nechog'lik buyuk ahamiyat berganini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Mirzo Ulug'bekni chinakam qomusiy olim sifatida aytish joizdir. Mirzo Ulug'bek qirq yil hukmronligi davrida mamlakatda fan va madaniyatni rivojlantirdi, o'z davrining diniy va dunyoviy ilmlarini egalladi va xalqni ham ilm o'rganishiga sharoit yaratdi. Mirzo Ulug'bek Buxoro, Samarqand, G'ijduvon shaharlarida madrasalar bunyod etdi. Bu madrasalar albatta xalqning ilm olishida muhim maskan bo'lib xizmat qilgan. Mirzo Ulug'bekning astronomiya sohasidagi amalga oshirgan ishlari o'sha davrdagi katta natija edi. U tuzgan astronomik jadvalida yil hisobi hozirgi hisob-kitoblarga juda yaqindir. Ulug'bek qurdirgan Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlar asosida matematika va astronomiyaga oid ko'plab asarlar yozib qoldirdi. Bu asarlar bizga ma'naviy meros bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ислон Каримов. Биздан озод ва обод ватан колсин 2 том. Тошкент. Узбекистон. 1996.

2. Nazirov Baxtiyor Safarovich, Mengilboyev Akmal, Bozorov Quvonchbek, Uralova Aziza, Vafqulov Shohruh "Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shohruh va Mirzo Ulug'bek (risola)" Toshkent- "Lesson press"- 2022.

¹ Rustam Shamsutdinov, Shodi Karimov "Vatan tarixi" Birinchi kitob "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2010, 41-b,

² Qobilboyeva Zarnigor Bobomurod qizi "Mirzo Ulug'bek davrida ilm-fan" konferensiya to'plami 39-bet.

3. Манавият юлдузлари (Марказий осийлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар Абдулла Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент-2001.

4. Абдулахад Мухаммаджонов. “Тимур ва Темурийлар салтанати” Тошкент.

5. А.Ахмедов. Улугбек ҳаёти ва фаолияти (1394-1449). Ташкент. Ўзбекистон. ССЖ “Фан” нашриёти. 1991.

6. Arboblar.uz

7. Rustam Shamsutdinov, Shodi Karimov. “Vatan tarixi” Birinchi kitob “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2010.

8. Qobilboyeva Zarnigor. “Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan rivoji” konferensiya to‘plami 39-bet.

MIRZO ULUG‘BEK – ILM-FAN VA MADANIYAT HOMIYSI

ZUHRA JO‘RAYEVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.n., professor Y. Gaffarov

“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi yengilmas, sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratishimiz kerak”

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriyzodalar ichida fan va madaniyat taraqqiyotiga eng ko‘p va salmoqli hissa qo‘shgan hukmdor hamda butun Jahonda olim sifatida tanilgan Mirzo Ulug‘bek haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Shu bilan birga Ulug‘bek o‘z saltanatida ma‘rifat, fan va ta‘lim ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratib berganligi, XV asrda Movarounnahrning poytaxti bo‘lgan Samarqandda ilmiy tadqiqotlar olib borib, astronomiya va matematika fanlari sohasidagi turli xildagi kashfiyotlar yaratganligi, hamda o‘zining yaratgan nodir asarlar bilan ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shganligi haqida bir qancha mulohazalar yuritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”, “Tarixi arba’ulus”, akademiya N.Kopernik, I.Nyuton, Rasadxona, Ibn Turk al Xuttaliy.

O‘rta Osiyo jumladan, O‘zbekistonda yetishib chiqqan buyuk allomalar dunyo tamadduniga, ilm-fan taraqqiyotiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar. Dunyo tarixiga va islom madaniyatida buyuk ajdodlarimiz Farobiy, Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy,

Navoiy kabi mutafakkirlar bilan bir qatorda davlat arbobi, jahon astronomiya faning asoschilaridan biri, mashhur olim Mirzo Ulug‘bek ham munosib o‘rin egallaydi.

Mustaqillik yillarida ilm-fanda yangicha metodologik yondashuvlar qaror topdi. Keyingi o‘n yilliklarda olimlar tomonidan mazkur muammo bo‘yicha qator ishlar qilindi. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek tavalludini nishonlash tantanalari arafasida tadqiqot ishlari yanada faollashdi. Jumladan, Ulug‘bekning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”, “Tarixi arba’ulus” kabi asosiy asarlari tarjima qilinib, nashr etildi. Bundan tashqari, respublikamizda hamda xorijda olimning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan bir qator xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi. Bu ma’lum darajada Mirzo Ulug‘bekning olim va davlat arbobi sifatidagi faoliyati tarixshunosligi doirasini yanada kengayishiga imkon berdi. Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi qay darajada muhim ekanligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov shunday degan edi: “Mirzo Ulug‘bekday benazir allomaning o‘rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo‘ymaydi... Mirzo Ulug‘bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qildi. Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal xarita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” deb nomlangan Ulug‘bek astronomik jadvali o‘rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani bu fikrimizning yaqqol isbotidir”¹

Bundan olti asr muqaddam qadimiy Samarqandda Mirzo Ulug‘bek va uning akademiyasi tomonidan ishga tushirilgan rasadxonadan olis koinot qa‘riga tashlangan nazar faqat Sharqdagina emas, balki jahon ilm-fanini koinotni o‘rganishga qo‘yilgan buyuk bir qadami bo‘ldi. Shu ilk amaliy qadam tufayli, G‘arbiy Yevropada o‘z zamonasining ilg‘or jihozlangan rasadxonalari ishga tusha boshladi. Polshada olam tuzilishining geliotsentrik nazariyasini N.Kopernik, Milanda koinotning cheksizligi va unda quyosh tizimi tuzilishi nazariyasi Jordano Bruno, Germaniyada samo jismlarining harakat qonunlarini ifodalovchi, koinot mexanikasi I.Kepler tomonidan, Angliyada osmon jismlarining massalarini hisoblash usuli I.Nyuton tomonidan o‘rganilishining asosida Samarqand akademiyasining o‘rni muhim edi. Koinotda, Quyosh, Oy va sayyoralarning harakatlarini o‘rganish bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek akademiyasi qo‘ygan poydevor — nazariy va amaliy astronomiya fanning shakllanishiga, o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi. Shu sabab, Mirzo Ulug‘bek ma’naviy merosi, akademiyasi asrlar davomida jahon ilm ahlini qiziqtirib kelmoqda. Mirzo Ulug‘bek hukmdor bo‘lishiga qaramasdan astronomiya, matematika, tarix, falsafa, musiqa, adabiyot kabi fanlarga mehr qo‘ygan edi.

Shunday qilib Mirzo Ulug‘bek 1394-yilning 22-martida Sultoniya shahrida tavallud topgan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur Mirzo Ulug‘bek tarbiyasiga alohida e’tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Klavixoning ma’lumotlariga ko‘ra, Ulug‘bek bobosining xorijiy elchilarini qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. Mirzo Ulug‘bek 1409-yildan boshlab

¹ Ахмедов А. Улугбек (хаёт фаолияти). –Тошкент: Фан, 1991. –54 б.

Movarounnahr hokimi bo'lgan. U payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning "Beshikdan qabrgacha ilm izla", degan hadislariga doimo amal qilgan. Ulug'bek Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom asarlarini chuqur o'rganadi va bu mutafakkirlar orqali yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomey bilan tanishadi. G'iyosiddin Jamshid Koshoniyning yozishicha, Ulug'bek donnishmand bo'lib, Qur'oni karimning aksariyat qismlarini yoddan bilgan hamda Ulug'bek davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, me'morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Ulug'bek O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog'onasiga olib chiqdi.

Mirzo Ulug'bekning olim sifatidagi faoliyati davomidagi eng katta ishi bu falakiyot ya'ni astronomiya ilmida erishgan natijalari bo'lib, uning sa'y-harakati bilan 1420-1429 yillar mobaynida Samarqandda osmon jismlarini o'rganuvchi rasadxonaga asos solingan¹. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan bo'lib ular orasida eng yiriklari Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshiy edi. Ulug'bekning ilmiy maktabi o'z faoliyatida O'rta Osiyolik mashhur olimlar Muhammad Xorazmiy, Ahmad alFarg'oniy, Abul Abbos al Javhariy, Ibn Turk al Xuttaliy, Xolid al Marvarrudiy, Ahmad al Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylir boshlab bergan ilmiy an'anaga asoslanar edi².

Ulug'bek o'z saltanatida ma'rifat, fan va ta'lim ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Samarqandda 2 ta Madrasa: biri — Registon ansambli tarkibida va ikkinchisi Go'ri Amir ansambli tarkibida barpo qilgan. Boshqa yirik olimlar qatorida Ulug'bekning o'zi ham bu madrasalarning har birida haftada bir marotaba ma'ruza o'qigan. Boshqa vaqtini ko'proq astronomik kuzatishlarga, "Zij" ustida ishlashga va davlat ishlariga bag'ishlagan. Jumladan, Buxorodagi madrasa eshigiga o'yib "Bilim olish har bir musulmon va muslimaning burchidir", degan shiorning o'yib bitilishi buning yaqqol dalilidir. Ulug'bek Movarounnahrni butun musulmon mamlakatlarining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. 1417-yilga kelib Samarqandda yuzdan ziyod olimlar to'plangan. Ular orasida olimlar, adiblar, muarrixlar, xattotlar, musavvirlar, geograflar bor edi. U mamlakatda fanni rivojlantirishni o'z dasturiga ko'ra amalga oshirdi va bu yaxlit "fan va ta'lim dasturi" edi³. Mirzo Ulug'bek temuriyzodalar ichida fan va madaniyat taraqqiyotiga eng ko'p va salmoqli hissa qo'shgan hukmdordir. U Samarqandda birinchi falakiyotshunoslik akademiyasiga ham asos solgan siymo sifatida dunyoga nom taratadi. Ulug'bek akademiyasini tan olgan

¹ Амир Темур жахон тарихида. —Тошкент: Шарк, 1996. —147 б.

² Bo'riev O. Mirzo Ulug'bekning fan-ta'limni rivojlantirish bo'yicha faoliyati va uning islom sivilizatsiyasidagi o'rni// O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha islom tashkiloti —INESCO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yildagi Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyaga yo'llangan ma'ruzalar va tabriklar). Tezislari to'plami. —Toshkent-Samarqand. 2007

³ Karimov I.A. Ulug'bek ruhi barhayot // Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. Toshkent: O'zbekiston, 1996. 320 b

va shuhratini dunyoga taratgan kishi — bu fransuz yozuvchisi, faylasufi va tarixchisi Volter (1694-1778)dir. B.Ahmedov o‘zining “Ulug‘bek” nomli kitobida Volterning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Transoksianada uning (Amir Temurning) o‘rniga taxtga chiqqan mashhur Ulug‘bek Samarqandda birinchi akademiyaga asos soldi, yer kurrasini o‘lchashni buyurdi va falakiyotshunoslik jadvallarini tuzishda ishtirok etdi”. Ulug‘bek Mirzo yirik olim bo‘lish bilan birga, o‘z davrida fan taraqqiyotiga rahnamolik qilib, ilm-u fan ahliga homiylik qilgan. Uning davrida Samarqand shahri ilm-u fan va madaniyat markaziga aylanib, ko‘plab yetuk olimlar, o‘nlab hassos shoirlar va suxandon adiblar saroyda o‘zlariga munosib mavqega ega edilar¹.

Shunday qilib, O‘rta va Yaqin Sharqda va boshqa hududlarda astronomiya va matematika sohasida erishilgan buyuk muvaffaqiyatlar Temuriylar davlatiga katta shuhrat keltirdiki, bu shuhrat, birinchi navbatda, Mirzo Ulug‘bek nomi bilan bog‘liqdir. Ulug‘bek Movarounnahrda ilm-fanni tashkil etish borasidagi faoliyati bilan musulmon olamining burchaklaridagi ko‘plab olimlarning diqqat e‘tiborini o‘ziga jalb etgan. Bunga misol tariqasida Kichik Osiyoning Bursa shahridan kelgan Mirzo Ulug‘bekning ustoz Qozizoda Rumi, asli Iroq Ajamning Koshon shahridan bo‘lgan Jamshid al-Koshiy va boshqalarni aytish mumkin².

Umuman xulosa qilib aytganda, Movarounnahrda Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida ilm-fan va madaniy hayot yana bir pog‘ona yuksaldi. Uning homiyligida mamlakatdagi har bir fuqaro ilm o‘rganib, ta‘lim va tarbiya olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. O‘z mamlakati taraqqiyoti uchun ilm-fan sohalarini hamda madaniy hayotda nima zarur bo‘lsa o‘sha chora-tadbirlarni shaxsan o‘zi boshchiligidan amalga oshirgan. Natijada, Samarqandni o‘z davrida ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirgan. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek tomonidan asos solingan Samarqand akademiyasida ilm-fan yutuqlari bilan birga, mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan bir necha fan sohalariga oid izlanishlar olib borilgan. Buni bu davrda yozilgan turli fan sohalariga oid risolalar va asarlarda ham ko‘rish mumkin. Xullas, XV asrda Movarounnahrning poytaxti Samarqandda ilmiy tadqiqotlar olib borgan mashhur olimlarning ijodiy faoliyati markazi sifatida astronomiya va matematika fanlari sohasidagi kashfiyotlar yaratgan nodir asarlar bilan ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Bularning barchasi Mirzo Ulug‘bekning sa‘y-harakatlari bilan amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахмедов А. Улугбек (хаёт фаолияти). –Тошкент: Фан, 1991. –54 б.
2. Амир Темур жахон тарихида. –Тошкент: Шарк, 1996. –147 б.
3. Bo‘riev O. Mirzo Ulug‘bekning fan-ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha faoliyati va uning islom sivilizatsiyasidagi o‘rni// O‘zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi Ta‘lim, fan va madaniyat bo‘yicha islom tashkiloti – INESCO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yildagi Islom

¹ Nazirov B.S. va boshqalar Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shoxrux va Mirzo Ulug‘bek. Risola// – “Lesson press” nashriyoti. – Toshkent: 2022. – 104 bet.

² “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти Тошкент: 75-б.

madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyaga yo'llangan ma'ruzalar va tabriklar). Tezislari to'plami. –Toshkent-Samarqand. 2007.

4. Karimov I.A. Ulug'bek ruhi barhayot // Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. Toshkent: O'zbekiston, 1996. 320 b

5. Nazirov B.S. va boshqalar Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shoxrux va Mirzo Ulug'bek. Risola// – “Lesson press” nashriyoti. – Toshkent: 2022. – 104 bet.

6. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти Тошкент: 75-б.

MIRZO ULUG'BEKNING KUTUBXONASI TARIXIGA BIR NAZAR

MARJONA O'RALOVA

*TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti,
Tarix (Markaziy Osiyo xalqlari tarixi) yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD B.Zokirov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar sulolasining yirik namoyondasi Mirzo Ulug'bek va uning ilm-fanga homiylik qilishi, xususan, bobosi Amir Temur tomonidan boshlab berilgan kutubxona yaratish an'anasini davom ettirganligi masalasi bayon qilingan. Mirzo Ulug'bekning fojiali o'limi u tomonidan boshlab berilgan, xususan, hozirgi kunda xalqimiz orasida “ikkinchi renessans” deb ataluvchi akademiya faoliyatiga ham qisman o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsa-da, o'z vaqtida uning tashabbusi bilan saqlab qolingan nodir qo'lyozmalardan iborat kutubxona jahon tamadduniga o'z hissasini qo'shgan va hozirgi kunda butun dunyoga sharqning buyuk tarixi, madaniyati haqida tanishtirib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Mirzo Ulug'bek, rasadxona, kutubxona, qo'lyozma, manba, Ali Qushchi, Ziji jadidi Ko'ragoniy.

Ma'lumki, kutubxonalar qadim-qadimdan insonlar uchun ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i bo'lib, inson zoti doim kitoblarga intilib yashab kelgan. Har doim kutubxonalar jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan. Faqat kutubxonalar tufayligina qadimgi qo'lyozmalar, bosma kitoblar, tarixiy shaxslar haqidagi manbalar bizgacha yetib kelgani hech kimga sir emas.

Markaziy Osiyo hududida yirik sulolaviy kutubxonalar, masjid-madrasalar qoshida kutubxonalar bo'lganligi haqida aniq tarixiy manbalar mavjud. VII–IX asrlarda arab xalifaligi tarqoqlashib, IX asrning oxiriga kelib O'rta Osiyo hududida Somoniylar davlati yuzaga kelgan. Somoniylar davrida Movarounnahr, Samarqand, Buxoroda fan va madaniyat rivojlana borgan¹. Bu davrda ushbu davlatda juda ko'p mashhur qomusiy olimlar yashab ijod etgan. Buxoroning

¹ Ашраф Ахмад. Улуғбек Муҳаммад Тарағай (1394-1449). – Тошкент: Халқ мероси, 1994. –Б. 40.

mahobatli markazi, keng maydonning kunchiqar tarafida muhtasham ark turadi. Ark darvozasidan kirganda to'g'ridagi yo'l bir ko'hna binoga eltadi. Uning qalin devorlari boy xazinani qo'riqlaydi. Bu bebaho boyliklar jam bo'lgan xazina Buxoro kutubxonasi, bu kutubxona X asrdagi mashhur kutubxonalardan biridir.

Yirik sulolaviy kutubxonalar Xorazmda ham mavjud bo'lgan. Urganchda xorazmshohlar, ma'muniylar va anushtageniylar zamonida kutubxonalar barpo etilgan. Xorazm shohi Ma'mun ibn Ma'mun kutubxonasida kitob yig'ish arablar kelishidan ancha oldin boshlangan. Bu kutubxonani boshqarishni shoh Ma'mun mashhur adabiyotshunos va tarixchi as-Solibiyya topshiradi. Xorazm shohi Ma'mun II saroyda juda ko'p olimlarni birlashtirgan "Ma'mun akademiya"sini tashkil qiladi. 1010-yillarda barcha xorazmlik olimlar qatori bu yerda Beruniy ham ishlay boshlaydi va shu yerda Abu Ali ibn Sino bilan uchrashadi. Ular shundan so'ng ancha-gacha birgalikda ijod qiladilar. Xorazmda juda ko'p ilmiy kishilar yashagan, XI–XII asrlarda bu yurtida olimlar ishlashi uchun sharoit yaxshi edi.

Mo'g'ullar istilosi arafasida Marvda o'nta yirik kutubxona bo'lgan, birgina Aziziya madrasasi kutubxonasida 12 ming jildga yaqin kitoblar saqlangan. O'rta Osiyo xalqining fan va madaniyati bir yarim asr davomida mo'g'ul istilochilari tomonidan vayron qilingan. Keyinchalik tiklanish davrida mahalliy hukmdorlar orasida sulolaviy kutubxonalar tashkil topgan, kitob xazinasini to'plash an'anaga aylangan. Ayniqsa, kutubxonachilik ishi rivojlanishiga Amir Temur va temuriylar hokimiyati yillarida katta e'tibor berilgan. Buyuk sohibqiron davrida Samarqand shahridan kitob olib chiqish man etilgan, kitoblar tengsiz boylik sifatida qo'riqlangan. Amir Temur kutubxonasidan faqat saroy vakillarigina emas, balki muayyan guruhdagi kitobxonlar ham foydalanganlar. Kutubxonadagi kitoblar fan sohalari bo'yicha ro'yxatga olinib, sandiqlarda saqlangan. Bu tartib kitoblarni hisobga olish uchun emas, balki foydalanish oson bo'lishi uchun ham o'rnatilgan. Temurdan so'ng uning noyob kutubxonasi nabirasi Ulug'bekka (1394-1449) meros bo'lib qolgan.

Amir Temur tufayli Mirzo Ulug'bek juda boy kutubxona va qo'lyozmalarga ega bo'lishiga qaramay, u saroy kutubxonalariga kitoblar sotib olish uchun juda katta mablag' sarflar edi. Kitoblarni bezash, badiiyligini oshirish uchun ham miniatyura san'atini rivojlantirishga juda katta e'tibor beradi. Xalq ommaviy san'ati, hunarmandchiligida asosan sharq ustalarining noyob mahoratiga tayanadi. Temur o'z hayotining ko'p qismini harbiy yurishlarda o'tkazadi, bunday yurishlarning ba'zilarida Ulug'bek ham qatnashadi. Safar vaqtida har narsani bilib olishga qiziquvchi yosh Ulug'bek o'ziga xos ko'chma "kutubxona"dan foydalangan. Bu jonli kutubxona bo'lib, unda tarixchilar, shoirlar, olimlar yig'ilishib, suhbat qilishar edi. Ulug'bekning otasi Shohrux Hirot hukmdori edi. Ulug'bek otasi huzuriga kelib bu yerda haqiqiy kutubxona bilan tanishadi va kitobga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Ulug'bek o'n yetti yoshida (1411 yil) bobosining dabdabali poytaxtiga voris hokim bo'ldi. Ulug'bek davrida O'rta Osiyo kutubxonachilik ishi yanada rivojlandi. Ayniqsa, Ulug'bek topshirig'i bilan 1428-1429 yillarda Samarqanddagi rasadxona qoshida tashkil etilgan kutubxona eng boy kitob fondiga ega bo'lgan.

Taxmin qilishlaricha, Ulugʻbek toʻplagan kitoblar xazinasi Pergam qoʻlyozmalaridan boshlangan. Temur Pergam shahrini bosib olganda qoʻlyozmalarni ham karvon bilan Samarqandga olib kelgan. Kutubxona Ulugʻbek davrida betinim boyib borgan. U juda bilimli boʻlib, oʻz kutubxonasida soatlab oʻtirib mutolaa qilar edi¹. Kutubxonada Platon, Gippokrat, Ptolomey, Aristotel asarlari toʻplangan va yaxshi saqlangan edi. Bulardan tashqari, bu yerda vatandoshlarimiz buyuk olim Muhammad ibn Muso Xorazmiyning algebraga doir mashhur risolasi, Abu Rayxon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Astronomiya kaliti” nomli asarlari, Al – Battoniyning astronomik jadvallari; Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” risolasi boʻlgan. Ulugʻbek yulduzlar toʻgʻrisidagi fan tarixini shu qadar oʻrganib chiqdiki, natijada oʻzi ham shu sohada ilmiy ishlar qilib, kitoblar yoza boshladi. Koʻp yillik samarali mehnati natijasida “Ziji jadidi Koʻragoniy”, “Ulugʻbek ziji” dunyoga keldi. 1018 ta yulduzning holatini koʻrsatib beruvchi mazkur asar uzoq yillar davomida eng aniq va mukammal asar boʻlib qoldi. Kitobda jadvallardan tashqari, katta muqaddima ham boʻlib, unda astronomik kuzatishlar metodikasi berilgan. Shuning uchun Ulugʻbek fan tarixiga buyuk astronom sifatida kirgan. U taxtga oʻtirgan dastlabki yillardayoq oʻz atrofiga olimlarni toʻpladi. Shulardan biri munajjim donishmand Qozizoda Rumi boʻlib, Ulugʻbek uni ustozim deb bilgan. Ulugʻbek serzavq sulton boʻlib, musiqa va tarixga ham qiziqardi. U kutubxonasining mudiri vazifasiga shogirdi Ali Qushchini tayinlagan. 1449-yilda halok boʻlgan Ulugʻbek kitoblar xazinasining bundan keyingi qismati ham Ali Qushchi bilan bogʻliq boʻlgan.

Ulugʻbek oʻqib chiqqan kitoblardan oʻz asarlari uchun iqtiboslar olgan, shuning uchun turli olimlarning asarlari uning kutubxonasining boyligi haqida maʼlum bir tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Kutubxonada filologik ishlar ham olib borilar edi. Shu yerda Firdavsiyning mashhur “Shohnoma” dostonining mukammal matni tuzilgan boʻlib, mazkur qoʻllanmada yigirmata katta ajib miniatyura mavjud. Kutubxona ustaxonasida yana bir durdona masallar majmuasi “Kalila va Dimna” ham koʻchirilgan. Mirzo Ulugʻbekning kutubxonasi sharqning noyob qoʻlyozmalari nihoyatda boy edi. Shuning uchun boʻlsa kerak, oʻz davrida ushbu kutubxona koʻpchilikning diqqat markazida boʻlib, qariyb olti asrdan beri sirli tarixni oʻz yelkasida koʻtarib yuribdi. Ushbu sirli tarixni kutubxonaning yoʻqolishi bilan bogʻliq boʻlib, uning atrofida bir necha taxminlar mutaxassislar va xalq ichida sizib yuradi. Xususan, koʻpchilik tomonidan ehtimolligi yuqori taxminlardan biri, yuqorida aytib oʻtganimizdek, Ali Qushchi bilan bogʻliq voqelik sifatida eʼtirof etilib, Mirzo Ulugʻbekning ham shogirdi, ham maslakdoshi boʻlgan ushbu tarixiy shaxs ustozining soʻnggi daqiqalarigacha u bilan birga edi. Shohruxning, oʻlimidan keyin Ulugʻbek temuriylar sulolasining yagona hukmdori boʻldi. Uning ilm bilan shugʻullanishi koʻpchilikka yoqmas edi. Ulugʻbekka qarshi fitna uyushtirildi, dushmanlar hatto uning oʻgʻlini ham oʻz tomonlariga ogʻdirib oldilar. Yaqinlashib kelayotgan fitnani sezgan Ulugʻbek

¹ Ахмедов Б.А. Улугбек и политическая жизнь Мавераннахра первой половины XV в. // Из истории эпохи Улугбека. – Т.: Фан, 1965. – С. 5-66.

hukumat tepasiga keladigan jaholat vakillari uning yaratgan ilm maskanini vayron qilishlarini bilar edi. Rasadxona yo‘q qilinish arafasida edi, ammo kutubxonani qanday bo‘lmasin saqlab qolish kerak edi. Mirzo Ulug‘bek o‘z fikrini shogirdi Ali Qushchiga bildirdi, u esa buning yo‘li borligini aytdi. Ali Qushchi Kesh qishlog‘idan bo‘lgan, shu qishloq yaqinida tog‘da ko‘plab g‘orlar borligini va o‘sha yerda kitoblarni yaxshilab berkitib qo‘yish mumkinligi aytadi. Ulug‘bek shunday qildi ham – bir necha yuz tomdan iborat kitoblar sandiqlarga joylanib, yashirin ravishda olib ketildi. Buning orasida 1449-yilda Samarqandda fojiali voqealar sodir bo‘ldi. Ulug‘bek xiyonatkorona o‘ldirildi, uning rasadxonasi vayron qilindi. Ustozining o‘limidan keyin Ali Qushchi ham Turkiyaga ketadi. Aytishlaricha, u o‘zi bilan birga kitoblarning ozgina qismini olib ketgan, qolgani esa maxfiy berkitilgan joyda qolib ketdi. Ali Qushchi Movarounnahrda boshqa qaytib kelolmadi, kitoblarning berkitilgan joyini esa faqatgina u bilar edi. Shu tariqa kutubxonaning izlari ham yo‘qoldi¹. Yana bir taxminga, ko‘ra Mirzo Ulug‘bekning saltanat kutubxonasi XVI asrda poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin. Mirzo Ulug‘bek vafoti dan so‘ng rasadxona o‘z faoliyatini ancha vaqt davom ettirgan bo‘lsa-da, keyinchalik Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida qarovsiz holatga kelib, yopilib ketgan. Aytishlaricha, Mirzo Ulug‘bek o‘limidan so‘ng, rasadxonasi vayron etilib, kutubxonasi yondirib yuboriladi. Lekin 1908-yilda rasadxona ochilib, unda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar buni tasdiqlamaydi.

Yo‘qolgan kutubxonaning izlarini qidirib topish, Rossiya imperiyasi davrida Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanning topshirig‘iga ko‘ra sharqshunos A.L.Kun tomonidan amalga oshiriladi. Asosan Samarqanddagi rasadxona atrofida amalga oshirilgan qidiruv ishlari natijasiz tugaydi. Keyinchalik, Mirzo Ulug‘bekning yo‘qolgan kutubxonasiga bo‘lgan qiziqish XX asrning 60-yillarida yana avj oldi. Tarixchi va jurnalistlar tomonidan, ushbu kutubxona Afg‘onistonda, Samarqandda va Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida bo‘lishi mumkinligi haqidagi ma’lumotlar ilgari surildi.

1963-yilda O‘zSSR FA arxeologlar va sharqshunoslardan iborat ilmiy jamoasi Mirzo Ulug‘bekning kutubxonasini izlab Kitob tumanidagi Hazrati Bashir qishlog‘iga ilmiy safarga bordilar. Lekin olimlarning asosiy tekshirish yo‘nalishi Niyoztepa tepaligi bo‘ldi, chunki aytishlaricha, kitoblar shu tepalik ostida yashiringan. Katta tosh bilan og‘zi yopilgan quduqdan Niyoztepa tagida yer osti yo‘lagi bo‘lganligini aytilgan edi. Arxeologlar faqat qadimiy turar joylar, sopol parchalari, oshxona idishlari va boshqalarni topdilar, xolos.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, Mirzo Ulug‘bek yirik davlat arbobi, madaniyat va ilm-fan yaratuvchisi hamda homiysi bo‘lib, o‘z zamonasining betakror kitobdori edi. Garchi uning kutubxonasi keyingi taqdiri ko‘pchilik uchun qorong‘i bo‘lsa-da, ushbu kutubxona o‘rta asrlarning yetuk ilm-fan oydinlarini kamolotga erishishi uchun o‘z bag‘ri ochgan. Bu kutubxona fondida nodir qo‘lyozma asarlar juda ko‘p saqlangan. Kutubxona tarixini o‘rgangan olimlarning fikri ham, rivoyatlar ham turlicha, lekin ularning hammasi bir fikrda, ya’ni

¹ Бартольд В. В. Улугбек и его время//Соч. Т. II. Ч. 2. – Москва, 1964. – С. 194.

qo'lyozmalar saqlanib qolgan, uni qidirib topib, ilmiy iste'molga kiritish bugun kun oydinlarining vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ашраф Ахмад. Улуғбек Муҳаммад Тарағай (1394-1449). – Тошкент: Халқ мероси, 1994. –Б. 40.
2. Ахмедов Б.А. Улугбек и политическая жизнь Мавераннахра первой половины XV в. // Из истории эпохи Улугбека. – Т.: Фан, 1965. – С. 5-66;
3. Бартольд В. В. Улугбек и его время//Соч. Т. II. Ч. 2. – Москва, 1964. – С. 194.
4. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi // B.Ahmedov, N.Norqulov, M.Hasanov. – Toshkent, 1994. – B. 352.
5. Самаров Х. Мирзо Улуғбек кутубхонаси афсонами?// «INFOLIB» – ахборот-кутубхона хабарномаси Информационно-библиотечный вестник – «INFOLIB» № 2 (10) 2017 й. –Б. 86-88.
6. G'oyib bo'lgan kutubxonalar haqida qiziqarli ma'lumotlar//<https://sirlar.uz/g-oyib-bo-lgan-kutubxonalar-haqida-qiziqarli-ma-lumotlar/>

QADIMGI RIMDA TA'LIM VA FANNI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

SHAHRIZODA QULDOSHEVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, dots. S. Toshtemirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Rimning ta'lim tizimi, ya'ni maktablardagi o'qish jarayoni, tasviriy san'atda insonlarni yuz ko'rinishini tasvirlanishi, adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida xalq og'zaki ijodi bilan yunon adabiy merosining ahamiyati, rimliklarning huquqi antik sivilizatsiyaning katta yutug'i va musiqaning o'ziga xosligi haqida ayrim fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Rim, logika, adabiyot, tasviriy san'at, huquq, musiqa, arifmetika, notiqlik, vintli press

Qadimgi Rimda ta'limning birinchi bosqichi maktab edi. Maktablar xususiy bo'lib, davlat ta'lim jarayoniga aralashmas edi. Maktabda asosan ishi yurishmagan, kelib chiqishi noma'lum bo'lgan kimsalar dars berar edi. Boshlang'ich maktabda 7-12 yoshdagi bolalar o'qish — yozish, og'zaki sanashga o'rgatilar, o'qish faqat bir semestrni tashkil etar edi. Keyingi o'qish esa pullik bo'lgan. O'rta maktabda olimlar, yozuvchi va adabiy tanqidchilar grammatikadan dars berar edilar. Boy oilalarda esa ko'pincha bolaga 7 yoshidan yollangan qul ya'ni pedagog dars bergan.

O'smirlar 12-16 yoshda grammatika va adabiyotni o'qitadigan maktabga borganlar. Bundan tashqari, ular logika, arifmetika, geometriya, astronomiya fanlari va musiqaning ayrim qismlarini o'rganganlar. 16 yoshdan o'smirlar notqlik san'ati bo'yicha notiq o'qituvchilardan saboq olganlar. Imperiya davrida o'qituvchilar ayniqsa, notiq-ritorlar professor deb atalgan. Rimlik notqlik san'ati o'qituvchisi Kvintilian (milodiy birinchi asr)da birinchi professor bo'lgan va 68-yildan boshlab davlat tomonidan ish haqi to'langan. Bundan tashqari Rimda tabiiy fanlar ham rivojlanib, qator ilmiy asarlar yozildi. Hattoki, Texnik bilimlarning nazariy asoslari yaratildi. Xususan, tiniq shisha kashf etilib, shishasozlik sohasi rivojlandi. Binolarni isitish tizimi yaratildi. Qurilishda sement kashf qilinib, qishloq xo'jaligida suv tegirmonlari, vintli press va hosilni o'radigan mexanizm ixtiro qilindi. I asr o'rtalarida Katta Pliniy (24–79-yillar) o'zining 37 jildli “Tabiatshunoslik” asarini yozdi. Bu asar ensiklopedik mazmunda bo'lib, fizika, geografiya, botanika, zoologiya, mineralogiya va boshqa fanlar bo'yicha ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari, fiziolog Klavdiy Galen (129–199-yillar) va akusher hamda pediatr Soran ham o'z asarlari bilan bu davrda shuhrat qozondilar. Avl Korneliy Sels o'zining “Fanlar” asarida dehqonchilik, ritorika, harbiy ish va tibbiyot to'g'risida turli ma'lumotlarni to'plagan¹.

Rim tasviriy san'atidan bizgacha ko'pgina haykaltaroshlik namunalari (relyef, portret, mavzuli kompozitsiyalar) saqlanib qolgan. Rimliklarning portret san'atidagi yutuqlari, ayniqsa kattadir. Respublika davrida realistik portret rivojlandi va antik dunyo san'atida yetakchi o'rinni egalladi. Bunga, birinchidan, Rim amaldorining o'z portret va haykallarini ijtimoiy joylarga qo'yish imtiyozini bo'lsa, ikkinchidan, ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lganligida edi. Bunday haykal-portretlar toshdan ishlangan bo'lib, ko'mish marosimi vaqtida marhumning tobuti ortidan ko'tarib olib borilgan. Rim imperatorligi davrida hukmdorlar va ularning kuch-qudratini ifodalash san'atkorlarning asosiy vazifasi bo'lib qoldi. Shuning uchun ham san'atkorlar o'z asarlarida imperatorlarni o'ziga o'xshatish bilan bir qatorda, uni ongli ravishda ideallashtirishga intila boshladilar. Oktavian Avgust haykalida shu intilishlar o'z ifodasini topdi. Haykalda u sarkarda va davlat arbobi sifatida tasvirlanadi. Haykalda yuz ko'rinishi Avgustning o'ziga o'xshatilgan, lekin haykaltarosh obrazni ideallashtirib, uning ko'rinishiga mardlik, jasurlik va sof vijdonlilik baxsh etadi. Shunday qilib, u Rimning ideal fuqarosi obrazini yaratadi. Bundan tashqari, bu davrda tanqidiy realizm yetakchi o'rinda rivojlangan. Haykaltarosh tashqi effekt va dabdabalikka e'tibor bergan holda, yaratilgan obrazning xarakterini ochiq oydin ochib tashlashga harakat qiladi. Bu xususan Neron portreti muhim ahamiyatga egadir. Keyingi davrlarda ham portret san'atida jiddiylik o'rnini nafislik, charchagan holatni ochishga intilish, mushohadali shaxslar tasvirini ishlashga intilish hollari kuzatiladi. Bu davr portretlaridagi odamlar birmuncha insonparvar, lekin cho'chiganroq, g'amgin holatda tasvirlanadi. Chunonchi, “Suriyalik qiz” haykalidagi qarash va turishidagi g'amginlik haykaltarosh tomonidan ustalik bilan tasvirlangan. III asr Rimda portret san'atining haqiqiy rivojlangan davridir. Bu davrdan boshlab,

¹ Ravshan Rajabov. Jahon tarixi. Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim. T-2015. 582-b.

haykaltaroshlar avvalgi mavjud an'analardan voz kecha boshlaydilar. Endilikda kuch-g'ayrati toshib yotgan, janglarda toblangan, hukmdor, qattiqqo'l shaxslar qiyofasi keng o'rinni egallay boshlaydi¹.

Rimliklar nafaqat askar xalq, balki quruvchi va me'mor, muhandis hamda huquqshunos bo'lganlar. Imperiya davrida esa adabiyot juda ham yaxshi rivojlangan edi. Shoirlar orasida esa "Enaida" epik dostonining muallifi Vergiliy (mil.avv 70-19 yy) eng ko'p mashhur bo'lganlardan edi. Bundan tashqari, Goratsiy Flak va Ovidiy Nazonlarning she'rlari mukammallik jihatidan yetakchi o'rinda turardi. Imperiya davrida esa Rimda she'riyatning oltin davri bo'ldi. 16 ta satira yaratgan satirachi Yuniy Yuvinalning asarlari, bundan tashqari hozirgi kunda ham o'quvchilar e'tiborida bo'lgan o'ziga xos fantastik roman "Metamorfoza" yoki "Oltin xo'tik" asari muallifi Apuley o'z san'at asarlari bilan mashhur bo'lgan².

Asosan, Rim adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida xalq og'zaki ijodi hamda yunon adabiy merosi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Rim badiiy adabiyotining rivojlanishi Liviy Andronikdan boshlangan. Dastlab u yunon dramalarini tarjima qilish va badiiy qayta ishlash bilan shug'ullangan. Uning zamondoshlari Neviiy va Enniylar esa shoir bo'lgan. Giney Neviiy Rim syujetlariga asoslangan holda 1-tragediyalarni yaratgan hamda yunon syujetlaridan o'zlashtirib dramalar yozgan. Kvint Enniy esa Rim tarixiga bag'ishlangan 18 jilddan iborat "Annalar" epik poemasini yozgan va bu shoirdan 1100 dan ortiq she'rlar meros bo'lib qolgan. Rimdagi 1-komediografi Tit Maktsisy Plavt bo'lib, uning 130 ta komediyasidan 21 tasi saqlanib qolgan. Ikkinchi buyuk Rim komediografi Publiy Terensiy Afrikalikning pyesalaridan 6 tasi bizgacha yetib kelgan. Rimda eng keng tarqalgan adabiy janr satira bo'lib, unga asosan quyidagilar kiradi:

1. she'r
2. masal
3. latifa

4. dialoglar aralashmasidan iborat bo'lgan edi. Birinchi Rim satirigi Gay Lutsiliy 30 ta kitobdan iborat satiralar to'plamini yozgan.

IV asr ritorika-notiqlikning yangidan gullab-yashnagan davri bo'ldi. Antik O'rtayer dengizining notiqlik maktablarida bo'lg'usi oliy amaldorlar va xristian targ'ibotchilari tarbiyalandi. Bu davrda Afinada Gimeriy, Konstantinopolda Femistiy kabi mashhur ritorlar dars berganlar. Eng kuchli notiq va notiqlik san'atining o'qituvchisi Libaniy bo'lgan. Libaniy "Kichik Demosfen" taxallusini olgan. IV-V asrlarda poeziyada klassik namunada asarlar yaratish an'anaga aylandi. Bu davrning eng mashhur mifologik eposiga Panapolis ellinlashgan misrlik Nonning Dionis to'g'risidagi dostonini aytish mumkin. Bu asar boy fantaziya, ifodali obrazlarga ega bo'lib, epik tarzda yozilgan. IV-V asrlarda lotin shoirlari mifologiyadan tashqari tabiatni tasvirlashga ham jiddiy e'tibor berdilar.

¹ T.R. Pardayev. Jahon sivilizatsiyalar tarixi. TerDU NMM nashriyoti Termiz – 2022.179-b.

² D.J. Urakov, A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov. Jahon tarixi I tom II qism, Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi. T-2023. "Metodist nashriyot". 351-b.

Xuddi shunday lotin shoirlaridan biri Detsim Magin Avzoniy edi. U tajribali ritorik, yunon, lotin tillarini va adabiyotini yaxshi bilgan, salohiyatli shoir bo'lgan edi. Shu tariqa Rimda adabiyotning turli sohalari rivojlangan edi. Rim huquqi antik sivilizatsiyaning eng katta yutuqlaridan biri bo'ldi. Rim tarixida huquqiy normalardan keng foydalanilgani uchun ham 12 ta qonunlar jadvalini yaratilgan. Er. avv. 366-yilda xususiy kishilar o'rtasidagi huquqiy qarama-qarshiliklarni tartibga solish maqsadida Rimda shahar pretori lavozimi joriy etilgan I-III asrlar Rim huquqi tarixi davrida klassik davr hisoblanadi. Rim imperiyasida 212-yilgacha huquq va sud amaliyotini ikki shakli kvirit (Rim) huquqi va xalqlar huquqi mavjud edi. II asrning ikkinchi yarmida Gay 4 jildidan iborat huquq darsligi (institutsiyalar) to'plamini tayyorladi. II asr oxiri III asrning boshlarida mashhur huquqshunoslar Emiliy Papinian, Domitsiy Ul'pian va Yuliy Pavellar faoliyat ko'rsatganlar. 429-438 yillar imperator Feodosiy II ning buyrug'i bilan "Feodosiy kodeksi" nomida imperator qonunlari to'plami tayyorlandi, 529-yilda "Yustinian kodeksi", 533-yilda "Digetslar" rim huquqshunoslarining asarlaridan olingan ma'lumotlar to'plami 50 jildda e'lon qilingan¹.

Ellinizm madaniyati ta'sirida Rim musiqasida g'alaba bilan bog'lik tarzda tantanavor to'y, ziyofat, diniy-marosim qo'shiqlari bo'lgan. Rimga asosan ko'p mamlakatlardan ijrochilar to'plangan. Rimning cholg'u musiqasi rivojida teatr janri ya'ni pantomima muhim rol o'ynagan. Sirk va teatr aktyorlari katta xor ansambllari, orkestrlar jo'rligida katta sahna maydoniga chiqishgan. Rimda va Italiyada musiqa, ashula va raqs Yunonistonga nisbatan juda sust rivojlangan edi. Chunki rimliklarning tasavvuricha, ozod bo'lgan rimlik faqatgina siyosat, harbiy ishlar, davlatni boshqarish bilan shug'ullanishi kerak degan xulosa bo'lgan. Biroq, ular dehqonchilik bilan shug'ullanishni ma'qullaganlar. Lekin san'at, ijod bilan shug'ullanishni ular o'zlariga or deb bilganlar va bu faoliyat bilan asosan pastroq tabaqali odamlar, xususan, kelgindilarning ishi bo'lishi kerak, deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham sozandalar ko'pincha Rimdan haydab yuborilardi, raqslarga tushgan zodagonlarga ham bu ish qullarning mashg'uloti bo'lishi kerak deb nafrat ko'zi bilan qarardilar².

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Rimda ta'lim va fan o'ziga xos tarzda rivojlangan edi. Rimliklarga barcha fanlar o'tilgan ekan, biroq ularga darsni ozod bo'lgan zodagonlar emas, kelib chiqishi noma'lum bo'lgan qullar dars o'tganlar. Rimliklarda asosan, harbiy ishlar, siyosat, davlatni boshqarish bilan shug'ullanganlarni qadrlaganlar. Bundan tashqari adabiyotda notiqlik, satira va tragediya san'ati ham yaxshi rivojlangan edi. Shu tariqa, Rimda barcha fanlar o'ziga xos tarzda shakllanib rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ravshan Rajabov. Jahon tarixi. Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim. T-2015. 582-b.

¹ R. Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi (Sharq, Yunoniston, Rim). T-2009. 417-420-b.

² Ё. Туропов. Кадимги Юнонистон ва Рим тарихи. "Навруз" нашриёти. Т-2013. 54-б.

2.T.R. Pardayev. Jahon sivilizatsiyalar tarixi. TerDU NMM nashriyoti Termiz – 2022.179-b.

3.D.J. Urakov, A.A.Biykuziyev, B.B.Xaynazarov. Jahon tarixi I tom II qism, Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi. T-2023. “Metodist nashriyot”. 351-b.

4.R. Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi (Sharq, Yunoniston, Rim). T-2009. 417-420-b.

5. Ё. Туропов. Кадимги Юнонистон ва Рим тарихи. “Навруз” нашриёти. Т-2013. 54-б.

TURKLARNING ETNIK KELIB CHIQISHI VA TURK MILLATINING SHAKLLANISHIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

RUXSHONA OBIDOVA

TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti

Turkiya tarixi yo‘nalishi,

turk-ingliz guruhi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: I. Xudoynazarov

Annotatsiya: Ushbu maqola turklarning Markaziy Osiyodan boshlab, Anadolu yarim oroligacha bo‘lgan etnik kelib chiqishini o‘rganadi. Bu uzoq davom etgan jarayonda turkiy xalqlarning va boshqa xalqlar o‘rtasida davom etgan qizg‘in etnik almashinuv, turklarning etnik va turk millatining yagona irq va madaniyatga birlashib, shakllanishi o‘rganildi. Turkiya Respublikasi va Markaziy Osiyo respublikalari xalqlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan etnik, madaniy, antropologik va lingvistik tafovutlar, qo‘shni xalqlar bilan kuchli etnik qorishish bilan bog‘liq hamda uzoq muddatli hokimiyatlar natijasida o‘rnashib qolgan xalqlar va mahalliy xalqlar munosabatlari tarixi ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: Lozanna shartnomasi, Antoni Smit, “Turk ulusi”, “qabilalar timsoli”, “sof turklar”, genetik tadqiqot, etnologik o‘xshashlik.

Bugungi dunyoga nazar tashlaydigan bo‘lsak, individual va ijtimoiy mansubliklar, shu nuqtai nazardan etnik mansubliklarning ijtimoiy va siyosiy hayotda qanchalik muhim rol o‘ynashini bemaolol ko‘rishimiz mumkin. Bir qarashda etnik mansublikka asoslangan nizolar rivojlanmagan mamlakatlarga xos muammodek tuyulsa-da, bu muammo Ispaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Fransiya va hatto, AQSh kabi mamlakatlarda ham dolzarbligicha qolayotganini kuzatish qiyin bo‘lmasa kerak. Rivojlanmagan mamlakatlarda etnik (ba‘zan diniy va mazhablararo) nizolar ancha qattiqroq va qiyin kechishi, rivojlangan davlatlar segregatsiyaga ya‘ni biron irq va etnik guruhni chegaralangan hududga majburlab yoki, ixtiyoriy yo‘l bilan ko‘chirish emas, balki iqtisodiy integratsiyaga yo‘naltirilganligi haqiqat bo‘lsada, bu mamlakatlarda etnik segregatsiya va boshqa muammolar davom etmoqda. Usmonlilar davrini ham qo‘shadigan bo‘lsak, Turkiya Respublikasi tashkil topgan yillaridan boshlab kamida 150 yildan beri etnik mansublik muammosini va bu muammoning qonli oqibatlarini, jumladan, tortishuvlarni boshdan kechirmoqda. Bular sirasiga aytishimiz mumkin

bo'lgan: Kurdlar muammosi, 2015-yilda yuz yoshga to'ladigan, ammo ildizlari 1890- yillarga borib taqaladigan Arman muammosi, Lozanna shartnomasi qoidalariga muvofiq rivojlangan Anadolu yunonlarining almashinuv va deportatsiya muammosi, 1920-yillarning boshida boshlangan va 1970-yillarga qadar davom etgan nasroniylarining Anadolu hududidan chiqib ketishi, laz, gruzin, lo'lim, cherkes va boshqa fuqarolarga nisbatan qo'llanilgan assimilyatsiya siyosati va bu siyosatlariga bo'lgan munosabat bugungi Turkiyaning siyosiy-ijtimoiy hayotini belgilab beruvchi eng muhim muammolaridandir¹.

Biz ko'p marotaba millat, elat haqida e'tirof etdik. Shotlandiyalik ingliz tadqiqotchisi Antoni Smitning millatga bergan ta'rifi umume'tirof etilgan ta'riflardan biridir. "Bir hududda tarixan yashovchi, umumiy afsona va xotiralarga ega, ommaviy madaniyat va yaxlit iqtisodiyotga ega bo'lgan, ularni tashkil etuvchi shaxslarga umumiy huquq va majburiyatlarni ta'minlovchi xalqlar jamoalari millatlar deb ataladi". Antoni Smit etniklikni belgilashda "millat" tushunchasiga ishora qiladi. "Til, dialekt, muhim urf-odat, an'ana va irq kabi xususiyatlariga ko'ra boshqa millatlardan farq qiladigan guruhlar etnik guruhlar deb ta'riflanadi. Etnik mansublik subyektiv o'ziga xoslikdan tashqari, teng maqom talabini ham o'z ichiga oladi". Agar etnik guruh o'z sa'y- harakatlari asosida siyosiy harakatlar orqali o'z etnik guruhining umumiy huquqlariga erishsa va uni himoya qilishga muvaffaq bo'lsa, u etniklikdan tashqariga chiqadi va milliylik bosqichiga yetadi².

Turk milliy o'zligi va Markaziy Osiyoda tarix davomida vujudga kelgan "Turk davlatlari" tarixchilar o'rtasida hamisha bahs mavzusi bo'lib kelgan. Bu yerda, biz avvalo, tez-tez qo'llaniladigan "Markaziy Osiyo" va "O'rta Osiyo" tushunchalarini tahlil qilsak. "O'rta Osiyo" atamasi ruslar tomonidan kiritilib, kichik hudud sifatida Qozog'istondan ayro ko'rsatilgan, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'istonning janubiy viloyatlarini qamrab olgan va sharq-g'arb yo'nalishida Kaspiy dengizidan Sirdaryo (Sayhun)gacha cho'zilgan joylarni o'z ichiga olgan. Markaziy Osiyo kengroq tushuncha bo'lib, yuqorida aytib o'tilgan davlatlar hududidan tashqari Qozog'iston, Afg'oniston, Janubiy Sibir, Sharqiy Turkiston va Mo'g'ulistonni o'z ichiga oladi. Ayrim tarixchilarning aytishicha, turklar tarix davomida bu hududda xunlar, ko'kturklar, uyg'urlar, qarluqlar, o'g'uzlar va boshqa turkiy qabilalar bilan birga istiqomat qilib kelgan. Ular ko'plab davlatlar barpo etganliklarini va bu davlatlarning barchasiga tarix davomida yagona xalq sifatida mavjud bo'lib kelgan "turk ulusi" tomonidan asos solinganini da'vo qiladilar. Boshqa turk tarixchilari esa, bu fikrga qarshi bo'lib, Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan qabila jamiyatlarida hech qachon turkiy o'ziga xoslik bo'lmagan, bu qabila jamiyatlari tomonidan tashkil etilgan "Turk davlatlari" aslida davlat emas, balki turklar, mo'g'ullar va boshqalar bo'lganligini ta'kidlaydilar. Markaziy Osiyodagi yevropaliklar, ular Yevropa xalqlari tomonidan tuzilgan va hech qanday milliy o'ziga xoslikka asoslanmagan qabila konfederatsiyalari deyishadi. Bugungi kunda Turkiya Respublikasida yashovchi

¹ Hamza Eroğlu, İnkılâp Tarihi, V baskı, Ankara 1977, s. 4-6

² Sabahattin Selek, Milli Mücadele, Anadolu İnkılapları, II baskı, İstanbul 1963, s. 117.

turklarning etnik kelib chiqishi haqida tarixchilar orasida ham xuddi shunday bahs davom etmoqda¹.

Birinchi fikrga ko'ra, bugungi kunda Turkiya Respublikasida yashovchi aholining asosiy qismi Markaziy Osiyodan ko'chib kelgan. Anadolu turklari bilan Markaziy Osiyo turklari o'rtasida tub farq yo'q.

Ikkinchi fikrga ko'ra, Markaziy Osiyodan Anadolu va O'rta Yevropaga ko'chib kelgan va ko'p asrlik jarayon davomida boshqa etnik guruhlar bilan tinimsiz aralashib ketgan bu odamlarni turkiy deb ta'riflash katta xatodir.

Shu o'rinda bizda bir savol tug'ilishi mumkin. Kimlarni turklar deymiz? Turklar deganda faqat, Turkiya Respublikasi fuqarolarini nazarda tutadigan bo'lsak, Bolqondan Xitoygacha bo'lgan mintaqada yashab, "turkiy" tillarda so'zlashuvchi barchani istisno qilamiz. Turkiya Respublikasiga hech qanday aloqasi bo'lmagan, etnik jihatdan "turk" bo'lgan qoraxoniylar, ko'kturklar va boshqalar shular jumlasidandir. Bu yerda qiladigan ikkinchi xatomiz, Turkiya Respublikasi fuqarosi bo'lgan, ona tili turkiy bo'lmagan, o'zini turk deb ta'riflamagan har bir kishini turk deb qabul qilishdir. Boshqa tomondan turkiy so'zni keng ma'noda ishlatadigan bo'lsak, bolgarlardan tortib yoqutlargacha turkiy kimligiga kam e'tibor beradigan xalqlarni turk deb ta'riflashga majbur bo'lamiz². Bundan ko'rinib turibdiki, bu masalaga har kim har qanday yondashadi va bu mavzuda beriladigan javoblar javob bergan odamlarning siyosiy pozitsiyalari bilan chambarchas bog'liq.

Avvalo millat haqida so'z borar ekan shuni ta'kidlash kerakki, etnik, irq va millat tushunchalari turli xil ma'nolarga ega. Xalqlar turli etnik guruhlardan va agar kerak bo'lsa, irqlardan iborat. Hozirgi ma'noda millatni belgilovchi ikkita asosiy unsur mavjud: O'ziga xoslik va ona tili. Turkiyada 1970-yilgacha aholini ro'yxatga olishda qo'yilgan ona tili savoli, shu yildan boshlab taqiqlangan. Ammo, xorij va ichki manbalardan olingan natijalarga ko'ra, bugungi kunga kelib Turkiya Respublikasi chegaralarida yashovchi aholining taxminan 75 foizi o'zini turk deb ta'riflaydi va ona tilini turkcha deb aytadi. Bugungi kunda ular dunyoda turli etnik va irqiy kelib chiqishiga qaramay, sotsiologik jihatdan turk millatining mavjudligi inkor etilmaydigan haqiqatdir. Turkiya Respublikasida yashovchi va o'zini turk deb ta'riflagan ayrim xalqlarning ajdodlari XI-XV asrlarga to'g'ri keladi. Ma'lumki, ular XVIII- XIX asrlarda Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyodan ko'chib kelgan turkiy tilli qabilalardan bo'lgan. G'arbiy turklarni tashkil etgan Anadolu, Bolqon va Yaqin Sharq turklari bilan Markaziy Osiyo, Xitoy Turkistoni va Shimoliy Afg'onistonni o'z ichiga olgan Sharqiy turklar o'rtasidagi yaqin aloqalar Temuriylar istilosidan keyin, ya'ni taxminan 550 yil davomida to'xtagan. Shunga qaramay, bu ikki guruh o'rtasidagi til, madaniy va tarixiy umumiy xususiyatlar hozirga qadar mavjud. Shubhasiz, o'tgan 550 yil bu guruhlar o'rtasidagi tafovutlarni sezilarli darajada oshirdi. Ozarbayjon

¹ Mehmet Kaplan, Atatürk'ün Başarısının Nedenleri, Koşullar, Yorum, Amaç, İnançlar, Kararlar ve Eylemler, Atatürk'e 100. Yıl Hediyesi. O. Edebiyat Fakültesi, İstanbul 1981, s. 15-19.

² Doğan Avcıoğlu, Türk Tarihi, s. 191-192. Mustafa Akdağ. Jelali İsyanları (Ankara: Medya İzleme Merkezi, 1963), s. 250-254.

Respublikasida yashovchi ozarbayjonlik turklar bilan Eron Ozarbayjoni va Anadolu turklari o'rtasidagi o'xshashlik tarix davomida ozgina bo'lsada davom etgan madaniy aloqalar tufayli ko'proqdir.

Bugungi kunda jahon turkologiya adabiyotida Anadolu va Bolqon turklari uchun "turk" so'zi, ayniqsa, Markaziy Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar uchun turkiy so'z ishlatiladi¹. Markaziy Osiyoda qoraxoniylar davrigacha (840-1212 yillar) tashkil topgan ko'chmanchi imperiyalar juda qisqa umr ko'rgan, ularning asosiy aholisi turkiy tillarda so'zlashuvchilardan iborat bo'lgan. Keyinchalik turklarning etnik kelib chiqish haqidagi olib borilgan genetik tadqiqotlarda batafsil ko'rib chiqishga harakat qilgan demografik, etnik tuzilma va migratsiya tufayli Turkiya Respublikasi geografiasini tashkil etuvchi Anadolu, Frakiya, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Bolqon, Yevropa va Shimoliy Afrikani tarix davomida ko'rganmiz. Anadolu "qabilalar timsoli" ekanligi ham xuddi shu sabablarga ko'ra yaqqol ko'rinib turibdi². Markaziy Osiyo ham ba'zilar o'ylagandek "sof turklar" yashaydigan mintaqada ekanligi xulosasidan yiroq. Markaziy Osiyo Anadolu kabi bo'lmasa-da, keng etnik xilma-xillikni namoyon etadi. So'nggi yillarda, ayniqsa, genetika sohasidagi inson genini tahlil qilish, insonlar o'rtasidagi etnogenetik munosabatlarni ochib berish bo'yicha tadqiqotlar sezilarli darajada tezlashdi. Anadolu va Markaziy Osiyoda ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarini mavzuyimiz bilan yaqin aloqada bo'lganligi sababli quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin: Anadoluda olib borilgan barcha tadqiqotlar mintaqaning aholisini juda xilma-xil ekanligini ko'rsatadi. Genetika nuqtai nazaridan va genetik jihatidan Yaqin Sharqqa o'xshashligi aniqlangan. Bu Turkiyadagi turklarning Kavkaz va Bolqondagi qo'shnilari bilan ko'p umumiy jihatlari borligini ko'rsatadi. Anadolu Turkiya va Markaziy Osiyo o'rtasidagi genetik o'xshashlik tadqiqotga ko'ra 8% dan 30% gacha o'zgarib turadi. Markaziy Osiyo mintaqasida olib borilgan tadqiqot Oksford va London universitetlari tomonidan birgalikda o'tkazildi, ammo uning batafsil natijalari hali nashr etilmagan. Anadolu turklarining genofondida mo'g'ullarning ulushi 8%, o'zbeklarda 39%, uyg'urlarda esa 50% ekanligini aniqlangan³.

Xulosa qismiga kelsak, turkiy xalqlarning etnik shakllanishi uzoq vaqt davom etgan murakkab tarixiy jarayon ekanligini guvohi bo'ldik. O'sha davrda ayni hududda yashab kelgan millat, elatlarning shakllanishi, diniy tafakkurlariga davrlar o'tishi bilan o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu shak-shubhasiz biz o'zbek etnologiyasiga ham bevosita ta'sir etgan. Bunga ularning tashqi qiyofasidagi o'xshashliklarini ham aytib o'tishimiz joiz. Bundan ko'rinib turibdiki, turk xalqi azaldan turkiy qardosh xalqlar bilan ham etnik, ham diniy jihatdan azaliy bog'liqdir. Yuqorida ularning geografik kelib chiqishini ko'rib o'tdik va ularning tarixiy ildizi murakkab, ko'p ildizli ekanligini o'rgandik. Hatto ularning ta'siri,

¹ Türkiye İstatistik Kurumu'nun "İstatistiksel göstergeler- 1923-1990", Ankara, 1995. s. 5-49. Ayşe Adı, Ulus Devlet Göçü. Eylem (2014), s. 5-9.

² Mustafa Kemal Atatürk'ün Anıları, (1914-1918), Editör: Faik Rıfkı Atay, Ankara. 1965. S. 21-22.

³ Doğan Avcıoğlu, Türk Tarihi, s. 191-192. Mustafa Akdağ. Jelali İsyanları (Angara: Medya İzleme Merkezi, 1963), s. 250-254.

etnik jihatdan Xitoygacha bo'lgan hududga yoyilgan, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari bilan chambarchas birlashgan. Genetik tadqiqot nuqtai nazaridan ham turk xalqi boshqa turkiy xalqlar bilan bir qancha umumiy va o'xshash jihatlarining borligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: 2001. 245 b.
2. Asqarov A. O'zbekiston tarixi (Eng qadimgi davrlardan eramizning V asrigacha). – Toshkent, 1994. 123-bet.
3. Hamza Eroğlu, İnkılâp Tarihi, V baskı, Ankara 1977, s. 126.
4. Sabahattin Selek, Milli Mücadele, Anadolu İnkılapları, II baskı, İstanbul 1963, s. 317.
5. Mehmet Kaplan, Atatürk'ün Başarısının Nedenleri, Koşullar, Yorum, Amaç, İnançlar, Kararlar ve Eylemler, Atatürk'e 100. Yıl Hediyesi. O. Edebiyat Fakültesi, İstanbul 1981, s. 112.
6. Doğan Avcıoğlu, Türk Tarihi, s. 191-192. Mustafa Akdağ. Jelali İsyamları (Ankara: Medya İzleme Merkezi, 1963), s. 250-254.
7. Türkiye İstatistik Kurumu'nun "İstatistiksel göstergeler- 1923-1990", Ankara, 1995. S. 145.
8. Mustafa Kemal Atatürk'ün Anıları, (1914-1918), Editör: Faik Rıfki Atay, Ankara. 1965. S. 216.
9. Doğan Avcıoğlu, Türk Tarihi, s. 191-192. Mustafa Akdağ. Jelali İsyamları (Ankara: Medya İzleme Merkezi, 1963), s. 250-254.

O'ZBEKISTON HUDUDIDA KUSHON DAVRIGA OID ARXEOLOGIK QAZILMA ISHLARI

QUNDUZ ISLAMOVA

Chirchiq davlat pedagogika

Universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika

Universiteti tarix fani o'qituvchisi M. Sadullayeva

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimiz tarixidagi kushonlar davriga oid eng muhim arxeologik manzillar, ulardan topilgan ashyoviy manbalar haqida so'z boradi. Tarixiy faktlarning ahamiyati, ular ustida ishlagan olimlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Kushonlarning muhim shaharlari, shahzodalar saroylari topilgan manzilgohlar haqida ma'lumotlar joy olgan.

Kalit so'zlar: Kushonlar, Baqtra, Ayritom, Dalvarzintepa, buddaviy ibodatxona, ekspeditsiya, arxeologik tadqiqot ishlari.

Yurtimizda qadimiy davlatlar tarixini o'rganar ekanmiz ularning arxeologik topilmalarini izlab topish katta ahamiyatga ega. Chunki manbalar yetarli

bo'lmaganligida bizga arxeologik topilmalar, qadimgi shaharlarning qoldiqlari, qimmatbaho tangalar va boshqa ko'plab faktlarni va savollarga javoblarni taqdim etadi. Arxeologik tadqiqotlarning muhim ahamiyatini anglagan holda kushonlar davriga oid bo'lgan shu paytgacha ma'lum bo'lgan arxeologik yodgorliklar o'rganishga olimlar katta qiziqish bildiradilar. Shu kunga qadar ko'plab ekspeditsiyalar uyushtirilgan bo'lib, ular asosan kushonlarning mashhur shaharlari, juda ham boy saroylari, ibodatxonalari kabi inshootlarning qoldiqlarini o'rganish, ularni qog'ozda qayta tiklab asosiy ko'rinishlarini o'rganish asoslari va me'morchiligini, davlatchilikning kuch-qudrati nazaridagi ahamiyatida me'morchilikning rolini aniqlash va obidalarining qaysi usulda qaysi diniy yoxud dunyoviy bilimlarga asoslangan holda bunyod etilganligini aniqlash uchun ko'plab ishlar olib borilgan.

Kushonlar davrida mintaqa madaniy hayotida quruvchilik, bunyodkorlik ishlari yuksak darajada taraqqiy etganligini So'g'diyona, Xorazm, Baqtriya, Toshkent, Farg'ona, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindistonda olib borilayotgan arxeologik qazishmalar natijalarini ko'rib xulosa chiqarish mumkin. Shu ma'noda Tuproqqal'a (Xorazm, III asr) devoriy suratda va Ayritomdagi (Termiz, I-II asrlar) qadimgi bino devorlari hoshiyasidagi toshdan o'yib ishlangan manzarada chiltor chalayotgan ayol tasvirlanganligi diqqatga sazovordir¹. Bu kabi topilmalar yurtimiz hududidan ko'plab topilgan bo'lib, ularning ilmiy va madaniy ahamiyati butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan.

Kushonlar davrida o'sha davr arxitekturasidan kelib chiqqan holda shaharlar mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Shaharning shahriston qismi ham devor bilan o'rab olinganligiga guvoh bo'lamiz. O'z navbatida shahristonda turli tabaqa vakillarining uy-joylari, qo'rg'onlari, ibodatxonalar qoldiqlari topilgan. Yana bir jihati kulollar mahallasi, ishlab chiqarish muassasalari kabilar ham o'rin olgan bo'lib, ular alohida mavzelarga ajratilgan.

Har bir davlat o'z taraqqiyot cho'qqisiga chiqar ekan bu avvalo qurilish inshootlarida o'z aksini namoyon etadi. Aholining bu davrga kelib o'troqlashish jarayonidan juda ham jadallik bilan kechdi. Bunda dehqonchilik manzilgohlarini barpo etish, yangidan aholining istiqomat qiluvchi shaharlarini qurish, ularni diniy ibodatxonalar va manzilgohlar bilan ta'minlash va kushonlarning kuch qudratini o'zida aks etuvchi shohona saroylarni qurish kabi me'morchilik ishlari juda ham jadallashib ketganligiga guvoh bo'lamiz.

Qadimgi Baqtriya viloyatiga qarashli hududlarda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarga qaraganda bu yerda Kushon davriga oid ko'plab shahar va qishloqlarning xarobalari saqlanadi. Ayniqsa Shimoliy Baqtriyadagi Xolchayon, Dalvarzintepa, Zartepa, Yavon, Qadimiy Termiz va uning yaqinidagi Qoratepa, Fayoztepa, Ayritomda va Janubiy Baqtriyada Surxko'tal va Dilbarjinda o'tkazilayotgan qazish ishlarining natijalari diqqatga sazovordir² Bu qazish ishlari baqtriyaliklarning kushonlar davridagi ijtimoiy hayoti iqtisodiy va maishiy turmush madaniyati diniy tasavvurlari kasblari to'g'risida ma'lumotlar olish

¹ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchilik tarixi. Sharq. Toshkent-2000. 70-bet.

² Shokirjon Pidayev. Sirli Kushonlar davlati. Fan. Toshkent-1990. 9-bet.

maqsadida o'rganilib borilmoqda. Baqtriyada eng qadimgi haykallar namunasi Xalchayon saroyda topilgan. Xolchayon Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan bo'lib, qismdan iborat arxeologik tadqiqotlar Qorabog'tepa va Xanoqotepada olib borildi. U yerdan 9 xonalik hokim saroyi topildi. U asosan xom g'ishtdan topilgan qurilgan mazkur saroyining 4 ustini ayvoni va katta zali tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan haykallarning asosiy qismi kushon podsholariga bag'ishlangan. Ular tarkibida yechujiylar bilan birga boshqa etnos vakillari baqtriyaliklar ham bor. Xolchayon haykallari saroy devorining uch tomonini egallagan¹. Xolchayondan topilgan haykallarning ramzlariga e'tibor berar ekanmiz ular asosan yunon haykaltaroshliklarining qoidalariga rioya qilgan holda yaratilganligiga guvoh bo'lamiz. Oliy tabaqa vakillarining estetik qarashlari, ichki dunyosini o'zida yorqin ifodasini topganligi bilan ajralib turadi. Qolaversa yunon haykaltaroshligi o'sha zamondagi eng taraqqiy etgan maktab bo'lib Yunon-Baqtriya podsholigida ham keyinchalik Kushonlarda ham bu an'ana davom etib kelgan.

Kushonlar davriga oid yana bir arxeologik yodgorlik Ayritomdir. O'zida ko'plab sirlarni jamlagan, bir qancha ekspeditsiyalar uyushtirish natijasida o'z sirlarini ochayotgan bu yodgorlik ham Surxondaryo viloyatida joylashgan. Ayritom Termizdan 18 km sharqda Amudaryo sohilida joylashgan. 1932 yilda bu yerda topilgan tosh rasmlarni Masson o'rgangan. 1933-yilda maxsus ekspeditsiya uyushtirildi. Ayritom ibodatxona xarobasi bo'lib bu yerda asosan ohaktoshdan yasalgan haykallar topildi. Ana shu haykallardan eng mashhurlari bu uch sozandaning haykallaridir karnizning bir tomonida yuzini sal unga burib turgan va chiltor chertayotgan kulcha yuzli ko'zlari katta, qoshlari tutash, qirra burunli, lablar qalin yosh ayolning haykali tasvirlangan. Ayolning egnida qimmatbaho kiyim, quloqlarda sirg'a, qo'llarida bilakuzuk marjonlar bor. Torga o'xshash cholg'u asbobini chalayotgan ikkinchi ayol biroz chapga qarab turgan holda tasvirlangan. Uning egnidagi kiyim birinchi ayolning egnidagi kiyimdan o'zining odmimligi bilan ajralib turadi. Qo'llarida bilak uzuk bor quloqlarida siriga bor yo'qligi esa bilinmaydi². Chunki ahamiyatli tomoni ayolning boshi ro'mol bilan o'ralgan. O'ralish uslubi esa juda ham diqqatni tortadi. Ro'molning bir uchi orqaga tashlangan bo'lsa, ikkinchi uchi ayolning yelkasi va qo'lining yuqori qismini yopib turadi bu ikki ayol oralig'idagi akant yaprog'i tasvirlangan yaproq uchi oldinga biroz egilgan holatda tasvirlangan. Uchinchi haykalda g'abla chalayotgan yosh sozanda tasvirlangan. Qiziqarli tomoni shundaki, sozandaning yigit yoki qiz ekanligini haykalga qarab aniqlash qiyin. Uning yuzi dumaloq, ko'zlari katta, qovoqlari solingan, qoshlari tutashib ketgan, sochlari kalta va jingalak sozanda labida kulgi uchlari joylashgan. Bu sozandani quloqlarida ham sirg'a, qo'llarda bilakuzuk, bo'ynida marjonlari bor. Bu kabi noyob tasvirlangan haykallar butun dunyo arxeologiya tarixida juda kamyob bo'lib, ularning puxta ishlanganligi, hozirgi kunga qadar yaxshi saqlanganligi e'tiborni tortadi.

¹ N. A. Egamberdiyeva. Arxeologiya. Toshkent-2011. 109-bet.

² Sh. Pidayev. Sirli Kushonlar davlati. Fan. Toshkent-1990. 17-bet.

Kushonlarning ilk poytaxti bo'lgan Dalvarzintepa o'zining noyob arxeologik topilmalari bilan butun dunyoga mashhur. 1972-yilda Dalvarzintepadan oltin buyumlardan iborat xazina topildi. Kichik ko'zadagi xazina uylaridan birining poli tagiga ko'mib qo'yilgan ekan. Ko'zda oltindan tayyorlangan 155 ta buyum bo'lgan sirg'alar, bilak uzuklar, kamarbandlar, uzuklar, oltin shodasi va oltin yombiylar shular jumlasidandir¹ Bularning har biri avvalo san'at asari sifatida bebaho ahamiyatga ega oltin bezaklar zo'r mahorat bilan tayyorlangan bo'lib ular go'zalligi bilan jimjimadorligi bilan kishilarni lol qoldiradi. Bu topilmalar kushonlar davrida Baqtriyada zargarlik san'ati yuqori darajada taraqqiy qilganligini ko'rsatadi. Xazina milodning II-III asrlarda ko'milgan deb taxmin qilinadi. Bundan tashqari Dalvarzintepada ko'plab inshootlar, aholi istiqomat qiluvchi uylar, omborxonalar, Shatranj donalari, kulolchilik buyumlari, zargarlik buyumlarining boshqa xillari ham ko'plab topilgan. Dalvarzintepaning topilmalari juda noyob bo'lib ular buyuk Kushonlar sivilizatsiyasining ilk paydo bo'lib cho'qqiga chiqish arafasini bildirib turadi. Dalvarzintepa aholisining diniy e'tiqodlarida ham aynan buddizmning ta'sir yaqqol seziladi. Buni buddizm ibodatxonalarini o'rganish davomida ko'rish mumkin. Ayrim haykallarning yuzlari va yasaliish uslublari yunon-rim madaniyatiga borib taqalsa, buddizmda albatta hind haykaltaroshligining namunalarini ko'rish mumkin.

Buddaviylik ibodatxonalari topilgan eng mashhur joylardan biri Qoratepa maskanidir. Shimoliy Baqtrada joylashgan yodgorlik o'zining qimmatli topilmalari bilan diqqatga sazovordir. Qariyb o'ttiz yildan ziyod vaqt mobaynida professor Staviyskiy rahbarligida Qoratepada ilmiy arxeologik tadqiqotlar olib borildi². Qoratepadan sakkizdan ortiq inshootlar majmuasi topilgan bo'lib, bu esa turli xil soha mutaxassislarining qiziqishlariga sabab bo'ldi. Ular ham hozirgi kunda bu obyektlarni o'rganishda o'z sohalaridan kelib chiqqan holda yondashmoqdalar. Har bitta inshootlar to'g'ri to'rtburchak tomondan o'rab turgan yo'laklar, ayvonlardan va yer ostiga qurilgan inshootlardan iboratdir. Eng noyob topilmalardan biri ibodatxonalarining birida Buddaning loydan yasalgan katta haykali va stupasi bo'lib, stupaning tagida esa buddaning ramzlaridan bo'lgan nilufar gulining yaproqlari bilan bezatilgan hisoblanadi. Qoratepadan topilgan stupalar buddizmga xos inshoot bo'lib u budda dini tarqalgan barcha mamlakatlarda uchraydi.

1968-yili Qoratepa ibodatxonasidan ikki-uch chaqirim shimoli-sharqda buddaviylarni yana bir ibodatxonasi topildi. Uning topilishi Baqtriya buddaviyligini o'rganishda muhim bir bosqich bo'ldi. Bu ibodatxona fanda Fayoztepa nomi bilan ma'lum³. Tasodifan topilgan yodgorlik cho'pon Absad Beknayeov ohaktoshdan ishlangan budda haykalini Termizdagi o'lkashunoslik muzeyiga topshirganidan keyin boshlandi. 1968-1976-yillarda Albaum tomonidan ilk bor tadqiq etilgan bo'lsa, 2004-2006-yillarda arxeolog Annayev

¹ Sh. Pidayev. Sirli Kushonlar davlati. Fan. Toshkent-1990. 25-bet.

² Sh.Pidayev. Qadimiy Termiz. Toshkent. Fan-2001. 13-bet.

³ Sh.Pidayev. Qadimiy Termiz. Toshkent. Fan-2001. 15-bet.

tomonidan ilmiy tomonlama o'rganilgan. Fayoztepa stupasining o'zini yaxshi saqlaganligi bilan ajralib turadi. Markaziy kompleksning janubiy qismida stupaning qarama-qarshida ibodatxona joylashgan ibodatxonaga kiraverishda markaziy hovlining janubiy ayvonida loyiha ganchdan yasalgan budda, bohisatvalarning haykallari topilgan. Ularning ko'pchiligi qizil rang tasvirlangan bo'lib, tilla suvi bilan ham bezatilganligini ko'rishimiz mumkin. E'tiborli jihatlaridan biri ayvonning devoriga turli mazmundagi rasmlardir. Ibodatxonaning devorlari ham rasmlar bilan bezatilgan, xususan uning janubiy devorida qizil ko'ylak kiygan buddaning rasmi bor. Uning ikki tomonida yana ikki kishining rasmi bor ulardan biri buddaga sajda qilmoqda. Umuman olganda Fayoztepadan topilgan budda haykallari o'zining nafisligi, yuqori did bilan ishlanganligi, san'at darajasida yondashilganligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Fayoztepadagi haykallarning go'zalligini ta'riflashda hattoki buddizmning vatani bo'lgan Hindistonda ham bu kabi nafis namunalarni topish amri mahol ekanligini eslash kifoyadir.

Umuman olganda Kushonlar davridagi arxeologik topilmalarda Hindiston, Xitoy, Yunoniston O'rta Osiyodagi madaniyatlarning qorishiq namunalarini umumiy buddizm diniga mansub bo'lgan obidalar, ularning haykallaridagi o'xshashliklarni guvohi bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi. Sharq. Toshkent-2000. 70-bet.
2. Shokirjon Pidayev. Sirli Kushonlar davlati. Fan. Toshkent-1990. 9-bet.
3. N. A. Egamberdiyeva. Arxeologiya. Toshkent-2011. 109-bet.
4. Sh. Pidayev. Sirli Kushonlar davlati. Fan. Toshkent-1990. 17-bet.
5. Sh. Pidayev. Sirli Kushonlar davlati. Fan. Toshkent-1990. 25-bet.
6. Sh. Pidayev. Qadimiy Termiz. Toshkent. Fan-2001. 13-bet.
7. Sh. Pidayev. Qadimiy Termiz. Toshkent. Fan-2001. 15-bet.

MIRZO ULUG'BEKNING ILM-FAN SOHASIDAGI BA'ZI IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARIGA DOIR MULOHAZALAR

SHAXZODA JALOLOVA

TDSHU, Sharq mamlakatlari tarixi yo'nalishi

2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: I. Xudoynazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Mirzo Ulug'bekning ilm-fan sohasidagi ko'p yillik izlanishlari, tadqiqotlari va ilmiy maktabi faoliyati xususida so'z boradi. Shogirdlari bilan birgalikda ilm-fan sohasiga qo'shgan hissalar va yutuqlari to'g'risida ham bayon qilinadi va ilmiy maktabining jamiyat rivojidadagi ahamiyati, yoshlar ongidagi ta'siri va kelajak uchun yaratib bergan imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilinadi va o'rganiladi.

Kalit soʻzlar: “Ziji jadidi Koʻragoniy”, rasadxona, sekstant, usturlob, metodologiya, trigonometriya, Grigoriy taqvim, Ali Qushchi, Gʻiyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumi.

Mirzo Ulugʻbek buyuk olim, oʻz davrining maʼlum va mashhur siymosi, atoqli matematik va astronomi sifatida tarix sahifalaridan oʻrin olgan. Sharq islom olamining yetuk olimlari qatorida oʻz mehnatlari va ilmiy xizmatlari bilan ilm-fan va jahon sivilizatsiyasi rivojiga taʼsir koʻrsatgan. Mirzo Ulugʻbek oʻrta asrlarda jahondagi eng muvaffaqiyatli rasadxonani tashkil qilgan edi. Uning “Ziji jadidi Koʻragoniy” astronomik jadvali XVI asrda Turkiya orqali Gʻarb ilm-fan doiralariga maʼlum boʻladi va uzoq yillar mobaynida dunyo astronomiya fanida muhim qoʻllanma boʻlib xizmat qilgan. Chunki bu jadval mashaqqat bilan qilingan izlanishlar mahsuli edi. Amir Temurning nabirasi boʻlmish Mirzo Ulugʻbek 1394-yilda Sultoniya shahrida tavallud topgan edi. Uning otasi Shohruh Buyuk Sohibqironning bevosita davomchisi sifatida Temuriylar imperiyasini bir necha oʻn yillar mobaynida muvaffaqiyatli boshqargan. Mirzo Ulugʻbekning onasi Gavharshodbegim – gʻoyatda oʻqimishli, sanʼatda nihoyatda nozik didga ega malika boʻlgan¹. Boʻlajak podshoh bolalik yillaridanoq boshqalarnikiga oʻxshamagan xotirasi, til oʻrganishga boʻlgan isteʼdodi bilan ajralib turgan. Mirzo Ulugʻbek yoshlik yillarida avvaliga arab, soʻng fors hamda hind tillarini, notiqlik sanʼati va adabiyot sirlarini oʻrgangan. XV asrda yozilgan “Ziji jadidi Koʻragoniy” asari qariyb 30 yillik izlanishlar va tadqiqotlar samarasi boʻlib, muqaddima va toʻrt maqoladan iborat. Asar fors tilida yozilgan va “jadval” maʼnosini beradi. Keyinchalik Gʻiyosiddin Al-Koshiy tomonidan arab tiliga tarjima qilingan. Manbalarga koʻra asarning 120 ga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi ham mavjud. Hozirgi kunda asarning 150 dan ortiq nusxasi maʼlum. Ushbu ilmiy asar bizga yoki bizdan keyingi va oldingi avlodga nima beradi, degan savol tugʻilishi tabiiy. Asar astronomiya va matematikaga oid boʻlib, Ulugʻbekning Samarqanddagi rasadxonasida olib borilgan kuzatishlariga asoslangan². 1018 ta yulduzning joylashuvi va ularning koordinatalari haqida batafsil yoritilgan. Yulduzlarning harakati asosida vaqt oʻlchovlari boʻyicha yangi standartlarni joriy etdi. Astronomik hisob-kitoblar uchun trigonometrik funksiyalarni qoʻllashni rivojlantirdi, bu esa astronomik masalalarni yechishda aniq va samarali usul boʻldi. Bu esa astronomiyaga boʻlgan yondashuvni tubdan oʻzgartirdi. Bu tadqiqot biz uchun astronomiyani oʻrganishdagi dastlabki haqiqiy poydevor edi.

Mirzo Ulugʻbek nafaqat buyuk astronom, balki oʻz davrida ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga katta hissa qoʻshgan shaxs sifatida eʼtirof etiladi. Uning yulduzlar katalogi va “Zij” asari zamonining eng ilgʻor ilmiy ishlari hisoblanadi, bu esa oʻzbek xalqining tarixiy merosida muhim oʻrin egallaydi³. Nafaqat matematik va astronom, balki kitobsevar, shoir va buyuk tarixchi boʻlib,

¹Rizayev.M.R. Ulugʻbek va uning zamondoshlari-T: “Fan”. 1996. B-120.

² Turayev.O.T. Samarqand astronomiyasi. -T.; “Fan”.2001.B-45.

³ Mirziyoyev.Sh.M. Oʻzbekiston: milliy gʻoya va maʼnaviy yangilanish-T: “Oʻzbekiston”, 2019, B-49.

madrasalardagi ta'lim jarayonlarida o'z ishining ustasi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Buning natijasida ko'pgina ilm ahllarini atrofiga yig'di. Ali Qushchi bilan tanishib, do'st tutindi. Shogird sifatida Ali Qushchi uning ko'magida, keyinchalik taniqli ustoz va Ulug'bek asarlarining davomchisiga aylandi. Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy kabi zamonasining kuchli astronom va matematiklari ham Ulug'bekning ilmiy merosida juda katta hissa qo'shishgan. Eng muhim o'ringa loyiq deb biladigan holat bu- Samarqand rasadxonasining qurilishi edi. Rasadxona qurilishi 1420-1421-yillarda boshlandi va 1428-yilda to'liq ishga tushirildi¹. Rasadxonada ulkan sekstant² va usturlub³ kabi jihozlar yordamida astronomik kuzatishlar olib borilgan. Ilmiy meros sifatida rasadxona orqali olingan ma'lumotlar astronomiya sohasida muhim ahamiyatga ega. Ularning aniq va ishonchli bo'lishi zamonaviy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy ahamiyati shundan iboratki, Ulug'bek rasadxonasining tarixi ilm-fan rivojining yorqin namunasi hisoblanadi. Bu asar musulmon olimlarining yutuqlarini, ularning bilim va metodologiyalarini namoyish etadi. Madaniy meros sifatida, rasadxona joylashgan Samarqand shahri, tarixiy va madaniy ahamiyati bilan YUNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu yerda joylashgan ilmiy yodgorliklar turizm va ta'lim uchun qiziqarli manba. Bundan tashqari, Ulug'bek rasadxonasining merosi zamonaviy astronomlar va olimlar uchun hamkorlik va tadqiqotlar o'tkazishda ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu jihatlar Ulug'bek rasadxonasining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ilm-fan rivojiga bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi. Bu jihatlar Ulug'bek rasadxonasining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ilm-fan rivojiga bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi.

Ulug'bek ilmiy maktabi XV asrda tashkil etilgan ilmiy muassasa bo'lib, o'z zamonida eng ilg'or astronomiya, matematika va falsafa markazi hisoblangan. Bu maktab Ulug'bekning o'ziga xos uslubi va ilmiy yondashuvi bilan mashhur bo'lgan. Ulug'bek ilmiy maktabi Samarqandda joylashgan, u yerdagi rasadxona bilan chambarchas bog'langan. Maktabda astronomiya va matematika bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar olib borilgan. Maktabda bir qator mashhur olimlar faoliyat yuritgan. Ulug'bekning shogirdlari orasida Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy va boshqa ko'plab olimlar bor⁴. Ular o'z ilmiy ishlari orqali maktabda mohirona faoliyat olib bordilar. Ulug'bek ilmiy maktabida astronomik kuzatishlar, trigonometrik hisob-kitoblar, yulduzlarning joylashuvi va

¹ Melville Charles. The Timurid Renaissance. Brill, 1999. P. 184.

²Sekstant — astronomik va navigatsion asbob bo'lib, u osmon jismlarining burchaklarini o'lchash uchun ishlatiladi. Sekstant orqali dengizchilar joylashuvlarini aniqlashda foydalanadilar, bu esa ularga xaritalarda to'g'ri yo'lni aniqlashga yordam beradi. Asbob XVIII asrda rivojlangan va dengiz navigatsiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

³Usturlub (astrolyabiya) — astronomik kuzatuvlar uchun ishlatiladigan asbob bo'lib, odatda metall yoki yog'ochdan yasaladi. U osmon jismlarining burchaklarini o'lchashda va astronomik hodisalarni aniqlashda yordam beradi. Usturlubning ilk shakllari miloddan avvalgi 150-yillarda Gretsiyada yaratilgan. U asosan navigatsiya va astronomiya sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Qadimgi usturlublar yulduzlar va sayyoralarni kuzatishda qo'llanilgan, zamonaviy versiyalari esa astronomik tadqiqotlarda ishlatiladi.

⁴<https://www.turkestantravel.com/en/mirzo-ulugbek/>

harakatlari ustida ishlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Maktabda ilmiy ta'lim berish jarayoni chuqur va tizimli bo'lib, o'quvchilar matematikani, astronomiyani va boshqa ilmiy sohalarini o'rganishdi. Maktabda olib borilgan tadqiqotlar davomida Ulug'bek yulduzlarning harakatini o'rganib, ularga oid yuqori aniqlikdagi natijalar keltirdi. Bu ishlar XVI asrda Yevropadagi astronomik tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ulug'bek ilmiy maktabi astronomiya va matematikaning rivojida ulkan rol o'ynadi va uning merosi hozirgacha ilm-fan sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Ulug'bek trigonometrik jadvallarni ishlab chiqdi, bu esa yulduzlarning joylashuvini aniqlashda yordam berdi. U yerdagi o'lchovlarni osmon va yulduzlar bilan bog'lash bo'yicha yangi usullarni ishlab chiqdi. Ulug'bek yil davomiyligini 365,2421988 kun deb aniqladi, bu zamonasida eng aniq hisoblashlardan biri hisoblanadi. Bu ko'rsatkich Grigoriy taqvimidagi 365,2425 kunga yaqin. U quyosh va oy harakatlarini, ularning fazalarini chuqur o'rganib, astronomik hodisalarning takrorlanishlarini tahlil qildi. Ulug'bek o'z rasadxonasida zamonaviy astronomik asboblarni, jumladan katta sekstant va usturlubni ishlatdi. Bu asboblarni yordamida aniq o'lchovlar olib borish mumkin bo'ldi. Matematikaning boshqa sohalarida ham tadqiqotlar olib bordi. Ulug'bek o'z tadqiqotlarida kuzatish va tajriba o'rganishga asoslangan usullarni qo'lladi, bu esa ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shdi. Vafotidan so'ng ulkan ilmiy meros ya'ni Samarqandda joylashgan 15 ming kitobdan iborat mashhur kutubxonani qoldirdi. Ming afsuski, bu kutubxonadagi kitoblarning askariyati saqlanib qolmagan, yoqilgan yoki yo'qotib yuborilgan. Ammo Ulug'bekning ilmiy merosi va kutubxonasi haqidagi ma'lumotlar bir qator tarixiy manbalarda saqlanib qolingan. Bugungi kunda ham tadqiqotlar davom etmoqda¹.

Xulosa qilib shularni aytish mumkinki, insoniyat tarixida bu kabi jarayonlar sanoqli. Yaratuvchi o'z mahsulotini o'zi uchun emas balki boshqalar uchun ham tegadigan foydasi haqida o'ylaydi, so'ng uni yaratadi. Aytmoqchi bo'lganim shuki, yaratuvchimisiz, izlanuvchimisiz, tadqiqotchimisiz qilayotgan ishingizga yondashuvni to'g'ri belgilang. Ishingiz shunday olamshumul bo'lsinki, sizni kelajakda ham martabangiz ulug' bo'lsin, shunday foydali va kerakli narsa yaratingki yosh avlod bahramand bo'lishiga arziqli bo'lsin. Shunchaki o'qimasin, foydalansin, asos qilsin, davom ettirsin. Mirzo Ulug'bek biz istaganimizni yaratib berdi. Uning ilmiy ishlari biz uchun asos bo'ldi. Hayotimizda hamon qo'llab kelyapmiz. Afsuski, hozirda bunday ilmiy merosni deyarli topolmaysiz. Hozirgacha⁴ bizni diqqatimizni o'ziga jalb qilishdan to'xtamaydi. Bundan keyingi olamni yaratishda va u olamda yashashda bu tadqiqotlarning o'rni beqiyos. Ya'ni bu tadqiqotlar va izlanishlar bo'lmaganda edi, balki biz bu darajagacha kelolmasdik. Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosini o'rganish biz yoshlarning vazifasi, chunki kelajak bizning qo'limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

¹<https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2020/04/13/1234567890-1396909>

1. Mirziyoyev.Sh.M. O‘zbekiston: milliy g‘oya va ma’naviy yangilanish-T:, “O‘zbekiston”, 2019. 400b.
2. RizayevM.R. Ulug‘bek va uning zamondoshlari-T:, “Fan”. 1996.B-256.
3. Turayev O.T. Samarqand astronomiyasi. -T:, “Fan”. 2001. B-320.
4. <https://www.turkestantravel.com/en/mirzo-ulugbek/>
5. <https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2020/04/13/1234567890-1396909>
6. Melville Charles. The Timurid Renaissance. Brill, 1999. P. 266.

MILLIY QADRIYATLARNING FALSAFIY KELIB CHIQISHI

SEVINCH AZAMATOVA

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
Sharq falsafasi va germeneytika yo‘nalishi
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD J. Sulaymonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy qadriyatlar kelib chiqishining falsafiy ildizlari, ularning inson ijtimoiy va madaniy hayotidagi o‘rni haqida muxtasar bayon etilgan. Milliy qadriyatlar kelib chiqishi haqidagi sharq mutafakkirlarining qarashlari, xususan, “Ixvon as-Safo” risolalarida milliy qadriyatlar bayoni va qadriyatlar falsafaning o‘ziga xosligi haqida ma’lumotlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Ixvon as-safo, milliy qadriyatlar, ensiklopedik asar, axloqiy barkamollik, Aristotel.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning madaniy, ijtimoiy va falsafiy merosining asosiy qismini tashkil etadi. Ular o‘sha xalqning dunyoqarashi, o‘ziga xosligi va yashash tarzini belgilaydi. Bu qadriyatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va ular ortida yotgan falsafiy qarashlarni anglash esa, xalqning madaniy o‘zligini tushinishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, bu qadriyatlar qanday shakllangan va qaysi omillar ularga o‘z ta’sirini o‘tkazgani falsafa doirasida doimiy o‘rganiladigan muammolar qatoriga kiradi.

Qadriyatlar insoniyat tarixida o‘ziga xos madaniyat va falsafani shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu qadriyatlar nafaqat bir xalqning, balki umumiy jamiyatning axloqiy va ma’naviy me’yorlarini belgilab beradi. Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi ko‘pincha diniy va falsafiy oqimlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Qadriyatlar falsafasi qadimgi Sharq falsafasi va qadimgi Yunon falsafasida keng o‘rganilgan. Sharq mutafakkirlari inson tabiatini, jamiyatda odamlarning o‘zaro munosabatlarini tushinish uchun qadriyatlar tushunchasiga alohida e’tibor berganlar. Shu nuqtai nazardan, qadriyatlar inson hayotining ajralmas qismi

bo'lib, ularning shakllanishi, rivojlanishi va amalga oshirilishi falsafiy jarayon sifatida qaraladi.

Sharq falsafasi va madaniyatida qadriyatlar tushunchasi turli manbalarda, xususan, diniy va axloqiy risolalarda keng o'rin olgan. Bunda qadriyatlar nafaqat diniy tamoyillar, balki ma'rifatparvarlik, adolat, axloqiy poklik, halollik kabi mezonlarga asoslanadi. Milliy qadriyatlar falsafasi ko'p hollarda xalqning diniy e'tiqodlari va axloqiy tamoyillari bilan bog'liqdir.

Qadriyatlarning kelib chiqishi masalasida faylasuflar turli yondashuvlarni taklif qilganlar. Masalan, Aristotel, Platon kabi yunon faylasuflari qadriyatlarni kosmos va tabiat bilan bog'lashgan. Ularning fikricha, qadriyatlar insonning tabiiy ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan bevosita aloqador. Sharq mutafakkirlari esa qadriyatlarni axloqiy va diniy tamoyillar bilan bog'liq holda ko'rib chiqishgan. Jumladan, Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar milliy qadriyatlarning shakllanishida axloqiy komillik va ma'naviy poklikni asosiy omil deb hisoblashgan¹.

IX-X asrlarda yashagan arab dunyosidagi intellektual guruh bo'lgan Ixvon as-Safo (Poklik Birodarlari) tomonidan yozilgan risolalar milliy qadriyatlarning falsafiy ildizlarini anglashda qimmatli manba hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarning falsafiy ildizlarini o'rganishda, Ixvon as-Safo risolalaridagi axloqiy va ma'naviy tushunchalar alohida ahamiyatga ega. Ularning axloqiy qarashlari milliy qadriyatlarni chuqur tushunishga yordam beradi. Milliy qadriyatlar insonlarning ichki va tashqi dunyosida uyg'unlik yaratishga qaratilgan, bu esa Ixvon as-Safo falsafasidagi markaziy tamoyillardan biri hisoblanadi.

Ixvon as-Safo Risolalari o'z vaqtida katta ta'sirga ega bo'lgan va islom falsafasi, matematika, musiqa, astronomiya, axloq va boshqa ko'plab fanlarni qamrab olgan ensiklopedik asardir. Ushbu guruh a'zolari yashirin tarzda faoliyat olib borgan bo'lsa-da, ularning risolalari orqali olam, inson va jamiyat haqidagi ko'plab falsafiy g'oyalar bizga yetib kelgan. Ixvon as-Safo o'z asarlarida insoniyatning axloqiy va ruhiy barkamollikka erishish yo'llarini ko'rsatganlar. Bu yo'llar esa ular uchun nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va milliy qadriyatlar bilan ham bog'liqdir.

Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri axloqiy barkamollikdir. Ixvon as-Safo axloqiy barkamollikni insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi yuksak fazilatlar orqali baholaydi. Axloqiy yetuklikka erishish, ularning fikricha, millatning ma'naviy poydevorini mustahkamlaydi va uni tarixiy jarayonlarda mustahkam saqlab qolishga yordam beradi.

Milliy qadriyatlar ijtimoiy hayotning turli sohalarida, xususan, oilaviy, diniy va madaniy munosabatlarda aks etadi. Ixvon as-Safo oilaviy qadriyatlarni jamiyatning barqarorligi uchun zarur deb hisoblaydi². Ularning fikricha, oilaning

¹ Saidov M. "Forobiy va Ibn Sino falsafasida axloqiy qadriyatlar va ma'naviy poklikning o'rni". O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2021. B. 75–83.

² "Risolalar", Ixvon as-Safo. Dar al-Kutub al-Ilmiyah-1957 (Beyrut), Jild 3, B. 203–210

mustahkamligi jamiyatning mustahkamligi bilan bevosita bog'liq. Ota-onaga hurmat, yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlar Ixvon as-Safo risolalarida keng yoritilgan masalalardan biri hisoblanadi. Bu qadriyatlar nafaqat bir xalqning, balki umumiy jamiyatning axloqiy va ma'naviy me'yorlarini belgilab beradi. Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi ko'pincha diniy va falsafiy oqimlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuningdek, milliy qadriyatlar ta'lim-tarbiya jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ixvon as-Safo ilm-fan va axloqni birgalikda rivojlantirish orqali millatni tarbiyalash lozimligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, insonning ilmiy yutuqlari faqat axloqiy barkamollik bilan uyg'un bo'lgandagina, u jamiyat uchun foydali bo'ladi. Ta'limning axloqiy jihatlarini kuchaytirish, milliy qadriyatlarni saqlab qolishning muhim omili sifatida ko'riladi.

Ixvon as-Safo falsafasida olam va inson o'rtasidagi uyg'unlik muhim o'rinni egallaydi¹. Bu uyg'unlik esa insonning tabiat, jamiyat va o'z-o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar ham aynan shu munosabatlar orqali shakllanadi va rivojlanadi. Masalan, oilaviy munosabatlar, ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va ijtimoiy birdamlik qadriyatlari Ixvon as-Safo falsafasida qarashlarida alohida o'rin egallaydi.

Shuningdek, Ixvon as-Safo fikricha, ta'lim-tarbiya jarayonida insonlarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasiga katta e'tibor berilishi kerak. Bu jarayon milliy qadriyatlarning uzluksiz ravishda yangi avlodlarga yetkazilishida muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham Ixvon as-Safo risolalari ta'lim tizimida axloqiy tarbiyaning ustuvorligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda ham milliy qadriyatlar har bir millatning o'ziga xosligini saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazish uchun muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar, madaniy meros va axloqiy tamoyillar har bir millatning tarixiy tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ularning falsafiy kelib chiqishini o'rganish zamonaviy jamiyatda ham dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ikhwān al-Ṣafā'. "Rasā'il Ikhwān al-Ṣafā'". 1995, "Dar al-Kutub al-Ilmiyya", Beirut, Livan.
2. Al-Farabi. "Kitāb al-Madīna al-Fāḍila". 1993, "Dār al-Ma'ārif", Qohira, Misr.
3. Nasr, Seyyed Hossein. "Islamic Philosophy from its Origin to the Present". 2006, Oxford University Press, Nyu-York, AQSh.
4. Sharif, M.M. "A History of Muslim Philosophy". 1966, Otto Harrassowitz, Wiesbaden, Germaniya.

¹ "The Epistles of the Brethren of Purity", Nader El-Bizri (tahrirchi) va boshqalar. Oxford University Press- 2012. P. 56–62.

XALQARO MUNOSABATLAR VA IQTISODIYOT

O‘ZBEKISTON VA MALAYZIYANING IQTISODIY ALOQALARI VA TURISTIK SALOHIYATI

MADINABONU ABDULLAYEVA

*TDSHU, Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
instituti turizm yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi N. Imamova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Malayziyaning 1991-yildan 2024-yilga qadar bo‘lgan iqtisodiy munosabatlari, turistik salohiyati ilmiy jihatdan o‘rganiladi. Shuningdek ikki davlatning turizm sohasida rivojlanish istiqbollari, olib borilgan islohotlar, mehmonxonalar, turistik obyektlar soni, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi, pandemiyaning turizmga ko‘rsatgan ta‘siri raqamlarda ifodalangan.

Kalit so‘zlar: Turizm, yalpi ichki mahsulot, mehmonxona, iqtisodiyot, pandemiya, daromad, turist.

Hozirgi kunda turizm iqtisodiyotning asosiy drayveri sanaladi va tarmoqning xizmat ko‘rsatish sohasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bir qancha iqtisodiy rivojlangan davlatlarning yuksalish istiqbollariga nazar soladigan bo‘lsak, turizmga e‘tibor, mehmonxona biznesining rivojlanishi uchun imkoniyatlar ko‘pligi alohida ahamiyat kasb etgan. O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan iqlim sharoiti, milliy urf-odat va an‘analarga asoslangan hunarmandchilik durdonalari, tarixiy yodgorliklar, tabiat manzaralari mamlakatda turizmni rivojlantirishning yangi bosqichiga ko‘tarilishi uchun xizmat qiladi. Malayziyaning qulay, muhim, strategik va go‘zal tabiat landshaftida joylashgani, iqtisodiy jihatdan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari orasida yaxshi rivojlanganligi, aholi tarkibida musulmonlar sonining ko‘pligi O‘zbekiston bilan istiqbolli hamkorliklarni yo‘lga qo‘yishda ikki tomonlama manfaat olib keladi.

Ma‘lumki, turizm sohasi O‘zbekistonda tadqiq qilinayotgan, rivojlanayotgan, iqtisodiyotga bevosita aloqador, yangi soha hisoblanadi. Shu sababli davlat iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan yanada rivojlanish maqsadida dunyoning bir qator mamlakatlari bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatib kelmoqda. Ushbu jarayonda iqtisodiy hamkorlik, tajriba almashish, madaniy ko‘rgazmalar tashkil etish muhim rol o‘ynaydi va shuni ta‘kidlash joizki, Janubi-sharqiy Osiyoda joylashgan, rivojlanishi jihatidan yuqori o‘rinlarda turadigan Malayziya ham turizm salohiyati, iqtisodiy darajasi bilan JSHO mamlakatlari orasida ajralib turadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, MDH, ShHT kabi xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘ldi. Shuningdek, tashqi siyosatda o‘z o‘rnini egallash, xalqaro hamkorlar sonini orttirish maqsadida jahon davlatlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatdi. Shu o‘rinda Malayziya ham 1991-yil 1-yanvarda

O'zbekistonning mustaqilligini tan oldi va 1992-yil 21-fevraldan ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. Ikki tomonlama do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlik 1992-yil O'zbekiston Respublikasining Malayziyaga, 1993-yil Malayziya Bosh vazirining O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi bilan boshlangan. Shuningdek, 2019-yil 14-16-oktyabr kunlari Toshkentda Malayziyaning tashqi savdoni rivojlantirish korporatsiyasi (MATRADE) bilan hamkorlikda biznes-forum o'tkazilgan. Tadbir davomida Malayziyaning O'zbekistondagi elchixonasi qoshida korporatsiyaning Toshkentdagi vakolatxonasi ochilgan. 2020 yil 8-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, tashqi savdo va investitsiyalar vaziri va Malayziya vaziri, xalqaro savdo va sanoat vaziri o'rtasida keng qamrovli, iqtisodiy, siyosiy, ikki mamlakat o'rtasidagi kelajak istiqbollariga bag'ishlangan virtual uchrashuv bo'lib o'tgan¹.

2020-yil yakuni ma'lumotlariga qaraganda O'zbekiston va Malayziyaning o'zaro savdo aylanmasi 75.76 million dollarni tashkil etgan. 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 35,9 foizga o'sgan va 81.3 million dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda Malayziyaning mintaqadagi umumiy savdosining 41,2 foizi O'zbekistonga to'g'ri keladi². Shuningdek, O'zbekistonda Malayziya investitsiyasi ishtirokida 31 ta korxona tashkil qilingan bo'lib, ulardan 21 nafari Malayziyaning to'liq kapitali asosida faoliyat yuritmoqda³.

Shu kunga qadar Malayziyadan O'zbekistonga elektron qurilmalar, tibbiy vositalar, palma yog'i, quyultirilgan sut, kakao kukuni kabi mahsulotlar import qilinib, O'zbekistondan Malayziyaga esa, mevalar, kimyoviy o'g'itlar eksport qilingan. 2024-yil 17-mayda Malayziya bosh vazirining O'zbekistonga bo'lgan rasmiy tashrifi ham aynan ikki davlat o'rtasida savdo aylanmasi hajmini oshirish, madaniy aloqalarni kuchaytirish, ziyorat turizmi bo'yicha yangi hamkorlikni oshirish kabi masalalarga qaratilgan.

O'zbekiston qadimdan Markaziy Osiyoda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan, Buyuk ipak yo'li savdosida asosiy rol o'ynagan, sharq renessansiga ulkan hissa qo'shgan, tarixiy me'moriy obidalarga boy davlat hisoblanadi. Shu sababdan, mustaqillikka erishganidan so'ng davlatlar o'rtasida fan, maorif, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish bilan tinchlikka, millatlar aro hamdo'stlikka erishish maqsadida 1993-yilda xalqaro UNESCO tashkilotiga a'zo bo'ldi. Mamlakatda turizm sohasini iqtisodiyotning yetakchi kuchiga aylantirish, tarkibni o'zgartirish, yalpi ichki mahsulotda va mahalliy byudjet daromadlarida uning ulushini oshirish, aholini ish bilan ta'minlash, turmush darajasini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risidagi" PQ-2666 sonli qarori qabul qilingan.

¹ Uzbekistan Embassy Malaysia. O'zbekiston-Malayziya iqtisodiy aloqalari. https://uzbekembassy.com.my/uzb/ozbekiston_malayziya/

² Statistika agentligi. "O'zbekiston va Malayziyaning savdo aloqalari". <https://stat.uz>

³ O'zbekiston- Malayziya munosabatlari https://www.uzbekembassy.com.my/uzb/ozbekiston_malayziya/https://president.uz/oz/lists/vi
ew/6901

Mamlakatning dunyoga o'z madaniyati va urf odatlari bilan tanilishida turistlar muhim rol o'ynaydi. Ular o'z ijtimoiy tarmoqlari orqali sayohat qilgan mamlakat haqida o'z taassurotlari bilan bo'lishadi va boshqalar uchun ushbu taassurot kelgusida mamlakatga tashrif buyurish ishtiyoqini belgilab beradi. Shu sababli, chet ellik turistlarning mamlakatga sayyoh bo'lib kelishini ta'minlash maqsadida xorijiy davlatlardan tashrif buyuruvchilar uchun viza rejimi soddalashtirildi. Ayni vaqtda 93 ta xorijiy davlatlar fuqarolari uchun vizasiz kirish, 56 ta davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 ta davlat uchun besh kunlik tranzit vizasiz kirish, shuningdek, 76 ta davlat uchun turizm vizalar berishning yengillashtirilgan tartibi belgilandi¹.

Qarorga muvofiq, Toshkent shahri Mirobod tumanida gastronomik ko'cha tashkil qilindi va shuningdek, Saudiya Arabistoni hamda Malayziyaga viza cheklovlari bekor qilindi.

Darhaqiqat, mehmonxonalar sayyohlar va mehmonlar uchun qulay yashash sharoitlarini ta'minlaydigan asosiy infratuzilma hisoblanadi. Mehmonxonalarning sifati va xizmati sayyohlarni ma'lum bir hududga jalb qilishda muhim ro'l o'ynaydi. Zamonaviy va qulay mehmonxona xizmatlari sayyohlarning ma'lum bir mintaqani tanlashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Statistika agentligining ma'lumot berishicha, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada 1088 ta mehmonxona faoliyat yuritmoqda².

1-jadval

Yulduzlar toifasi bo'yicha mehmonxonalar soni³

1 yulduzli mehmonxonalar soni	231
2 yulduzli mehmonxonalar soni	36
3 yulduzli mehmonxonalar soni	120
4 yulduzli mehmonxonalar soni	24
5 yulduzli mehmonxonalar soni	5
Toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalar soni	672
Jami	1088

Yurtimizda 8208 ta ko'chmas moddiy-madaniy meros ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 4748 nafari — arxeologik yodgorliklar, 2250 nafari — arxitektura yodgorliklari, 678 nafari — monumental san'at yodgorliklari va 532 nafari — diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Ushbu ko'chmas moddiy-madaniy meroslarning katta qismi Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm va Toshkent viloyatlariga, eng kami esa, Sirdaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Mamlakatda mavjud bo'lgan resurslar, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni hisobga olgan holda ushbu

¹ Parliament of Uzbekistan. Tourism Revenue in 2023. <https://parliament.gov.uz/articles/1789>

² O'zbekistondagi besh yulduzli mehmonxonalar soni <https://uzreport.news/society/o-zbekistonda-nechta-5-yulduzli-mehmonxona-borligi-malum-boldi>

³ Yurtimizda qancha besh yulduzli mehmonxonalar tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatmoqda? <https://uzreport.news/society/o-zbekistonda-nechta-5-yulduzli-mehmonxona-borligi-malum-boldi>

yodgorliklarni rekonstruksiya va rezervatsiya qilish, tarixiy qadr-qiymatiga ta'sir qiluvchi omillardan saqlash lozim. Shuningdek, yurtimizda tabiatning go'zalligi bilan turistlarni o'ziga jalb qiluvchi Zomin, Nurota, Sangardak, Chust, Nanay, Boysun, Aydarko'l kabi maskanlar ham qishloq turizmi, xushmanzara tabiati bilan sayohatchilarni mamnun qilib kelmoqda. 2024-yil may oyida o'tkazilgan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali esa Boysun tumanining tabiati va turizm sohasining eko-turizm yo'nalishi uchun poydevor ekanligini isbotlab berdi. Bu kabi xalqaro festivallarning mamlakat xududida o'tkazilishi turistlar sonini oshirishga, jahonga targ'ib etishga yordam beradi. Bunga qaramay, mamlakat anklav hududda joylashgani bois, dengizga chiqishning imkoni yo'q. Bu esa turizmni rivojlantirishdagi to'siqlardan biridir. Shu sababli, O'zbekistonda sun'iy suv havzalari sonini ko'paytirish, yangi eko bog'lar, kurortlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mamlakatda suv havzalari soni kamligi yoxud dengizga chiqish imkoni bo'lmagani tufayli turistlarning yashash hududiga e'tibor bergan holda jalb etish lozim, ya'ni, chegarasi suv bilan o'ralgan davlatlardan tashrif buyurgan turistlarga cho'l turizmi, qishloq turizmi kabi yo'nalishlarni taklif etish kerak. Yalpi ichki mahsulot har bir davlatning bir yil davomidagi ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlarining umumiy qiymatini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatgichdir. Bu ko'rsatgich mamlakat iqtisodiyotining umumiy hajmini va rivojlanish darajasini baholashda muhim va u xizmat ko'rsatish, sanoat va qishloq xo'jaligi kabi uch yirik sohadan iborat. Turizm tarmoqning xizmat ko'rsatish sohasiga kiradi va bevosita ta'sir qiladi. 2024-yilning yanvar-sentyabr oylari ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonning YaIM hajmi 1 015 331,8 mlrd dollarni tashkil etgan va bu 2023-yil yanvar-sentyabr oyidagi YaIM hajmiga nisbatan taqqoslaganda 6,6 foizga o'sgan. Ushbu ko'rsatgichda xizmat ko'rsatishning ulushi 2024-yilda 47,9 foizni tashkil etadi 2017-yilda turizm xizmatlari eksporti \$546,9 mln.ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 2,9 barobar oshib, 1,6 mlrd.ga yetgan. 2017–2022 yillarda xizmatlar eksportining umumiy hajmida turizm xizmatlari eksportining ulushi 1,8 barobar oshgan. Agar 2017-yilda bu ko'rsatkich 22,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 40,7 foizga yetgan¹. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatda olib borilgan turizm sohasidagi islohotlar o'z natijasini ko'rsatmoqda.

O'zining gavjum shaharlari, go'zal tabiati, turli madaniy merosi bilan ko'plab turistlarni o'ziga jalb qilib kelayotgan Malayziya davlati iqtisodining asosiy manbalaridan biri turizm bo'lib, u pandemiya davridan oldin 74.52 milliard Malayziya ringgitida daromad olib kelgan. 2014-yilda Malayziyaga tashrif buyuruvchilar soni eng yuqori ko'rsatgich bilan 27,4 million turistni qabul qilgan. 2019-yilda 26,1 million sayohatchilar tashrif buyurgan bo'lsa, 2020-yil 84 foizga kamayib, 4,3 millionni tashkil etgan. 2021-yilda ushbu raqamlar yana 96 foizga kamaydi va keyingi yillarda Malayziya turizm sohasida o'zining oldingi ko'rsatkichlarini tiklashga harakat qilib kelmoqda. 2023-yilda xalqaro turistlar

¹ Besh yilda O'zbekistonda turizm sohasi qanday o'zgardi.
<https://www.spot.uz/oz/2023/02/20/tourism-development/>

soni 20,14 millionga yetgan¹. Bu kabi ko‘rsatkichlarga sabab qilib Malayziyaning musulmonlar uchun yo‘lga qo‘ygan “Halol Tourism” ni ayta olamiz. Ushbu yilda xalqaro turistlar 142,9 million Malayziya ringgiti miqdorida xarajat qilganlar². Malayziyaga asosan qo‘shni bo‘lgan mamlakatlar Tailand, Singapur, Indoneziya, Xitoy va Bruneidan sayohatchilar tashrif buyurishadi. Bunga asosiy sabab madaniyatlar yaqinligidir. 2023-yilda Malayziyaga Singapurdan 8,3 million, Tailanddan 1,5 million, Indoneziyadan 3.1 million sayohatchi tashrif buyurgan³.

2023-yil ma’lumotlariga ko‘ra Malayziyadagi mehmonxonalar soni 5200 ga yetgan⁴ va bu oldingi yillarga nisbatan turizmning jadal oshib kelayotganini ko‘rsatadi. Mehmonxonalar sonining ko‘payishi aholining turizm sohasidan foyda olish maqsadida turistlar uchun tashkil etgan uy-mehmonxonalari, keyinchalik ularning yirik mehmonxonalarga aylanishi bilan tarflash mumkin.

Malayziyada turizmning yaxshi rivojlangani va iqtisodiyotdagi salmog‘ining yuqoriligiga uning qulay, strategik joyda joylashgani, tarixdan Xitoy, Hindiston mamlakatlari bilan savdo aloqalari mavjudligi hamda madaniyatlar kesishuvi, tropik mevalar, iqlim sharoitining o‘ziga xosligi sabab bo‘ladi. Mamlakat turistlarni qabul qilib olish bo‘yicha Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari ichida ikkinchi o‘rinni egallaydi va 2019-yilda turizmning Malayziya yalpi ichki mahsulotiga qo‘shgan hissasi 6.8% ni tashkil etgan⁵. Xususan, hukumat pandemiya davridan so‘ng chegaralarni qayta ochdi, bir qancha davlatlar uchun vizani bekor qildi. Shu boisdan olib borilgan islohotlar Malayziyaga 2023-yilda 71 million Malayziya ringgitida daromad keltirdi. Malayziya bosh vaziri 2026-yilda Malayziya turizmida oldingi davrdan yuqori raqamlar bilan “comeback” qilishini, turizm sohasidagi tashkilotlar uchun 350 million Malayziya ringgiti ajratilganini, 2026-yilgacha islomiy davlatlar bilan birgalikda 26 million turistlarni qabul qilishini ta’kidlab o‘tgan⁶. Ko‘rinib turibdiki, Malayziya o‘zining go‘zal tabiati, an‘analariga boyligi bilan va olib borilayotgan turistik islohotlarining samarasi sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlay oladi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun marketingni rivojlantirish, madaniy meroslarni dunyoga oshkor qilib, omma e’tiborini mamlakatdagi chiroyli tabiat, o‘rmon, tog‘lar, musaffo havoli dam olish maskanlari, ajdoddan avlodga o‘tib kelayotgan qo‘l mehnati samaralari, rang-barang bayram-u festivallar, mazali milliy taomlar, tarixiy yodgorliklar,

¹ How many people visit Malaysia each year?
<https://roadgenius.com/statistics/tourism/malaysia/>

² Malayziya hukumati rasmiy sayti, “Tourism revenue in 2023”,
<https://parliament.gov.uz/articles/1789>

³ Number of tourists <https://roadgenius.com/statistics/tourism/malaysia/>

⁴ Statista, “Number of hotels in Malaysia”,
<https://www.statista.com/statistics/1004729/number-of-hotels-malaysia/>

⁵ Visual Capitalist, “World’s Top Countries in Tourism”,
<https://www.visualcapitalist.com/map-worlds-top-countries-tourism/>

⁶ 2024 Budget: Anwar announces Visit Malaysia Year will make comeback in 2026
<https://www.nst.com.my/news/nation/2023/10/966685/2024-budget-anwar-announces-visit-malaysia-year-will-make-comeback-2026>

serhasham me'morchilik namunalari, tarixdan din o'chog'i bo'lib kelgan joylarga qaratish, bizda bor narsalarni yetkazib berish lozim.

Malayziyada musulmon aholi soni ko'pligi bois, ziyorat turizmini rivojlantirib, ikki davlat o'rtasida turizm bo'yicha kelishuvlarni amalga oshirish, Malayziya musulmonlarining haj ziyoratini, avvalo, O'zbekiston orqali islom olamida o'z o'rniga ega bo'lgan, islom fihi, ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan Imom Al Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, Termiziy kabi buyuk ulamolarning maqbaralarini, qadamjolarini ziyorat qilib, so'ngra Makka shahriga ziyoratni davom ettiruvchi turpaketlar tuzish ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bugungi kunda Malayziya bilan ta'lim sohasida bir qator islohotlar olib borilmoqda. Shu sababdan ta'lim turizmini yo'lga qo'yish, xorijiy amaliyotlar sonini ko'paytirish ham o'rinlidir.

Turizmni rivojlantirishda bir qancha islohotlar olib borilishi lozim. Eng muhim omillardan biri transport vositalarining sifatli va qulayligidir. Shu sababdan yo'llarni yaxshilash, aeroportlarni modernizatsiya qilish, jamoat transportini rivojlantirish;

- Toza ichimlik suvi, elektr energiyasi va internet kabi asosiy xizmatlar sifatini yaxshilash;

- Hududni xalqaro bozorda reklama qilish, marketingni rivojlantirish;

- Turizm sohasining malakali mutaxassislarining sonini oshirish, ularni xalqaro turizm konferensiyalariga, tajriba almashish uchun xorijga yuborish;

- Mamlakatni tanitish maqsadida xalqaro forumlar, konferensiyalar va festivallarga mezbon mamlakat sifatida ishtirok etish maqsadga muvofiqdir. Zero turizm mamlakatlar munosabatini yaxshilovchi, madaniyatlar almashinuvini ta'minlovchi, iqtisodni barqarorlashtiruvchi zamonaviy sohadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Statistika agentligi. (2023). O'zbekiston turizm sohasining iqtisodiyotga ta'siri. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Havola: <https://www.stat.uz/images/uploads/reliz2024/turizmpresreliz2023uz.pdf>

2. Yusupov R. (2022). Xalqaro turizm va O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi. O'zbekiston Turizm Instituti nashriyoti. Havola: <https://cedr.uz/2024/10/04/o%CA%BBzbekistonda-turizmni-rivojlantirish-istiqbollari/>

3. Malaysian Tourism Board. (2023). Economic Impact of Tourism in Malaysia. Kuala Lumpur: Malaysia National Tourism Organization. Havola: <https://www.tourism.gov.my/statistics>

4. Karimov A. (2021). O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar: tarix va istiqbollar. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. Havola: <https://strategy.uz/index.php?lang=uz&news=1959>

5. UNWTO. (2023). Global Tourism Trends and Regional Economic Developments. Madrid: World Tourism Organization. Havola: HYPERLINK <https://www.unwto.org/global-tourism-trends>

UNWTO. (2023). Global Tourism Trends and Regional Economic Developments. (<https://www.unwto.org/global-tourism-trends>)

6. Eshtayev A. (2024). Xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari va unda O'zbekistonning o'rni. Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyoti jurnali, 2(1), 45-60. Havola: Eshtayev, A. (2024). Xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari va unda O'zbekistonning o'rni. (<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1104>)
7. Statista (<https://www.statista.com/statistics/1004729/number-of-hotels-malaysia/>)
8. Visual Capitalist (<https://www.visualcapitalist.com/map-worlds-top-countries-tourism/>)
9. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/58121-2024-yilning-yanvar-sentabr-oylarida-xizmatlar-sohasining-yalpi-qo-shilgan-qiymati-qanchaga-o-sdi>
10. O'zbekiston Parlamenti (<https://parliament.gov.uz/articles/1789>)
11. O'zbekiston Turizm sayti (<https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbekistonda-turizm-raqamlarda/>)
12. Stat.uz (2021) (https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/turizm_28_07_22_uz.pdf)
13. O'zbekiston elchixonasi Malayziyada (https://uzbekembassy.com.my/uzb/ozbekiston_malayziya/)

TURIZM SOHASI VA UNING DAROMADLILIK DARAJASINI ANIQLASH YO'LLARI

DILYAYRA TESHAYEVA

TDSHU, Tashqi siyosat va xalqaro

iqtisodiy munosabatlar instituti

Turizm 2-kurs malay-ingliz guruhi

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi N.Imamova

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda turizmning rivojlanishi, uning iqtisodiyotga ta'siri va daromadlilik darajasini aniqlash usullari tahlil qilingan. Turizm sohasi mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim bo'lib, nafaqat moliyaviy daromad, balki bandlikni oshirish, madaniyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi omillar bilan ham bog'liq. Maqolada turizm daromadlarini hisoblash metodlari, turizmning iqtisodiy va noiqtisodiy ta'siri, shuningdek, uning rivojlantirishida muhim omillar tahlil qilinadi..

Kalit so'zlar: Turizm, katalizator, yuklama darajasi, daromadlilik darajasi, sarmoya qaytarish darajasi, mijoz qoniqish darajasi, o'rtacha daromad ko'rsatkichi, rekonstruksiya.

Hozirgi butun dunyoda turizmga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida turizmdan tushadigan daromadni

olishi mumkin¹. Turizm sohasi global YAIMning taxminan 10% ini tashkil etadi va dunyo bo'ylab millionlab ish o'rinlari yaratadi². Nafaqat turizm daromadi bilan balki, barcha sohalarga aloqasi mavjudligi bilan ham ajralib turadi, qizig'i shundaki, turizm atrof-muhitni saqlash va yaxshilash, shuningdek, mahalliy xilma-xillik va madaniyatni saqlab qolish katalizatori sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Turizm (fransuzcha: *tour* — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda, jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy, amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda 24 soatdan kam bo'lmagan va 365 kundan oshmagan holda sayohat qilishi tushuniladi³.

Turizm bu ma'lum bir shaxsning ma'lum bir vaqtda, ma'lum maqsadlarda (pul topishdan tashqari) qilgan sayohatidir. Turist sayohat qiluvchi shaxs hisoblanadi.

Turizmning daromadlilik darajasi bu turizmdan keladigan tushumlar, foydalar yig'indisi hisoblanadi. Masalan bir turist sayohati davomida mehmonxonadan, gid (tarjimon), transport boshqa turli xil xizmatlardan foydalanadi⁴. Xizmatlar uchun ma'lum miqdorda mablag' to'laydi va bu orqali turizmdan daromad olinadi. Turizm sohasi bir vaqtning o'zida turli xil xizmatlardan foydalangan holda foyda olib keladi. Nafaqat moliyaviy foyda balki bo'sh ish o'rinlari yaratilishiga ham turtki bo'la oladi. Turistik maskanlar, tarixiy obidalarining yaxshi saqlanishi, rekonstruksiya qilinishi ham bevosita turizm bilan bog'liq. Davlatga qancha ko'p turist kelsa davlatdagi tarixiy obidalar, dam olish maskanlariga e'tibor kuchaytiriladi, ko'plab turistik maskanlar, dam olish maskanlari yaratiladi, mavjudlari rekonstruksiya qilinadi.

Turizmning daromadlilik darajasi nafaqat mablag' bilan balki u keltirgan yangiliklar bilan ham o'lchanadi. Masalan mamlakatga qancha ko'p turist kelib mamlakat tarixi, madaniyatini o'rganib o'z mamlakatiga qaytsa va shu bilimlarini boshqalarga ham ulashsa boshqa jismoniy shaxslar bu mamlakat haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladi. Bu asosan madaniyatlar almashinuvi natijasida shakllanadi. Bundan tashqari turizm rivojlanishi orqali texnologiyalar, turli xil yangiliklar kirib kelishni boshlaydi, turistlar o'zlari ko'rgan yangiliklarni o'rganib o'z mamlakatlarida ham foydalanadi. Buning natijasida jahon bozori standartlariga javob beradigan tovar va xizmatlar ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarishlar mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shadi.

Turizmning noiqtisodiy daromadlari turistlarning mamlakatga tashrifi sababli tarixiy obyektlar mamlakat tomonidan qattiq qo'riqlanadi. Ekologik

¹ UNWTO (2023). World Tourism Barometer. Retrieved from <https://www.unwto.org/world-tourism-barometer>

² World Bank (2022). Tourism for Development. Retrieved from <https://www.worldbank.org/en/topic/tourism>

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm>

⁴ Komilova F.K., Kamilov Z.K. (2011). Xalqaro turizm bozori: Marketing (turizm) yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: 144 b.

muammolarni oldini olish maqsadida ko'chatlar o'tqaziladi. Mamlakatga ko'p turistlarni jalb qilish orqali mamlakat tarixini, madaniyatini butun jahonga yoyiladi. Bu ham mamlakatning rivojlanishiga sabab bo'la oladi.

Iqtisodiy daromadning ko'payishi va kamayishi sabablari: Mamlakatning joylashgan o'rnini turizmga iqtisodiy daromadning oshishi sabablaridan biri sifatida ko'rish mumkin, mamlakat dengiz bo'yida joylashgan bo'lsa bu mamlakat uchun turizmning rivojlanishi va daromadning oshish anklav davlatlarga qaraganda ko'proq bo'ladi. Daromadning kamayish sabablaridan biri mamlakatda iqlimning yomonligi. Turistik hududda iqlim issiq va quruq bo'lsa bu mamlakatga turistlar tashrifi kamayadi va undan keladigan iqtisodiy va noiqtisodiy daromadlar ko'rsatkichi keskin tushib ketadi.

Turizm sohasi va uning daromadlilik darajasini aniqlash yo'llari:

1. Mehmonxona biznesi: Mehmonlar soni, o'rtacha xona narxi, xizmatlar uchun olingan qo'shimcha to'lovlar. Bunda asosan davlatdagi barcha mehmonxonalar soni, xonalarining soni, xonalar narxi, qancha turist kelib ketgani va olingan to'lovlar asosida hisoblanadi¹.

2. Sayohat va ekskursiyalar: Tur paketlari narxi, transport va gid xizmatlari xarajatlari. Tur operatorlari orqali davlatga qancha turist tashrif buyurganligini va qancha foyda keltirganligini ularning sotgan tur paketlari orqali ham aniqlash mumkin².

3. Oziq-ovqat va ichimliklar: Restoran yoki kafelarning daromadi va xarajatlari. Restoran va kafelarga qancha turist tashrif buyurganligini hisoblash orqali ular keltirgan daromadni aniqlash mumkin³.

4. Mahalliy tadbirlar yoki festivallar: Chiptalar savdosi va operatsion xarajatlar.

Turizmning daromadlilik darajasini aniqlash uchun aeroportlardan mamlakat hududiga tashrif buyurgan norezidentlarning soni va ular sarflagan daromadlar orqali ham aniqlash mumkin. Bundan muayyan qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin. Masalan kelgan shaxs mehmonxonadan foydalanmasdan qarindoshining uyida mehmon bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun aeroportlarda maxsus so'rovnomalar o'tkazish orqali turistlarning maqsadlari va shu maqsad yo'lida sarflaydigan pul mablag'larini aniqlash mumkin.

Turizm daromadlilik darajasini aniqlashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlar: Daromad (Revenue): Turistik xizmatlar va mahsulotlar orqali olingan jami daromadni aniqlash. Bu mehmonxona, ekskursiya, transport, ovqatlanish va boshqa xizmatlardan kelgan daromatlarni o'z ichiga oladi. Xarajatlar (Costs): Turizmni tashkil qilish uchun sarflangan xarajatlarni hisoblash. Bu infratuzilma, ishchilar maoshi, marketing va boshqa operatsion xarajatlarni o'z ichiga oladi. Foyda (Profit): Daromaddan xarajatlarni ayirib foyda miqdori aniqlanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2023). O'zbekistonda turizm statistikasi. Retrieved from <https://stat.uz>

² UNWTO (2023). World Tourism Barometer. Retrieved from <https://www.unwto.org/world-tourism-barometer>

³ O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi (2022). Turizm va iqtisodiyot. Retrieved from <https://uzbektourism.uz>

Daromadlilik darajasi (Profitability Ratio): Foyda miqdorini daromadga nisbatan foizda ifodalash orqali daromadlilik darajasini aniqlash: Sarmoya qaytarish darajasi (Return on Investment — ROI): turizm loyihasiga kiritilgan sarmoyaning qanchalik samarador ekanligini aniqlash uchun foydalaniladi. Bu ko'rsatkich investorlar uchun juda muhim, chunki sarmoyaning qanchalik tez va samarali qaytishini ko'rsatadi. Yuklama darajasi (Occupancy Rate): Agar mehmonxona yoki turar joy xizmatlariga e'tibor qaratilsa, ushbu ko'rsatkichni hisoblash lozim. Ushbu daraja joylarning qanchalik to'lganligini ko'rsatadi. Bu mehmonxona samaradorligi va bozordagi talabni baholashga yordam beradi. Xarajatlar tuzilmasi (Cost Structure Analysis): Xarajatlar turkumlarini tahlil qilish orqali qaysi sohalarida tejamkorlik qilish kerakligini aniqlash mumkin.

Misol uchun: Ish haqi va maoshlar marketing va reklama, transport va logistika, uskunalar va xizmat ko'rsatish xarajatlari. Xarajatlarni tahlil qilish orqali asosiy daromadni kamaytiruvchi omillarni aniqlash va optimallashtirish choralari ishlab chiqiladi. Mijoz qoniqish darajasi (Customer Satisfaction Level): Moliyaviy ko'rsatkichlardan tashqari, mijozlarning qoniqish darajasi ham daromadlilikka bevosita ta'sir qiladi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun so'rovnomalar, sharhlar va reytinglardan foydalanish mumkin. O'rtacha daromad ko'rsatkichi (Average Revenue per User — ARPU) Bu ko'rsatkich har bir mijozdan o'rtacha daromadni aniqlash uchun ishlatiladi: Bu orqali xizmatlar narxlari siyosatini optimallashtirish mumkin. Moliyaviy ko'rsatkichlar orqali aniqlash. Moliyaviy tahlil turizm obyektlari va kompaniyalarining daromad va xarajatlarining nisbati asosida amalga oshiriladi. Quyidagi ko'rsatkichlar ishlatiladi: Daromad va foyda tahlili: Turistik xizmatlardan olingan daromadlar (sayohat paketlari, mehmonxona joylashuvi, transport xizmatlari). To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar (xodimlarning ish haqi, reklama, operatsion xarajatlar). Sof foyda = umumiy daromad – umumiy xarajatlar¹.

Rentabellik koeffitsiyenti: Rentabellik (%). Turist oqimini tahlil qilish. Turistlar oqimi va ularning xarajatlari turizm daromadlilikini baholashda muhim ahamiyatga ega. O'rtacha bir turistning sarflagan mablag'lari. Turistlar oqimi mavsumiy dinamikasi (yil davomida). Turistlarning geografik kelib chiqishi (mahalliy yoki xalqaro). Bozor segmentatsiyasi va xizmat narxi tahlili. Turizm xizmatlarining narx darajasini aniqlash. Har xil bozor segmentlari bo'yicha daromadlar (luxury, medium, budget segmentlari). Sanoat tarmoq ko'rsatkichlari asosida baholash. Multiplikativ effekt: Turizm boshqa tarmoqlarga (transport, savdo, qishloq xo'jaligi) qanday ta'sir qiladi. Ish bilan ta'minlash: Turizm orqali yaratilgan yangi ish o'rinlari soni. Yalpi ichki mahsulotga (YAIM) hissasi: Turizm sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi. Turistik so'rov va qoniqish darajasini o'rganish. Mijozlarning qoniqish darajasini o'lchash (anketalar va so'rovlar). Turistlarning xizmatlarni takroriy tanlashi va tavsiyalari darajasi. Texnologik vositalar yordamida tahlil Big Data tahlili: Turistlar xarajatlarini, sayohat davomiyligini va yo'nalishlarini kuzatish. Online

¹ UNWTO (2023). World Tourism Barometer. Retrieved from <https://www.unwto.org/world-tourism-barometer>

platformalar: Turistik xizmatlarning onlayn reytinglari va sharhlari orqali iqtisodiy samaradorlikni baholash.

Xulosa: Turizmni iqtisodiy va noiqtisodiy daromadlarini to'g'ri yo'naltirish orqali bo'sh ish o'rinlari yaratish maqsadga muvofiqdir. Turizmni rivojlantirish uchun iqlim, hudud hisobga olinishi zarur. Turizmda raqobatbardosh bo'lish uchun turistlarga tez, sifatli va arzon xizmatlar ko'rsatilishi va turistlarni tashrifi sonini oshirish uchun eng zamonaviy transport vositalaridan keng qo'llanishi ijobiy natijalarni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNWTO (2023). World Tourism Barometer. Retrieved from <https://www.unwto.org/world-tourism-barometer>
2. World Bank (2022). Tourism for Development. Retrieved from <https://www.worldbank.org/en/topic/tourism>
3. Komilova F.K., Kamilov Z.K. (2011). Xalqaro turizm bozori: Marketing (turizm) yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: 144 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2023). O'zbekistonda turizm statistikasi. Retrieved from <https://stat.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi (2022). Turizm va iqtisodiyot. Retrieved from <https://uzbektourism.uz>

PLACE AND ROLE OF THE STATE IN THE MARKET ECONOMY

ZARNIGOR YO'LDOSHEVA

TSUOS 2-course,

Economics of Foreign Countries and Area Studies

Academic Advisor: Zakirjanova F.Y. Senior Teacher

Annotation: This article provides a precise description of the market economy, how actually it should function in order to be effective in the development of the country's economy. As well as the importance of government intervention in the market economy explaining how state contributes to the development of the economy by its regulations, law, standards and support. At the same time, it includes real events to stress the certain functions of the state in the market economy and following with the theories of the great economists. Article underlines the necessity to find golden mean between market and command economy.


Key words: Market economy, supply and demand, privatization, competition, government intervention, market failures, monopolies/oligopolies, market regulation, Adam Smith, John Maynard Keynes, Great Depression, command economy, economic stability, economic growth.

Introduction. What is the market economy?

A market economy is an economic system where two forces, known as supply and demand, direct the production of goods and services. Market economies are not controlled by a central authority (like a government) and are instead based on voluntary exchange.¹ Market economies rely on the interplay between supply and demand to function. “Demand” refers to the amount of goods and services people need or want. “Supply” refers to the amount of goods and services available for purchase. If the supply is low while the demand is high, it drives up the price that someone can charge for it. Conversely, if there is a greater supply of a certain good and people do not want it as much, the price will go down. The levels of supply and demand for any given good or service tend to move toward an equal balance—but this equality, if achieved, cannot be held for long, so the tension between supply and demand creates a fluctuating market². This type of economic system does not need excessive intervention of the state. Currently countries like United States of America, Denmark, the Great Britain and some of the other developed countries’ economy rely on this economic system, rest of the developing countries improving their economic situation by applying theories of the market economic system which we will introduce below³.

Market economy can be characterized by three factors. Privatization is one of the greatest influences in the market economy. As illustrated in Figure 1, it should make up half of the market share, highlighting its main place in developing countries through the market economy. As privatization allows the owners to freely supply their goods or services. This naturally leads to competition, which is another important aspect of the system. According Figure 1 it should account over quarter, underlying its importance, as it helps to determine the quality of a certain product in the market affecting supply and demand. Another not least crucial factor is the minimum intervention of the government in this economy, conversely, it would be turned to the command (planned) economy in which the state fixes everything in the market including products’ price, their quantity, and importantly demand and supply. Well, what all those numbers mean? What can we conclude from the illustrated diagram? Figure 1 outlines as a following, while state should regulate and address market failures, but, still, state intervention should take a smaller share compared

Figure 1. This diagram represents the nominal shares of market economy characteristics, ranking their importance



Source: This diagram was created by the author of the article using AI

¹ National Geographic. (n.d.) Market economies. <https://education.nationalgeographic.org/resource/market-economies/>

² National Geographic. (n.d.). Market economies. <https://education.nationalgeographic.org/resource/market-economies#:~:text=Article%20Vocabulary,instead%20based%20on%20voluntary%20exchange.>

³ study.com (n.d.) <https://study.com/academy/lesson/what-is-a-market-economy-definition-advantages-disadvantages-examples.html>

to the other two elements which are competition and privatization¹. Despite the small amount of the state intervention share in the market economy, government plays key role in many scopes of the market economy system. Almost all countries with market economy system have alike structure. Without any doubt it revealed its effectiveness to structure country economy.

Why should state participate in the market mechanism?

To complete handicaps of the market economy. They are usually called market failures. Even though the market economy is reliable and effective, it has several drawbacks that are difficult to address without government support.

Market failure refers to situations in which the free market, operating without government intervention, leads to inefficient or inequitable outcomes. These failures occur when the market cannot allocate resources in a way that maximizes overall welfare. Common types of market failures include overuse of resources, unequal distribution of wealth, and monopolies²

Resource overuse: In a market economy, businesses often prioritize short-term profits over long-term sustainability. This can lead to the overexploitation of non-renewable resources such as fossil fuels, minerals, and water;

Social stratification: Unequal distribution of wealth can lead to social stratification, where significant disparities in living standards and access to opportunities exist between different socio-economic groups;

Monopolies and Oligopolies: Without regulation, markets can lead to monopolies or oligopolies where one or a few firms dominate the market. This reduces competition, leading to higher prices, lower quality products, and reduced innovation, leaving no choices to buyers with only limited or couple of product types;

Regulation of the market environment: The market itself is unable to stimulate illegal acts that are around and does not guarantee the right to work;

Does not provide scientific exploration;

Unable to cope with rising inflation and unemployment³.

How does the State address to drawbacks of the market economy?

After understanding the drawbacks of this types of market system it is straightforward to form the main functions of the government, precisely as follows;

- Defining rules of property
- Setting market standards
- Providing public goods
- Creating a labor force
- Ameliorating externalities

¹ <https://www.investopedia.com/terms/f/factor-market.asp#:~:text=The%20three%20main%20factor%20markets,and%20uses%20the%20fin,ished%20products.>

² Corporate Finance Institute. (2023). Market Failure. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/economics/market-failure/>

³ С.Г. Севлякянц О.Э. Отто Б.Т. Тешаев. Экономика — основа жизни общества Т.1998г стр.254-255

- Promoting competition¹.
- **Government Fiscal and Monetary Policies**²

1. Law and order help to structure the economy by providing predictability. Creating a legal system that can punish people who commit fraud, and letting them know if they commit fraud will be punished can prevent them from doing so.

2. Defining rules of property, without government, what you consider your property might not truly be “yours”. This is especially clear with land (real property). For example, trespass laws are an important way the law creates and protects property rights. Ownership is essentially a bundle of rights that defines what you can and can’t do with something. Without clear ownership rules, buying or selling property would be impossible.

3. Market standards. Setting market standards is crucial for ensuring fair competition, consumer protection, and overall market efficiency, this means that the buyers and sellers are operating on the same playing field.

4. This brings us to the concept of public goods. Public goods are services the government provides to all citizens. An example is public transportation, like buses and subways, which are often subsidized by the government. While not free, they are offered at a lower cost than if run by private companies, especially in areas where private companies may not operate.

5. The main way of creating of labor force for the government is by compulsory education up to a certain age, this may be seen as nothing, but it going to help gain confidence while applying to the job.

6. An external effect that is a byproduct of a market transaction. The state deals with these negative externalities through regulation as well as taxes.

7. Anti-trust-laws to address monopoly, but usually governments try to make the market more competitive than less³.

8. Fiscal policies employ government spending and tax programs to stimulate the national economy in times of high unemployment and low inflation, or to slow it down in times of high inflation and low unemployment. To stimulate the overall level of spending, production, and employment, the government itself will spend more and tax less, even if it incurs a deficit.

Monetary policy involves changes in a nation’s supply of money and the availability of credit. To increase spending in times of high unemployment and low inflation, policymakers increase the supply of money, which lowers interest rates (that is, reduces the price of money), thereby making it easier for banks to make more loans. This encourages more spending on consumption by putting

¹С.Г. Севлякянц О.Э. Отто Б.Т. Тешаев. Экономика — основа жизни общества Т.1998г стр.254-255

² U.S Economy. (2015) What is the Market economy? <https://usinfo.org/enus/economy/index.html>

³ You Tube (2024) Crash Course “Market Economy” <https://youtu.be/6yLY06tTQ1A?si=HgqRIPMvW9v8sOss>

